

**OZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BERDIYEV BEKTOSH OXNOROVICH

**O'ZBEKISTON XALQARO IMIDJINI
YUKSALTIRISHNING IJTIMOIIY, SIYOSIIY VA
HARBIY MASALALARI**

MONOGRAFIYA

TOSHKENT - 2024

O'ZBEKISTON XALQARO IMIDJINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIIY, SIYOSIY VA HARBIY MASALALARI

KIRISH

I BOB O'ZBEKISTON XALQARO IMIDJINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR

- 1.1 O'zbekistonda siyosiy va fuqarolik institutlari faoliyatida PR texnologiyalarini joriy qilishning dolzarb masalalari
- 1.2 Yoshlar dunyoqarashini himoya qilish va yuksaltirishda siyosiy bilimlarning o'rni
- 1.3 Millatlararo munosabatlarning murakkablashuv jarayonlari hamda axborotlarning salbiy ta'siri
- 1.4 G'oyaviy-mafkuraviy ziddiyatlarning kuchayishi va siyosiy modernizatsiyalashning dolzarb masalalari
- 1.5 Davlat imidjini yuksaltirishda diniy omilning ahamiyati
- 1.6 Globallashuv sharoitida davlatning radikalizmga qarshi kurash siyosati va uning xalqaro maydondagi imidjini yuksaltirish masalalari

II BOB O'ZBEKISTON XALQARO IMIDJINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIIY MASALALARI

- 2.1 Yangi O'zbekistonning yangi imidjini yuksaltirishda turizm sohasini rivojlantirish masalalari
- 2.2 O'zbekistonning xalqaro imidjini yuksaltirish – davlatning strategik vazifasi sifatida
- 2.3 Markaziy Osiyo mintaqasida millatlararo munosabatlar va axborot hurujlarining salbiy ta'siri
- 2.4 Professional siyosatshunoslarni tayyorlash va siyosiy fanlarning imidjini yuksaltirish omili
- 2.5 Gumanitar fanlarni rivojlantirishning dolzarb muammolari va ularning mamlakat imidji tizimidagi o'rni
- 2.6 Mamlakat ijobiy qiyofasini shakllantirish va xalqaro imidjini ilgari surishning dolzarb masalalari

III BOB O'ZBEKISTON XALQARO IMIDJINI YUKSALTIRISHNING SIYOSIY MUAMMOLARI

- 3.1 O'zbekiston - davlat hokimiyatidagi institusional o'zgarishlar va jadal demokratik yangilanishlar davri
- 3.2 Professional boshqaruv kadrlar tayyorlash: muammolar va vazifalar
- 3.3 O'zbekistonning xalqaro maydondagi imidjini yuksaltirishning siyosiy jihatlar
- 3.4 O'zbekistonning xalqaro imidjini yuksaltirish – davlatning strategik vazifasi
- 3.5 Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi mamlakat xalqaro imidjini yuksaltirishning muhim siyosiy omili sifatida
- 3.6 Samarali siyosiy modernizatsiya jarayonlari – O'zbekistonning xalqaro imidji yuksalishining muhim aspekti sifatida

IV BOB DAVLAT TASHQI SIYOSATI VA XALQARO TASHABBUSLARINING O'ZBEKISTON XALQARO IMIDJINI YUKSALTIRISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

- 4.1 Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi faoliyat
- 4.2 Mamlakatning xalqaro imidjini yuksaltirishda YUNESKO ning oʻrni va roli
- 4.3 Markaziy Osiyo boʻyicha integratsiyaviy tashabbuslar Oʻzbekiston xalqaro maydondagi imidjini yuksaltirishning muhim omili sifatida
- 4.4 Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik va mamlakatning xalqaro imidji

V BOB MAMLAKAT IMIDJIDA HARBIY SOHANING OʻRNI VA SALOHİYATINI OSHIRISHNING HARBIY JIHATLARI

- 5.1 Mudofaa sohasining imidjini yuksaltirish va boshqarish muammolari
- 5.2 Qurolli kuchlar sohasining imidjini yuksaltirish va boshqarish muammolari
- 5.3 Mamlakat barqarorligini taʼminlash masalalari va davlatning xalqaro imidji masalalari
- 5.4 Xalqaro miqyosdagi xavf-xatarlarga qarshi kurashda davlat siyosiy imidji masalalari
- 5.5 Qurolli kuchlar imidji va PR muammolari

KIRISH

Ma'lumki, bugungi globallashuv zamonida axborotning o'rni va roli tobora yuksalib borayotganligiga guvoh bo'lib turibmiz. Bunday sharoitda Yangi O'zbekistonda yuz berayotgan keng ko'lamli o'zgarishlarni, jadal islohotlarni, milliy davlatchilikni mustahkamlash va taraqqiyot yo'lidan tobora ilgarilab borayotganligini xalqaro hamjamiyatga ko'rsata bilish, ularning xolis bahosiga erishish, mamlakatning xalqaro maydondagi imidjini yuksaltirish borasidagi yutuqlarini namoyish qilish vazifalari nafaqat siyosatshunoslarning, balki barcha sohadagi mutaxassislarning ham eng dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Zero, axborot makonida jadallashayotgan shiddiatli jarayonlar ta'sirida davlatning imidji mamlakat raqobatbardoshligining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, mamlakatning ijobiy obrazini va imidjini yaratish ko'p jihatdan imidjni shakllantirish masalalari bilan shug'ullanadigan mutaxassislarga, ularning bilim va salohiyatiga. zamonaviy axborot va imidj texnologiyalarini shakllantirish mexanizmlaridan samarali foydalana olishga bog'liq.

Barchamiz guvohi bo'lib turganimizdek, zamonaviy dunyoning naqadar tez rivojlanib borishi sharoitida har qanday ijtimoiy o'zgarishlarning, transformasion jarayonlarning muvaffaqiyatli va tekis amalga oshishida axborot ta'sirlarining o'rni va roli, resurs va rahbatlantiruvchi kuch sifatidagi ta'siri nihoyatda yuqori bo'lmoqda. Biror bir davlat, millat, xalq, jamiyat haqidagi axborotlarning qay tarzda tarqalishiga, aniqrog'i, tarqatilishiga qarab, ijtimoiy realliklarda uning ma'naviy, siyosiy tassurotlari yaraladi. Mamlakatning imidji esa jamoatchilik ongida ayni o'sha axborotlar ta'siri ostida shakllanadi. Mutaxassslarning fikriga va ma'lum doira tadqiqotlarga tayanib xulosa qilish mumkinki, OAVlar bu jarayonda nafaqat ijtimoiy munosabatlarni, balki siyosatning ham yaratuvchilaridir.

Shu nuqtai-nazardan ham bugungi kunda mamlakat ijobiy imidjini, jozibador qiyofasini ilgari surishda samarali texnologiyalarni yaratish. OAV va boshqa turli kanallardan foydalanish masalalari siyosiy va boshqa ijtimoiy fanlarning muhim, ustuvor, kerak bo'lsa, strategik vazifasidir.

Shular qatorida, turli ilmiy, ijtimoiy, ma'naviy va ma'rifiy, madaniy imkoniyatlarni to'liq ishga solish, dunyoning mana-man degan qudratli davlatlari bilan hamkorlik qilish, ularning imidj yaratish bilan bog'liq texnologiyalaridan va tajribalaridan foydalanish bugungi kundagi ilmiy jamoatchilikning ham oldida turgan eng muhim masalalaridan bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, dunyodagi axborot oqimlarining o'ziga xos xususiyatlari va ularda O'zbekiston haqidagi iliq va ijobiy ma'lumotlarni ko'paytirish, mamlakatimizning ijtimoiy, siyosiy va harbiy imkoniyatlarini dunyo miqyosida keng yoyish, ushbu sohalarning imidj hosil qiluvchi tizim sifatidagi salohiyatini yuksaltirish bilan bog'liq vazifalar mamlakatimiz ilmiy va siyosiy jamoatchiligi oldida turgan ustuvor masalalaridan bo'lib qolmoqda.

I BOB. O‘ZBEKISTON XALQARO IMIDJINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR

1.1. O‘zbekistonda siyosiy va fuqarolik institutlari faoliyatida PR texnologiyalarini joriy qilishning dolzarb masalalari

Bugungi kun ijtimoiy-siyosiy hayotida PR texnologiyalardan foydalanish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Nafaqat iqtisodiyot, marketing, sanoat, moliya va boshqa sohalarda, balki, siyosat va boshqaruv sohaslarida ham ushbu texnologiyalarning o‘rni beqiyos ekanligi qadimdan ma’lum. O‘z davrida muvafaqiyatga erishgan, katta shonu-shuhrat egalari bo‘lgan podshohlaru-hukmdorlar, sarkardayu fotihlar, siyosatchilar va davlat arboblari o‘sha davrga xos bo‘lgan ushbu texnologiyalaridan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratganlar. Davrlar o‘tishi bilan xuddi insoniyat taraqqiyoti va texnik rivojlanish singari, PR sohasi ham jamoatchilikning ongini boshqarish jabhalarida, siyosiy yetakchining mavqeini mustahkamlashda, xalq orasida uning obro‘cini oshirishda, saylovlarda biror bir liderning yoki guruhning, siyosiy partiya yoki harakatning ustunligini ta’minlashda keng qo‘llanila boshlagan. O‘z davrida sobiq ittifoqning qattol yetakchisi bo‘lgan Stalin rejissyorlar va ijodkorlarni “inson qalbining muhandislari” deya ta’riflaganligi ham bejiz emas. Zero, davlat o‘sha davrda o‘z ijobiy qiyofasini shakllantirish uchun siyosiy PR ning eng asosiy targ‘ibotchilari sifatida teatrlardan, muzeylardan, artistlaru suhandonlardan, adabiyotdan va axborotdan juda ustalik bilan foydalangan.

Bugungi kun realliklari haqida gapirganimizda, mamlakatimiz siyosat maydonida PR-texnologiyalarning qo‘llanilishi yetarli darajada emas. Buning asosiy sabablari sifatida zamonaviy PR sohasidagi mutaxassislarning yetishmasligiga, tashkilotlar va davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari bu texnologiyalarga nisbatan katta ehtiyoj sezmayotganligi va hokazolardir. Shuningdek, ko‘pchilik tashkilot rahbarlari, siyosiy partiyalarning, jamoat tashkilotlarining turli bo‘g‘in yetakchilari, davlat boshqaruvi organlarining har xil darajadagi boshqaruvchilari tomonidan o‘tgan asrdagi piar texnologiyalardan hanuzga qadar foydalanayotganligi, ba’zi hollarda esa umuman ushbu texnologiyalarga murojaat qilmayotganligini qayd etishimiz joiz. Davlat idoralarini yoki lavozimda faoliyat yuritayotgan mansabdorlarniku qo‘yaturaylik, bu borada avangard bo‘lishi lozim bo‘lgan fuqarolik institutlari va siyosiy partiyalarning nafaqat odatdagi faoliyati, balki, saylovoldi targ‘ibot va tashviqot faoliyati ham bugungi kun talablariga javob bermaydi, nazarimizda. Garchi, mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev bundan uch yil oldin, ya’ni 2017 yil 13 iyuldagi Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O‘zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasida **“...siyosiy partiyalarning aholi bilan muloqoti, targ‘ibot-tashviqot ishlari, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorligini ham yetarli deb bo‘lmaydi”** [2] deya alohida ta’kidlab o‘tgan bo‘lsalarda, siyosiy partiyalarning zamonaviy PR texnologiyalarni qo‘llash borasidagi bu boradagi ular uchun edi. Xo‘sh, bugunga kelib vaziyat o‘zgardimi? Afsuski, yuqorida sanab o‘tilgan

tashkilot va idoralarning, fuqarolik jamiyati institutlarining katta strategik va taktik maqsadlarini amalga oshirishda zamonaviy PR texnologiyalardan samarali foydalanish darajalari pastligicha saqlanib qolmoqda. Holatning bunday turg'unligi yoki rivojlanish darajasidan ortda qolayotganligi, gohida tobora rivojlanib borayotgan jamiyatning talablariga javob berishda barcha bo'g'indagi davlat organlari rahbarlarining, deputatlarning, siyosiy partiyalar va ularning hududiy kengashlarining zaifligini ham ko'rsatib qo'ymoqda. Demak, mamlakatda sog'lom siyosiy muhitni va raqobatni ta'minlash uchun zamonaviy PR-texnologiyalardan foydalanish, faoliyatga keng joriy qilish masalalarini hal qilish eng ustuvor vazifalarimizdan biriga aylandi.

Taraqqiyotga erishgan xorijiy mamlakatlar tajribasiga qaraydigan bo'lsak, har qanday siyosiy tizimning, jarayonning muhim texnologik qismi hisoblangan PR barcha jabhalarda qo'llaniladi, o'zining mohiyatiga ko'ra siyosiy PR, siyosiy muloqot, targ'ibot-tashviqot shakllarida jamoatchilik ongiga ta'sir ko'rsatish, uni boshqarish, ob'yekt va sub'yekt o'rtasidagi muloqotni ta'minlash, axborotni tarqatish va qabul qilish bilan bog'liq siyosiy voqealar, hodisalar, jarayonlar tushuniladi. Ayniqsa, siyosiy tizimning o'z aslida axborotsiz aslo mavjud bo'la olmaydi. G'arb jamiyatlarida shakllangan va tobora kengayib borayotgan bir tushuncha bor, ya'ni "zamonaviy jamiyatda siyosiy tuzilmalar, siyosatning sub'yektlari, guruhlar, individlar va jamoat tuzilmalari o'rtasidagi o'zaro axborot almashinuvlari hayotiy muhim hisoblanadi". [3: 59].

Agar bor yo'g'i bir necha o'n yillik oldingi tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'tgan asrning 80-yillari oxiri va 90-yillari boshlaridagi vaziyat tom ma'noda PR-texnologiyalarining kirib kelishi va shiddat bilan rivojlanganlik davri bo'lgan edi desak hecham mubolag'a bo'lmaydi. Turli millatchi partiyalarning chiqishlaridan tortib, populistik shiorlarni ilgari surish borasida musobaqalarning avj olganligi, jamoatchilik ongiga ta'sir ko'rsatish, uni boshqarish, olomonni junbushga keltirish bilan bog'liq o'sha davrga xos bo'lgan texnologiyalarkeng qo'llanila boshlandi va bu holatlar, mutaxassis sifatida aytadigan bo'lsak, sobiq ittifoqning tarqalib ketishi sabablarini o'zida aks ettirgan chiqishlarga aylanib ketgan edi.

Ammo, keyinchalik, axborotni jilovlash, boshqarish, davlat va hokimiyat manfaati yo'lida foydalanish, jamoatchilik fikrini o'z manfaatlariga bo'ysindirish borasida sobiq ittifoq davlatlarining ko'pchiligi tomonidan joriy qilingan siyosat tufayli, PR texnologiyalar asta-sekin "siyosatdan uzoqlasha boshladi" va biznes strukturalar faoliyatiga, ijtimoiy hayotga kengroq singib ketdi. Buning o'ziga xos salbiy va ijobiy tomonlari ham bo'lib, PR texnologiyalardan ko'pincha mamlakatni va jamiyatni beqarorlashtiruvchi kuchlarning ham keng foydalanishi va buning ortidan ko'plab buzg'unchiliklar, qo'zg'onlonlar, ommaviy tartibsizliklarning kelib chiqqanligini ham sabab sifatida keltirishimiz mumkin. Shuningdek, yuqorida keltirib o'tganimizdek, PR texnologiyalarning "siyosatdan begonalashib borishi"ning asl sabablari, ularni qo'llash maydoni yo'qligi, deputatlik yoki boshqa lavozimlarga davlatning ma'muriy resurslari orqali hal qilinganligi kabilarni ko'rsatishimiz mumkin. Depuqtatlikka nomzodlar yoki siyosiy va fuqarolik jamiyati

institutlari esa yuqoridan keladigan ko'rsatmalarnigina bajarish bilan shug'ullangan, aksariyat hollarda "ortiqcha harakat" qilishga esa ehtiyoj sezmagani.

Bugun zamonning shiddat bilan rivojlanib borayotganligi, davlat siyosatining fuqarolar siyosiy va ijtimoiy faolligiga keng yo'l ochayotganligi, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati ortib borayotganligi sharoitida esa PR texnologiyalarga ham talab borgan sari ortib bormoqda. Parlament va prezidentlikka bo'lib o'tadigan saylovlarda, davlat va jamoat tashkilotlari organlari faoliyatida, ma'lum bir ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ushbu texnologiyalarni qo'llashning imkoniyatlari ortib bormoqda, uning samaradorligi esa hech kimda shubha qoldirmayapti. Bugun har qaysi tashkilot o'z faoliyatini, amalga oshirayotgan ishlarini turli PR texnologiyalar va uslublar yordamida keng targ'ib qilishga jon-jahdi bilan harakatlarni avj oldirmoqda. Bunday institutlar qatoriga siyosiy partiyalarni, jamoat birlashmalarini, kasaba uyushmalarini, OAV kiritish mumkin. Aynan ular aholi, elektorat, tarafdorlari, qo'llab-quvvatlovchilari, ma'lum bir auditoriya uchun axborotlarni taqdim qilish, zamonaviy targ'ibot-tashviqot va jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalari orqali o'zlarini reklama qilish va jamoatchilik ongini ma'lum bir yo'nalishga solish borasidagi faoliyatning yetakchilari bo'lishga harakat qilishlari lozim.

Lekin, shuni ham alohida qayd etish lozimki, bugungi kun talabidagi, zamonaviy PR-texnologiyalarning mavjudligi ham o'z-o'zidan ma'lum bir sharoitlarni, imkoniyatlarni taqazo qiladi. Buning uchun huquqiy va siyosiy shart-sharoit, fuqarolik jamiyati institutlarining, OAVlarning erkinligi, jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatishning zamonaviy platformalari kabilar albatta bo'lishi lozim. Lekin, shu bilan birga, davlatning axborot tarqatish monopoliyasi yoki saylovlarni tashkil qilishdagi ma'muriy ustunligi ham aksariyat hollarda PR-texnologiyalar qo'llanilishidagi raqobatga va xolislikka putur yetkazadi. Shuning uchun ham, jamiyat va davlat hayotida demokratik ruhning, tamoyillarning qanchalik darajada takomillashganligi fuqarolik jamiyati institutlari uchun ham bunday texnologiyalardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Har bir faoliyatning muammosi, kamchiliklari, rivojlanish tendensiyalari, taraqqiyot bosqichlari, takomillashuv va modernizasion motivlari bo'lgani singari, mamlakatimizda ham zamonaviy PR texnologiyalarni barcha sohalarda qo'llashning muammolari, yechimlari va istiqbollari mavjud. Faqat, bu borada aniq tahlillar, prognozlar, PR texnologiyalar, imidjmeckerlik xizmatlari va hokazolarni rivojlantirishning bugungi kunning eng katta talabidir.

Ayniqsa, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga nazar tashlaydigandan bo'lsak, bu borada juda katta muammolar mavjudligiga guvoh bo'lamiz. Har bir partiyaning markaziy siyosiy organlarida, shuningdek, viloyat, tuman va boshqa hududiy bo'linmalari ishini, kadrlar salohiyatini, ularning mutaxassisliklarini va ixtisosliklarini o'rganib qaraydigan bo'lsak, o'ta murakkab vaziyatga duch kelishimiz bilan bir qatorda, ko'pchilik partiya xodimlari va kadrlarining zamonaviy pablik rileyshnz texnologiyalaridan nafaqat uzoqligini, balki, bu boradagi oddiy tushunchalardan ham anchayin yiroq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Kuzatishlarimiz va o'rganishlarimiz asosida, shuni ta'kidlash lozimki, partiyalar

matbuoti esa har qalay, bugungi kun talabiga bir muncha moslashayotganligini ta'kidlagan holda, partiya imidjini shakllantirishning zamonaviy uslublarini yanada jadal o'zlashtirishi masalalari dolzarbligicha bo'lib qolmoqda. Zero, katta siyosat va davlat arbobi sifatida nomi tarixda qolgan AQSH prezidentlaridan biri Tomas Jeffersonning: "Agar menga hukumat bo'lsinu gazetalar bo'lmasin yoki gazetalar bo'lsinu hukumat bo'lmasin – birini tanlang, deyishsa, men hech ikkilanmay hukumat bo'lmasa ham gazetalar bo'lishi kerak, degan bo'lardim" – [4] degan so'zlari bugungi kunning ham muammosidek guyo.

Shuningdek, yana bir muhim soha, bu ham bo'lsa, davlat boshqaruv organlari va tashkilotlari faoliyatida PR texnologiyalarning qo'llanilishi bilan bog'liq holatlar ham qoniqarli emas. Mamlakatimizning jahon miqyosidagi obro'-e'tibori tobora yuksalib borishi sharoitida ko'plab rahbar kadrlarning ushbu texnologiyalarni bilmasligi, hattoki, zamonaviy axborot vositalaridan, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish samaradorligi o'ta past darajada saqlanib qolayotganligini e'tirof etishimiz lozim. Jamoatchilik ongiga kuchli ta'sir ko'rsatish orqali o'z imidjini yuksaltirish, jamoa, tashkilot, kompaniya, siyosiy partiya yoki davlat haqida ijobiy fikrlarni shakllantirish kabi strategik vazifalarni bajarishda ko'plab rahbar kadrlarning saviyasi pastligi, tashkilotlarning bu sohaga ustuvor vazifalar sifatida qaramasligi holatlarni ham aslo inkor qilmasligimiz lozim.

Ijtimoiy tarmoqlarda respublika tashkilotlaridan tortib, hududlardagi boshqaruv xodimlariga qadar muammolarning, jamiyat taraqqiyotiga moslasholmayotgan rahbarlar yoki idoralarning faoliyatidagi kamchiliklarning tobora ko'plab muhokamalarga sabab bo'layotganligi yuqoridagi fikrlarimizning isbotidir. Zero, har bir rahbar yoki tashkilot zamonaviy dunyoning quyidagi xususiyatlarini albatta e'tiborga olmog'i bugungi kunning talabiga aylanib ulgurganligini aslo unutmasligimiz lozim:

- dunyoning globallashuv jarayonlarini hisobga olishi;
- axborot makonida ro'y berayotgan voqeliklardan doimiy xabardor bo'lishi;
- davlat, jamiyat, xalq manfaatiga zid axborotlardan xabardor bo'lish va yuksak malaka hamda tafakkur bilan ularga javob qaytara olishi;
- mamlakatning obro'siga daxl qiladigan, jamiyatning beqarorligiga sabab bo'ladigan, tinchini buzadigan, yolg'on va noxolis axborotlarga doim qarshi tura olish va hokazo.

Zero, bundan bir necha asr oldin ulug' mutafakkiru-alloma, shoiru davlat arbobi Mir Alisher bobomiz aytganlaridek, "Agar ogohsen sen, shohsen sen". Dunyoning naqadar bezovtaligi, axborotning juda katta qudratga ega bo'lib borayotganligi, uning natijasida butun-butun davlatlar va jamiyatlar porakandalikka yuz tutayotganligini hisobgna olsak, bugungi kun turli bo'g'indagi rahbarlardan nafaqat berilgan topshiriqlarning ijrosini bajarishni, balki yuksak tafakkur va bilimga tayanib, jahon maydonida davlat va jamiyat obro'sini, xalqaro imidjini yuksaltirishiga o'z hissasini qo'shishni ham talab qiladi.

1.2. Yoshlar dunyoqarashini himoya qilish va yuksaltirishda siyosiy bilimlarning o'рни

Jahon miqyosida g'oyaviy mafkuraviy ziddiyatlarning tobora avj olib, qaysidir davlatlar va jamiyatlar uchun halokatli kuchga, qaysidir davlatlar va kuchlar uchun manfaatlarini ro'yobga chiqarishning asosiga aylanib borayotganligi bilan xarakterlanadigan bugungi murakkab davrda har bir mamlakatning oldida turgan eng dolzarb muammo bu yoshlar ongini, mafkurasini, ma'naviyati va madaniyatini asrash, himoya qilish hisoblanadi. Bu mavzuning, muammoning borgan sari dolzarblashib borishiga asosiy sabablar sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

birinchidan, dunyoda g'oyaviy kurashlarning keskinlashuvi va bu jarayonga milliardlab mablag'larning sarflanishi hisobiga xilma-xil mafkuralarning qudrati va imkoniyatlari ortib borishi;

ikkinchidan, iqtisodiy, ijtimoiy muammolarning chuqurlashib borishi, aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida ishsizlikning tobora ortib borishi, ularda siyosatga nisbatan befarqlik kuchayishi bilan bog'liq kayfiyatning paydo bo'lishi va natijada mafkuraviy ishonchsizlik hissining kuchayishi;

uchinchidan, ma'lum bir davlat va jamiyatdagi yoshlarning kayfiyatiga ta'sir ko'rsatish va ulardan o'z strategik manfaatlarida foydalanish uchun geosiyosiy faollik turli formatlarda rivojlanib, takomillashib borayotganligi, beqarorlik muhitidan manfaaddor kuchlarning faoliyati tobora kengayayotganligi;

to'rtinchidan, yoshlar ongiga, siyosiy qarashlariga kuchli ta'sir ko'rsatish, yo'naltirish va safarbar qila olish qudratiga, salohiyatiga ega bo'lgan axborot omilining qudrati tobora ortganligi;

beshinchidan, yoshlarni birlashtirish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, salbiy mafkuralaridan himoya qilish borasidagi davlat siyosatining samarasi pastligi, davlat institutlarining yoshlarda vujudga kelayotgan ehtiyojlarni qondirish borasidagi faoliyati sustligi, hattoki adekvat javob bera olish salohiyati yo'qligi va xokazlar.

Demak, bu borada davlat siyosatining samaradorligini oshirish, siyosiy institutlar va davlat organlarining faoliyatini rivojlantirish, takomillashtirish muammolari borgan sari keskinlashib boraveradi. Ijtimoiy zaif va psixologik o'ta beriluvchan ushbu qatlamni turli ijtimoiy larzalardan, salbiy mafkuralar va g'oyalardan himoya qilish davlatning ustuvor siyosatiga, strategik vazifasiga aylanganda, amaliy ishlar qilinsa, doimiy siyosiy bilimlar bilan ongiga ta'sir ko'rsatilsa kutilgan natijaga erishish mumkin. Yoshlar ongini egallayotgan salbiy mafkuralar ichida eng xavflilari ichida birinchilar qatorida diniy eskremizm, fundamentalizmni qo'yish mumkin. Aynan ushbu omil yoshlarda mutaassiblikni, erkin fikrlash qobiliyatini yo'qotishni, rahnamolari tomonidan buyuriladigan har qanday vazifani so'zsiz bajarishlariga, turli terrorchilik asosida hattoki, o'zini o'zi qurbon qilishlariga ham olib keladi va bu haqda ortiqcha so'z yuritishga hojat yo'q. Eng asosiysi jozibador islom g'oyalaridan foydalangan holda, ularni jannat bilan

mukofotlash va'dasi tufayli yoshlarni butunlay manqurtga aylantirish bugun odatiy amaliyotgan aylandi va bu holatlarni Suriya, Afg'oniston singari davlatlarda yuz berayotgan voqealarga kuzatishimiz mumkin. Eng asosiysi, ushbu davlatlarda birinchi galda, davlat institutlari va organlariga nisbatan yoshlar ishonchini yo'qotib, ularni fikrlash imkoniyatidan mahrum qilib, xunrezliklar amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin.

Yana bir xavfli siyosiy mafkura bu oxirgi vaqtlarda turli ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng quloq yoyib borayotgan Panturkizm g'oyalaridir. Bir tomondan, O'zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a'zo bo'lishi bu ijobiy jarayondir. Ammo, turkiy millatlarning boshqa millatlardan ulug'vorligini ta'kidlash, butun turk dunyosini birlashtirish, yagona davlat sifatida ko'rish, boshqa mamlakatlarda istiqomat qiluvchi turkiy qavmlarni siyosiy separatizmga chorlash singari holatlar esa ko'plab yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligini ham e'tirof etishimiz lozim.

Shuningdek, yana bir o'ta dolzarb mafkuraviy muammo - Liberalizm mafkurasi bo'lib, u ham yoshlarimizda G'arbparastlik, g'arbning "erkinlik" va ba'zida axloqsizlikka asoslangan qarashlarini, turmush tarzini, egoizm bilan sug'orilgan g'oyalarini targ'ib qilish istagini va faoliyatini vujudga keltirmoqda. Xalqimizning minglab yillar davomida qo'lga kiritilgan madaniy va ma'naviy me'rosiga, milliy qadriyatlarimizga pisandsizlik bilan qarash, milliy davlatchiligimiz va siyosatimizga nisbatan faqat va faqat tanqidiy ruh shakllanganligi, butunlay G'arb liberalizmiga ma'naviy va ruhiy qaramligi va hokazolar bilan xarakterlanadigan ushbu omil ham bugungi kunda nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo uchun o'ta murakkab ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Endi mavzuning ikkinchi qismi, ya'ni mazkur muammolarni, ziddiyatlarni barataraf etish, ma'naviy-mafkuraviy kurashlarda doimiy tajriba orttirish va yoshlarning ongushuurini, madaniyatini, ruhiyatini samarali himoya qilish uchun eng asosiy vazifalardan biri bo'lgan – siyosiy bilimlar masalasida so'z yuritsak. Yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvini ta'minlash, ularda kuchli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, milliy manfaatlarni anglab yetishlariga imkon berish, vatanparvarlik va siyosiy daxldorlik hissini kuchaytirish singari vazifalar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozimligi haqida yuqorida so'z yuritgan edik.

Endi ushbu fikrlarimizni asoslash uchun, avvalo, bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etib borayotgan siyosiy savodxonlik muammosi mavjudligini, yoshlarning siyosiy bilimlarini oshirish, siyosiy madaniyatini yanada yuksaltirish, mamlakatda va dunyoda bo'layotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni anglab yetishlari, siyosiy jarayonlarning to'laqonli ishtirokchilari bo'lib yetishishlarini asoslashga o'tsak.

Bugungi kunda yoshlar tomonidan dunyoda bo'layotgan mafkuraviy jarayonlarni anglab yetishlari uchun ham siyosiy bilimlar juda zarur. Zero, ekstremistik g'oyalarning targ'ibotchilari aslida qanday maqsadlarni ko'zlashi, ularning ortida qanday davlatlar turganligini, kimlar tomonidan

moliyalashtirilishini, Suriyani olamizmi, Afgʻoniston yoki boshqa notich davlatlarni olamizmi, ularda harakatlarni olib borayotgan diniy kuchlar aslida qanday maqsadlarga xizmat qilishini anglatish, “diniy rahnamolari va targʻibotchilari” aslida kimga va qanday geosiyosiy maqsadlarga xizmat qilishlarini chuqur anglab uchun eng asosiy va muhim fan bu Siyosatshunoslik ekanligini hech qachon unutmasligimiz lozim.

Bundan tashqari, dunyo miqyosida geosiyosiy jarayonlarning tobora keskinlashuvi, bunday holatlarda mafkuraviy targʻibotning, madaniy taʼsirlarning oʻrnini va mohiyatini talabalar yoki yoshlar uchun aynan siyosiy fanlar ochib beradi. Gʻarb liberalizmi yoki panturkizm boʻladimi, diniy eksremizm boʻladimi, bularning barchasiga qarshi samarali kurashishning asosiy yoʻllarini, yoshlarning siyosiy ongini yuksaltirish ham bevosita siyosiy fanlar zimmasidagi ulkan masʼuliyat ekanligini alohida eʼtirof etishimiz lozim.

Har qanday davlatning, xususan Oʻzbekistonning ham taʼlim sohasidagi eng asosiy vazifasi – bu siyosiy fanlarni rivojlantirish, talabalarning, yoshlarning, umuman mamlakat aholisining siyosiy dunyoqarashini, tafakkurini rivojlantirish, turli mafkuralarga, siyosiy targʻibotlarga nisbatan dunyoviy va xolis fikr bildirish koʻnikmalarini shakllantirish ekanligini unutmaslik kerak.

Shuningdek, hozirgi davrda mamlakatda yuz berayotgan har qanday siyosiy oʻzgarishlarga, islohotlarni ongli yondashish, milliy va davlatchilik manfaatlarini chuqur anglab yetgan holda munosabatda boʻlishlari uchun nafaqat taʼlim tizimida, balki keng axborot makonida ham siyosiy bilimlar koʻlamini kengaytirishga alohida eʼtibor qaratish talab qilinadi. Shu bilan bir qatorda, davlat boshqaruvining samaradorligini baholash, jamoatchilik nazoratini samarali tashkil qila olish uchun kuchli fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashda ham siyosiy bilimlarning oʻrni va rolini eʼtirof etishimiz lozim.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda axborot tarqatish, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish sohasining tobora erkinlashib borishi sharoitida Oʻzbekistonning mavqeiga, obroʻ-eʼtiboriga, nufuziga nisbatan turli noxolis fikrlarning tobora kengayib borayotganligiga guvoh boʻlib turibmiz.

Shuningdek, taʼkidlab oʻtganimizdek, diniy ekstremistik ruhdagi kuchlar tomonidan yoshlarimizning ongi va madaniyati ham aynan ijtimoiy tarmoqlar yordamida nishonga olinmoqda. Demak, turli ijtimoiy tarmoqlardagi, ommaviy axborot vositalaridagi chaqiriqlar va daʼvatlarning, inson ruhiyatiga taʼsir koʻrsatadigan xabarlarining, maʼlumotlarning salbiy taʼsirlaridan yoshlarni himoya qilishning eng samarali va maqbul usuli – bu ularning siyosiy tafakkurini yuksaltirish, kuchli siyosiy bilimlar bilan qurollantirish ekanligini aslo unutmasligimiz lozim. Buning uchun esa nafaqat oliy taʼlim tizimida yoki undan keyingi bosqichlarda, balki taʼlimning barcha bosqichlarida siyosiy fanlarni oʻqitish, yoshlarning siyosiy munozaralarini tashkil qilish, ularda siyosiy tahlil qobiliyatlarini rivojlantirishimiz shart. Zero, kuchli siyosiy tafakkurga ega boʻlgan jamiyat hech bir mafkura yoki axborot bosimiga yengilmaydi.

1.3. Millatlararo munosabatlarning murakkablashuv jarayonlari hamda axborotlarning salbiy ta'siri

Mamlakatda 130 dan ortiq millat va elatning inoq tarzda istiqomat qilishi, ya'ni jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuv, do'stona aloqalarni rivojlantirish, milliy rang-baranglik, turli madaniyatlarning uyg'unligi va o'zaro aloqadorligi borasida katta imkoniyatlarni taqdim qilish hamda ular o'rtasida do'stlikni, ahillikni, totuvlikni ta'minlash uchun juda katta mas'uliyatni ham yuklaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT BA 75-sessiyasidagi nutqida: "Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo mintaqasida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Biz mintaqa davlatlari o'rtasida yaxshi qo'shnichilik va o'zaro ishonch, do'stlik va hurmat muhitini yaratishga erishdik. ...Oxirgi to'rt yilda O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan o'zaro savdo hajmi salkam besh barobarga o'sdi. Mamlakatlarimiz ushbu sinovli kunlarda bir-birini yolg'iz qoldirmasdan, o'zaro yelkadosh bo'ldilar. Bugun Markaziy Osiyo davlatlari oldida muhim strategik vazifa turibdi. U ham bo'lsa, mintaqamizning global iqtisodiy, transport va tranzit yo'laklariga chuqur integratsiyasini ta'minlashdir" deb alohida ta'kidlab o'tdi. Zero, jahon tajribasidan ma'lumki, bir mamlakatda turli millat vakillari istiqomat qilishining o'ziga xos nozik tomonlari, zahmatlari, murakkabliklari, qiyinchiliklari mavjuddir.

Ko'pmillatli O'zbekistonda millatlar o'rtasida do'stona va ahillik munosabatlarni shakllantirish hamda rivojlantirish borasida juda katta tajriba to'planganligini, shu vaqtga qadar mamlakatda birorta ham milliy xususiyatlar yoki nizoli holat yuz bermaganligini alohida qayd etish lozim. Buning asosida albatta davlat tomonidan mohirona olib borilgan insonparvarlik siyosati yotishi hamda har bir millat va elat taqdiri borasidagi mas'uliyati kuchli ekanligini alohida e'tirof etishimiz kerak. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Mamlakatimizning milliy manfaatlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan Markaziy Osiyo mintaqasi O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy ustuvor yo'nalishi hi soblanadi. Biz o'zimizning yaqin qo'shnilarimiz Turkmaniston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston bilan ochiq, do'stona va pragmatik siyosat olib borishga sodiq qolamiz" – deya ta'kidlagan so'zlari amalda olib borilayotgan faoliyatning yaqqol isboti desak, hecham mubolag'a bo'lmaydi.

Mintaqaning murakkab geosiyosiy makonda joylashganligi, Markaziy Osiyoda millatlararo ziddiyatlarning tobora keskinlashib borish ehtimoli o'ta yuqoriligi, globallashuv jarayonlarining tobora chuqurlashayotganligi, maqsadli auditoriya uchun tarqatiladigan turli destruktiv axborotlar ta'sirining kuchayib borayotganligi kabi holatlar esa millatlararo munosabatlar sohasida shundoq ham tarang vaziyatni murakkablashtirishini, kelajakda kutilmagan keskin voqealar yuz berishini har bir fuqaro chuqur anglab yetishi darkor. Markaziy Osiyo miqyosida millatlararo munosabatlarni jiddiy tahdidga aylantirishga qodir hamda juda katta zararli ta'sir ko'rsatish salohiyatiga ega turli ssenariylar asosida xavotirli holatlarni vujudga keltirishi mumkin bo'lgan eng muhim quyidagi manzaraga guvoh bo'lamiz:

Chegaraviy muammolar - bugungi kunda mintaq miqyosida millatlararo ziddiyatlarning eng og'riqli nuqtasi sifatida namoyon bo'layotgan va keyingi yillarda tobora shiddatli tus olayotgan masalalardan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Har besh mamlakat o'rtasidagi chegaralarning sobiq SSSR davrida nomutanosib bo'lib tashlanganligi, minglab yillar davomida biror bir ma'muriy yoki davlatlar tomonidan ajratilmagan chegaralarning sun'iy ravishda chegara tortilganligi bugungi kunda millatlararo ziddiyatlarga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Sun'iy chegaralanish o'sha vaqtda aholining ijtimoiy ongiga, madaniyatiga va noroziligiga qaramasdan hamda milliy va etnik xususiyatlarni pisand qilmasdan o'tkazilganligi hozirgi paytda ko'plab noxushliklarning vujudga kelganligi, yer-suvga ehtiyoji yuqori bo'lgan xalqlar o'rtasida "tortishuv predmeti" sifatida turli nifoqlarni keltirib chiqarayotganligini tan olmasligimizning iloji yo'q! Buning ustiga turli ommaviy axborot vositalarida, kanallari va resurslarida har qanday maishiy darajadagi nizo yoki tortishuvlarni juda katta fojia sifatida ko'rsatilayotganligi tufayli aholi ongida salbiy qarashlarni, vahimalarni, boshqa millatlarga nisbatan nafratning vujudga kelishi omili sifatida qarashimiz lozim!

Suv muammosi – Markaziy Osiyo mintaqasi millatlari va elatlari hayotiga juda katta ta'sirga ega bo'lgan holat hisoblanadi. Chunki, bu resurslarga bo'lgan talabning doimiy ravishda ortishi, bir tomondan aholi sonining tobora ko'payib borayotganligi va ular uchun yashash joyi hamda oziq-ovqatga bo'lgan talabning o'sishi bilan xarakterlansa, ikkinchi tomondan, suv resurslarining o'zgaras darajadagi hajmi cheklanganligi, mintaqada suvdan ehtiyotkorlik bilan foydalanish uchun zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilmasligi va hokazolar ushbu resurs sarfi hamda boshqaruvi borasida ularga muvofiq harakatlarning yo'qligi ham davlatlar va millatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarga sabab bo'layotganligini qayd etishimiz lozim. Ammo, masalaning ikkinchi jihati borki, bu o'ta muhim axborot omili. Aynan turli yolg'on, noxolis, bir tomonlama axborotlarning keng tarqalishi, aholi o'rtasida u millat yoki bu millatga daxldorlikni sun'iy ravishda bo'rttirayotganligini ko'rib turibmiz va bu muammo ham o'ziga xos keskinlikni saqlab qolmoqda.

Tashqi ta'sir omili – Markaziy Osiyo xalqlari va millatlar uchun juda katta muammoli vaziyatga aylangan. Mintaqa yuqorida keltirib o'tganimizdek, o'zining geosiyosiy va geostrategik ahamiyati jihatidan qudratli davlatlar, turli siyosiy kuchlar manfaatlari kesishadigan hudud sifatida maqomini saqlab qolmoqda. O'z ta'sirini kuchaytirish uchun sun'iy ravishda bevosita tashqi kuchlarning axborot, harbiy, siyosiy ssenariylari asosida millatlararo turli nizolar, kelishmovchiliklar vujudga keltirilishi singari fojiali holatlar ro'y berib turadi.

Bizningcha, bu ko'proq axborot makonida amalga oshirilishi, o'zbeklar, qozoqlar, tojiklar, qirg'izlar, turkmanlar o'rtasida doimiy ravishda millatlararo nizolar va mojarolarni keltirib chiqarishga urinishda ushbu millatlarni bir-birlariga qarshi qayrab, gij-gijlash singari faoliyatlarida namoyon bo'lmoqda. Buning ortida esa mintaqani o'zining ta'siri ostida saqlash va hukmronlik qilishni davom ettirish

ilinjida bo‘lgan davlatlar, kuchlar turganligi hozirgi paytda hech bir ziyoliga sir emas.

Ammo masalaning og‘riqli tomoni shundaki, minglab yillar davomida o‘zaro do‘st, ahil-inoq bo‘lib yashab kelgan millatlar va elatlar o‘rtasida bugungi kunda salbiy axborotlarning sun‘iy ravishda yaratilishi va tarqatilishi tufayli bir muncha sovuq munosabatlar paydo bo‘layotganligi hamda turli maishiy darajada namoyon etilayotganligi kabilarni misol sifatida keltirishimiz mumkin. Bunday sovuq munosabat yoki o‘zaro nizolarning ro‘y berishida tashqi kuchlarning ta‘siri borgan sari kengayib, Markaziy Osiyo xalqlari uchun fojiali tus olishi ehtimolini doimo anglab yetishimiz, ularga qarshi keng jamoatchilik yordamida turli axborot omilidan oqilona foydalangan holda samarali tarzda kurashishimiz shart bo‘lib qolmoqda.

So‘nggi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarning insoniyat hayotiga jadal kirib kelganligi, bu holat insonlar ongiga, madaniyatiga, dunyoqarashiga ta‘sir ko‘rsatishning zamonaviy formatiga aylanganligini e‘tirof etgan holda, Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari ham bu jarayonlardan chetda qolmayotganligi, balki turli hiylalarga, ma‘lum bir maqsadlarga yo‘naltirilgan, o‘z “o‘ljasi” uchun nihoyatda “jozibador” axborotlarning eng faol iste‘molchilariga aylanib ulgurdi.

Aynan ushbu holatlar Markaziy Osiyoda beqarorlikdan manfaatdor, hukmronlik istagida davlatlar yoki kuchlar uchun o‘ta qulay vaziyat sifatida foydalanilayotganligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ular tomonidan yaratilgan “ijod mahsuli”ning mevalari sifatida esa millatchilikka, ayirmachilikka asoslangan fikrlar, qarashlar, g‘oyalar, targ‘ibot-tashviqotlar, chaqiriqlar borgan sari ko‘payib bormoqda va ba‘zi holatlarda ular o‘z “mevasi”ni berayotganligini ham ming afsuslar bilan qayd etishimiz lozim! Millatlar o‘rtasida tarixda kuzatilmagan bir-birlariga nafrat, ko‘rolmaslik, g‘azab, shovinizm singari illatlarni keng yoyishga harakatlar tobora avj olayotganligini, ular turli shakllarda va sharoitlarda sodir bo‘layotganligini ham unutmashligimiz lozim.

Bu jarayonlar “Facebook”, “Odnoklasniki” singari ijtimoiy tarmoqlarda, “SyentrAziya” singari internet saytlarida tobora ildiz otayotganligini, millatlar orasiga nizo solish va ularni kuchaytirishga qaratilgan ochiqcha sun‘iy chaqiriqlar borgan sari ko‘payib borayotganligini, bunday salbiy holatlarning oldini olish yoki bartaraf etish uchun mintaqada istiqomat qiluvchi millatlar jamoatchiligi tomonidan e‘tibor va tashabbuslar yetarli bo‘lmayapti yoki mutaxassislar tomonidan hanuzgacha jiddiy qabul qilinmayapti.

Garchi davlatlar miqyosida bu holatlarga barham berilganligi hamda qonunlar yordamida bunday tashviqotlarga aslo yo‘l qo‘yilmasligiga qaramasdan xorijdan turib masalani jiddiylashtirayotgan, shuningdek, ulardan ilhom olib ichki nizolarni avj oldirishdan manfaatdor kuchlar ham doimiy harakatda ekanligini e‘tibordan qochirmaslik, eng muhim talabga aylandi.

Qayd etishimiz lozim bo‘lgan holatlardan yana biri shuki, Markaziy Osiyoda 150 yildan beri yashab kelayotgan, barcha davlatlarning tenghuquqli millatlari qatorida bo‘lgan rus yoki boshqa yevropa millatlari bilan mahalliy aholi o‘rtasiga nizo solish borasidagi “tashabbuslar” avj olmoqda. Ularga nisbatan siyosiy diskriminatsiya sodir bo‘layotganligi to‘g‘risidagi ko‘plab noxolis va yolg‘on

xabarlar to'g'risida bong urilayotganligi, go'yoki rusiyzabon millatlarning huquqlari poymol qilinayotganligi haqida sun'iy axborotlar maqsadli ravishda yaratilib, tarqatilayotganligi, bu esa jamoatchilik ongiga juda katta ta'sir ko'rsatayotganligi ham bugungi kunning realligiga aylandi.

Shuning uchun hozirgi paytda millatlararo munosabatlarning do'stona ruhini davom ettirish, bu yo'lda vujudga kelayotgan muammolarni yechish, xavf-xatarlarni bartaraf qilish uchun keskin va murosasiz kurash olib borish, axborot maydonida millatlararo do'stlikni, qarindoshlik va qardoshlik hamda ahillikni keng targ'ib qilish, nafaqat mintaqa davlatlarining siyosiy strategiyasiga, balki jamoatchilikning, ziyolilarning ham eng muhim faoliyat yo'nalishiga aylanishi lozim.

1.4. G‘oyaviy-mafkuraviy ziddiyatlarning kuchayishi va siyosiy modernizatsiyalashning dolzarb masalalari

Bugungi kunda dunyo miqyosida g‘oyaviy-mafkuraviy kurashlarning, ziddiyatlarning tobora rivojlanib, murakkablashib borishi sharoitida har qanday mamlakat oldida davlatchilikni mustahkamlash, siyosiy mustqilligiga bo‘ladigan har qanday tahdidlarga qarshi kurashish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bugungi kunga kelib, jahon siyosiy maydonida turli kuchlarning, davlatlarning siyosiy ishtiroki tobora kengayib borishi sharoitida ularning mafkuraviy faoliyati ham borgan sari kuchliroq namoyon bo‘layotganligini alohida ta’kidlashimiz lozim.

Bir tomondan liberalizm g‘oyalari har qanday mamlakatning ichki ishlariga aralashish, ularni inson huquqlariga daxl qilishda, qo‘pol ravishda buzayotganligida ayblash, turli o‘ziga xos xalqlar va elatlarni ma’lum bir andozalar asosida yashashga majbur qilish va hokazo holatlarda namoyon bo‘layotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan millatchilik g‘oyalari ham keng tarqalib, turli millatlar o‘rtasidagi nizolarning vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda. G‘oyaviy-mafkuraviy kurashlar, shuningdek, din sohasida ham tobora keskinlashib borayotganligini, dinlararo, mazhablararo kurashlarning, qonli to‘qnashuvlarning vujudga kelishiga sabab bo‘layotganligini har birimiz ko‘rib, guvohi bo‘lib turibmiz.

XX asrda insoniyat asosan kommunizm va G‘arb liberalizmi g‘oyalari kurashiga tortilgan bo‘lsa, XXI asrda vaziyat juda jiddiylashib ketdi. Islom fundamentalizmi mafkuraviy jihatdan ko‘plab ekstremistik g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlovchi kuchlar paydo bo‘ldi. Afg‘onistondan tortib, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharqni o‘z domiga torta boshlagan ushbu g‘oyalar bugungi kunning eng dolzarb mafkuraviy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu omil hattoki, davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni ham belgilashga o‘zining ta’sirini ko‘rsatmoqda va bu haqda quyiroqda so‘z yuritsak.

Masalaning eng achinarli jihatlaridan birinchisi shundaki, Islom dinini asos qilib olgan turli terroristik, ekstremistik guruhlar butunlay geosiyosiy kurashlarning eng asosiy instrumentiga aylanganligi, ikkinchisi esa ushbu guruhlarining nafaqat Yaqin Sharqdagi energetik resurslarga va kattadan-katta moliyaviy imkoniyatlarga boy davlatlar, balki jahonning boshqa manfaatdor siyosiy aktorlari tomonidan doimiy qo‘llab-quvvatlab kelinayotganligidir. Bularning barchasi zahirida siyosiy maqsadlar yotganligi bugungi kunda hech kimga sirli qolmadi.

Dunyoning mafkuraviy manzarasi, uning doimiy o‘zgarishi va jarayonlari borasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganligi, ekspertlar tomonidan turli fikrlar bildirilayotganligi, ko‘plab tadqiqotlar yozilayotganligi munosabati bilan, biz bu masalada chuqurlashib o‘tirmaymiz va asosiy masala, g‘oyaviy-mafkuraviy ziddiyatlarning kuchayishi sharoitida mamlakatni siyosiy modernizatsiyalashning dolzarb masalalari haqida so‘z yuritamiz.

Markaziy Osiyoning qoq yuragida joylashgan O‘zbekiston haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, alohida qayd etishimiz lozimki, mamlakat ko‘plab qudratli davlatlarning manfaatlari yotadigan mintaqada joylashgan. Barcha manfaatdor mamlakatlar yoki siyosiy kuchlar o‘z strategik maqsadlariga erishishlari uchun turli

instrumentlardan (siyosiy, iqtisodiy, jo'g'rofiy, transport, hududiy, moliyaviy, investision, mafkuraviy va hokazo) gohida bosim o'tkazish, gohida jazolash, gohida rag'batlantirish yoki qo'llabquvvatlash, himoya qilish yoki o'zi tomonga og'dirish yo'lida foydalanyotganligi namoyon bo'lmoqda. Eng qizig'i, qudratli davlatlar tomonidan har qanday mamlakatni o'z yo'rig'iga solishning mana shunday «an'anaviy» uslublari esa borgan sari takomillashib, yangidan-yangi usullarni, axborot texnologiyalarning turli tarmoqlarini qo'llash va hokazo usullarni rivojlantirib bormoqdalar. Ayniqsa, keyingi yillarda tobora avj olayotgan axborot bosimi va sanksiyalar usullari o'ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Masalaning murakkabligi shundaki, O'zbekiston ham bir vaqtning o'zida jahon siyosatining barcha qudratli ishtirokchilari bilan bir tomondan hamkorlik qilishga va ikkinchi tomondan ular tashkil qiladigan turli siyosiy «o'yinlarga» hamda tahdidlarga qarshi kurashishga majburligidir. Yaqinda AQSH Davlat departementi tomonidan O'zbekiston diniy erkinlik bo'yicha «qora ro'yxat»dan chiqarildi. Bu yaxshi albatta. Lekin, «diniy erkinlik» asl maqsadi, kimlarga xizmat qilishga qaratilganligi, aholisining asosiy qismi musulmonlardan iborat bo'lgan davlatlarda «diniy erkinlik»ni ta'minlashning zaminida qanday maqsadlar yashiringanligini, bu jarayon davlat institutlarining faoliyatini izdan chiqarishi yoki umuman davlatchilikni barbod qilish salohiyati qanday ekanligi savollarga javob topish zarur.

O'zbekiston uchun ushbu omil g'oyaviy-mafkuraviy ziddiyatlarning birgina muammosi emas albatta. Eng katta tahdidlardan biri sifatida tobora quloqchilik yoyib borayotgan millatchilik mafkurasi ham bor. Mintaqada o'zining katta axborot va demografik salohiyatiga ega bo'lgan Rossiya tomonidan olib borilayotgan bunday geosiyosiy maqsadlar ham so'nggi vaqtlarda turli formatlarda namoyon bo'la boshlaganligi ham masalaning nechog'li dolzarb ekanligini anglatadi.

Ayniqsa, «rus tili, rus madaniyatini targ'ib qilish» bilan niqoblangan destruktiv axborot siyosati «rus millatiga mansub aholining huquqlari buzilayotganligi», «YeOIga O'zbekistonni a'zolikka tortish uchun jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish», «migrantlarga yaratiladigan «yengilliklar», «SSSRni tiklash zarurati paydo bo'layotganligi», «mamlakatda rus tiliga ikkinchi rasmiy til maqomini berish» singari mavzularni o'ylab topish, keng targ'ib qilishga qaratilganligi tom ma'noda mafkuraviy-g'oyaviy ziddiyatlarning kuchayishiga zamin bo'lmoqda.

So'nggi vaqtlarda O'zbekistonda axborot siyosati sohasida erkinliklar berilishi natijasida OAV va jurnalistlar, bloggerlarning o'ta faollashuvi kuzatilayotganligi, ular tomonidan nafaqat oshkoralik yoki ochiqlik su'istemol qilinayotganligi, balki ba'zi hollarda xorijda yashayotgan yoki ketib qolgan ba'zi ekstremistik g'oyalar targ'ibotchilar tomonidan zo'r berib O'zbekiston uchun axborot xurujlari tobora kuchaytirilayotganligi kuzatilmoqda. Bunda asosan davlat siyosatini, amaldorlarni, mamlakat rahbariyatini va diniy ulamolarni nafaqat tanqid qilinishi, shuningdek, bevosita ularni obro'sizlantirish, terroristik guruhlar safiga yoshlarni ko'proq jalb qilish, ularni xorijga chaqirish, jamiyatda va davlatda turli

tartibsizliklarni keltirib chiqarishga da'vatlar tobora kuchayib borayotgani juda achinarli hol sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ayniqsa, aholisining asosiy qismi musulmon bo'lgan O'zbekistonda diniy murosasizlikni vujudga keltirish, yoshlarni radikallashtirish uchun Afg'oniston va Suriyada yuz berayotgan xunrezliklarni, terror harakatlarini idellashtirishga harakat qilayotganligi, ularni terror yo'liga ochiqcha undayotganligi turli ijtimoiy tarmoqlarda keng yoyilayotganligiga va hattoki, bunday chaqiriqlarga ba'zi odamlarning berilib ketayotganligiga ham guvoh bo'lib turibmiz. Bunda aholining eng nozik hissiyotlariga ta'sir ko'rsatish, ularga «jannatni va'da» berish, mahalliy imom va diniy ulamolarga ishonmaslikka chaqiriqlar, hattoki, O'zbekistondan yetishib chiqqan taniqli va mashhur ulamolarni obro'sizlantirish singari harakatlar ijtimoiy tarmoqlarda tobora avj olmoqda.

Bunday destruktiv xatti-harakatlarning ba'zi Yaqin Sharq va Yevropa davlatlari tomonidan moliyalashtirilayotganligi, siyosiy qo'llabquvvatlanayotganligi esa O'zbekiston tomonidan bu turdagi tahdidlarga qarshi kurashish, o'z milliy manfaatlarini, jamoatchilik ongini ularning salbiy ta'sirlaridan samarali himoya qilish borasida ma'lum bir qiyinchiliklarni ham tug'dirishi tabiiy. Chunki, bunday kuchlar bir tomondan hamkorlikni taklif qilsalar, ikkinchi tomondan destruktiv kuchlarni o'z manfaatlarini uchun har qanday qulay vaqtda qo'llash, ular vositasida turli bosimlar o'tkaza olish, zarur bo'lganda har qanday tartibsizliklarni keltirib chiqarish, jamiyatni olomonga aylantirish va tarafkashlikni vujudga keltirish, jamiyatni turli guruhlariga bo'lib tashlash orqali o'z maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun tayyor turishlaridir.

Shuningdek, keyingi vaqtlarda ko'plab G'arb davlatlarida o'zlarini muxolifat atab yurgan siyosiy kuchlar ham borki, ularning tomonidan ham O'zbekistonni tanqid qilish uchun har xil axborotlarni tarqatish va o'z «tarafdorlari»ga yetkaza olish imkoniyati borgan sari ortib borayotganligidir. Yuqorida keltirib o'tganimizdek, ushbu kuchlarni ham qo'llab-quvvatlashga tayyor xorijiy homiylar borligi va ularning tobora faollashib borayotganligidir.

Masalaning muhim shundaki, har qanday mafkuraviy-g'oyaviy tahdidlarga qarshi kurashish uchun avvalo, davlat o'z fuqarolarini siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va mafkuraviy himoya qila olish salohiyatiga ega bo'lishi lozim. Buning uchun esa avvalo, davlat organlari va institutlari o'z faoliyatini doimiy rivojlantirish, zamon talablariga doimiy moslashib takomillashtirib borishlari kerak. Bu bilan jamiyatda, mamlakatda va dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlarga, ehtiyojlarga, xavfxatarlarga mos javob bera olish qobiliyati bilan doimo qurollanib borish, parlament, siyosiy partiyalar va institutlar adekvat javob berishga tayyor bo'lishlari, mamlakat o'z siyosiy strategiyasini belgilashda, bunday xavfxatarlarni doimiy hisobga olishi talab etiladi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, mamlakatda dunyoda bo'ladigan siyosiy o'zgarishlarni doimiy tahlil qilish, mamlakat ichida va jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarning tendensiyalarini o'rgangan holda, barcha siyosiy institutlar faoliyatini rivojlantirish, mobilligini oshirish, ish samaradorligini yuksaltirish, zamonaviylashtirish, ular faoliyatiga doimiy innovatsion uslublarni

tatbiq qilib borish borasidagi vazifalarda aslo ortda qolishi mumkin emas. Aks holda, turli tahdidlar, mafkuraviy salbiy ta'sirlar davlat va jamiyat barqarorligini izdan chiqarib, turli fojiaiy oqibatlarga olib kelishini o'z vaqtida anglab yetmog'imiz lozim.

1.5.Davlat imidjini yuksaltirishda diniy omilning ahamiyati

Bugungi globallashuv davrida davlatning xalqaro maydondagi imidjini mustahkamlash va yuksaltirish bilan bog‘liq masalalar qatorida din va davlat munosabatlari ham muhim o‘rin tutadi. Zero, mavzuning dolzarbligi bugungi kun davlatlari taraqqiyotining xususiyatlariga va demokratik transformasiyalashuv ko‘rsatkichlariga bog‘liq. Iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy jihatlar bilan bir qatorda, din va davlat munosabatlari ham fuqarolik jamiyati rivojlanganligining hal qiluvchi indikatorlaridan biriga aylanganligi, ko‘pchilikka ma‘lum. Zero, bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilgi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “inson huquqlarini ta‘minlash, so‘z va diniy e‘tiqod erkinligi bo‘yicha erishaётgan yutuqlarimizni tegishli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda izchil mustahkamlab boramiz” – deya alohida ta‘kidlagan edi⁴⁸. Haqiqatan ham bu boradagi vazifalar, ayniqsa, diniy e‘tiqod va uning har tomonlama muvozanatli xususiyatini ta‘minlash borasida dunyoning ko‘plab mamlakatlari va xalqaro tashkilotlari bilan hamkorlikning samarali yo‘lga qo‘yilishi orqali davlat imidjini yanada mustahkamlash mumkin.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yilning 28-yanvarida imzolangan PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi hujjatning 74-maqsadi aynan “Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash”⁴⁹ deya belgilanganligi ham bejiz emas albatta. Chunki, bugun jahonning ko‘plab mamlakatlari Yangi O‘zbekistonni tobora demokratlashayotgan, inson huquq va erkinliklari kafolanayotgan, dunyoga ochiqlik siyosatini namoyon qilayotgan, so‘z va e‘tiqod erkinligini ham bosqichma-bosqich ta‘minlayotgan davlat sifatida taniyotganligi, ishonayotganligi hech birimizga sir emas. Shu nuqtai-nazardan, hozirgi davrda, aholining din bilan bog‘liq hissiyotlari aniq bir me‘yorga tushmagan vaqtda, davlatning din sohasidagi siyosati uning bevosita xalqaro imidjiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatishini albatta hisobga olish kerak. Chunki, ijtimoiy-psixologik, va e‘tiqodiy ahamiyat kasb etadigan din va davlat munosabatlari bugungi kunda nihoyatda nozik, dolzarb va murakkabligi bilan boshqa sohalardan farq qiladi.

Ma‘lumki, O‘zbekiston aholisining deyarli 95 foizi islom diniga e‘tiqod qilishi, ularning aksariyati Xanafiy mazhabidagi sunniylik yo‘nalishida ekanligi, bu esa o‘z-o‘zidan mamlakatda diniy sohaning mo‘tadilligini, taraqqiyparvarligini va tinchlikparligini saqlashga nisbatan katta zuraratni vujudga keltiradi. Shu bilan bir qatorda, boshqa diniy ozchiliklarga nisbatan tolerantlikni, o‘zaro hurmatni saqlash ham aynan davlat oldidagi eng katta strategik vazifalardan biridir.

Lekin, alohida qayd etish lozimki, mamlakatni davlat va din munosabatlarini tartibga solish, boshqarish, vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarga qarshi jiddiy kurash olib borish va hokazolar, yuqorida ta‘kidlaganimizdek, davlat oldiga xalqaro imidj bilan bog‘liq vazifalarni, xalqaro hamkorlik masalalarini, butunjahon e‘tirof etilish kabi mavzularni yanada kuchaytirmoqda

Ayniqsa, “2020-yil 28-aprel kuni AQSHning Xalqaro diniy erkinliklar bo‘yicha komissiyasi (USCIRF) 2019-yilda dunyoda e‘tiqod erkinligi holati baholangan navbatdagi hisobotini e‘lon qilgan va O‘zbekiston TIV matbuot xizmatining bergan xabariga ko‘ra, 2005-yildan beri ilk marta AQSHning Xalqaro diniy erkinliklar bo‘yicha komissiyasi Davlat departamentiga O‘zbekistonni «diniy erkinliklar sohasida alohida xavotir uyg‘otadigan davlatlar» (CPC) ro‘yxatiga kiritishni taklif qilmagan”.

Ushbu qarorning xalqaro nufuzli tashkilotlar va davlatlar tomonidan O‘zbekistondagi ilgarilash sifatida e‘tirof etilganligi avvalo, mamlakatimizning konfessiyalararo muloqot va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash borasida juda katta yutuqlarni qo‘lga kiritganligini va bu holat O‘zbekistonning xalqaro imidji yuksalishining asosi bo‘lganligini alohida ta‘kidlashimiz lozim. Shuni ham alohida qayd etish joizki, AQSH Davlat departamenti O‘zbekistonni diniy erkinliklarga oid «qora ro‘yxat»dan chiqarganidan bir yarim yil o‘tib, mamlakat bu yo‘nalishda erishgan yutuqlarni Xalqaro diniy erkinlik bo‘yicha AQSH Komissiyasi (USCIRF) ham rasman e‘tirof etdi.

To‘g‘ri, gohida O‘zbekistonni yana ushbu ro‘yxatga kiritish, yoki uni doimiy kuzatuvga olish masalalari ham aynan ushbu nufuzli komissiya tomonidan bot-bot ta‘kidlanib kelinmoqda. Ammo, ushbu komissiyaning raisi Toni Perkins O‘zbekistonning komissiya bilan aloqalarini qoniqarli ekanligini ta‘kidlagan holda, “O‘zbekiston diniy guruhlar uchun ko‘proq erkinlikni ta‘minlash bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda sezilarli ilgarilashga erishganini” qayd etgan va bundan keyin ham mamlakatning bunday islohotlarni samarali amalga oshirishiga ishonch bildirgan edi⁵¹. O‘zbekistonning bu yutuqlarini albatta uning xalqaro imidjini shakllantiruvchi va yuksaltiruvchi omil sifatida baholash mumkin. Shuni alohida e‘tirof etmoq joizki, Komissiya raisi o‘rinbosari Nadin Maenza ham «The Washington Post» nashriga bergan intervyusida va maqolasida Komissiya tomonidan O‘zbekistondagi diniy erkinliklarni ta‘minlash sohasidagi ilgarilash yuqori baholangani alohida ta‘kidlagan edi.

Bu borada dunyoning yetakchi davlatlaridan bo‘lgan AQSH bilan munosabatlar tobora rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, bugun O‘zbekiston diniy erkinlik masalasida dunyoning rivojlangan demokratik mamlakatlari mezonlariga mos holdagi islohotlarni jadal olib borayotganligi, g‘arb davlatlari va AQSH bilan (asosan muhim komissiya bo‘lgan USCIRF bilan) muntazam aloqa o‘rnatgan.

Aynan ushbu o‘zgarishlarning, islohotlarning, eng muhimi O‘zbekiston olib borayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosat tufayli g‘arb davlatlari vakillarini mamlakatga taklif qilish, ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni ularga namoyish qilish, ko‘rsata olish, doimiy konsultativ uchrashuvlar o‘tkazishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tomonidan konfessiyalararo muloqot va diniy bag‘rikenglik masalalari borasida nihoyatda samarali vazifalarni amalga oshirmoqda. Bunday siyosatning samaradorligi, barcha diniy konfessiyalar o‘rtasidagi iliq munosabatlarning qaror topganligi kabilar dunyo jamoatchiligida

qiziqish o'yg'otmoqda. Hattoki, O'zbekistonning bu boradagi tajribalarini ommalashtirish borasida ham ma'lum bir konseptual g'oyalar ilgari surilmoqda.

G'arb davlatlari tomonidan diniy e'tiqod va so'z erkinligi borasidagi hamkorlik natijasida AQSHning oldingi Administratsiyasi davlat kotibi Mayk Pompeo O'zbekistonga tashriflarlaridan birida O'zbekiston musulmonlar idorasi raisi Nuriddin Xoliqnazarov va boshqa rasmiy vakillar bilan uchrashuv o'tkazgan va ular bilan O'zbekistonda islom dinining taraqqiyoti, tarixi, buguni va diniy erkinlik haqida suhbatlar o'tkazgan edi. Eng muhimi ushbu uchrashuvlarda ham AQSH tomoniga O'zbekistonning diniy erkinlik, islom dinining sivilizatsiyaviy asoslari, bugungi ta'lim jarayoni va muassasalari borasida qiziqarli ma'lumotlar berilgan va o'z navbatida ushbu ishlar AQSH hukumati tomonidan qoniqish bilan qabul qilingan edi. Bunday ishlar qatorida huquqni muhozafa qiluvchi organlari tomonidan diniy guruhlarining ta'qib qilinishi to'xtatilgani, Jasliq qamoqxonasining yopilgani, AQSH va xalqaro tashkilotlar bilan diniy erkinliklar bo'yicha yaqindan hamkorlik qilishda davom etayotgani alohida e'tirof etilganligi ham O'zbekistonning xalqaro maydondagi imidjining ijobiy rivojlanishiga zamin bo'ldi deyish mumkin. O'zbekistonda islom dinining rivojlanishi uchun O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, Buxoro Mir Arab oliy madrasasi, shuningdek, deyarli har bir viloyatda madrasalar faoliyat olib borayotganligi, ko'plab diniy ilmiy-tadqiqot markazlari, Toshkent shahrining markazida qurilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazi kabilar davlat va din munosabatlarida muhim o'rin tutadi. Eng asosiysi, ushbu ta'lim muassasalarida nafaqat islom ilmlari, balki dunyoviy ilm-fan yutuqlarining ham keng joriy qilinganligi, ko'plab davlatlarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga katta qiziqishni o'yg'otmoqda.

Lekin, shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekistondagi din sohasida olib borilayotgan siyosat, mohiyatan dunyoviy bo'lib, u Konstitutsiyaga tayanadi. Bu esa davlat oldiga barcha dinlarga, konfessiyalar va ularning vakillariga do'stona munosabatda bo'lishni taqazo etadigan holatdir. Shuning uchun ham bugungi O'zbekistonda nafaqat musulmonlar uchun, balki boshqa din vakillariga ham birdek sharoit yaratish, ularning ibodatlarini, diniy marosimlarini to'la-to'kis o'tkazishlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Nafaqat dinlararo bag'rikenglik, konfessiyalararo muloqot masalalariga, shuningdek, millatlararo bag'rikenglikka ham davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganligini ham e'tirof etgan holda, azaldan islom diniga e'tiqod qilib kelgan mamlakatda bugungi kunda nasroniylik, yahudiylik, buddizm, yevangeliya, adventistlik, baptistlar, lyuteranlik, baxailik va hokazolar bimalol o'z dinlariga e'tiqod qilmoqdalar.

Foydalangan Manbalar:

O'zbekiston 15 yil deganda ilk bor «qora ro'yxat»dan chiqarildi.

<https://www.xabar.uz/jamiyat/ozbekiston-qora-royxatdan>

Annual report of the U.S. Commission on international religious freedom. <https://www.>

uscirf.gov/sites/default/files/USCIRF%202020%20Annual%20Report_42720_new_0.pdf

2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF60-son. <https://lex.uz/docs/5841063>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi (to'liq matn) 19.01.2021. <https://www.uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/751>

1.5 Globallashuv sharoitida davlatning radikalizmga qarshi kurash siyosati va uning xalqaro maydondagi imidjini yuksaltirish masalalari

XX asrning 80-yillaridan boshlab, jahon siyosiy maydonida yuz bergan siyosiy voqealarning natijasi sifatida “diniy ekstremizm va fundamentalizm” kabi kategoriyalar barcha ijtimoiy fanlarda keng qo‘llanila boshlandi. Ayniqsa, bu tushunchalar Islom diniga nisbatan tatbiq qilinadi va buning sababi uzoq yillar davomida o‘z yechimini topmagan Falastin-Isroil muammosi, Livan va Iroq-Eron urushi, arab monarxlarining umummusulmon muammosiga nisbatan faqatgina o‘z manfaati nuqtai-nazaridan yondashishi, SSSRning Afg‘onistonga bostirib kirishi va ko‘plab musulmon davlatlari, tashkilotlari va ma‘lum bir guruhlarining unga yordamga shoshilishi kabi holatlar esa diniy ekstremizmning yanada kuchayishiga zamin yaratdi.

Afg‘onistonda SSSRga qarshi kurashishi lozim bo‘lgan mutaassib jangarilarni tayyorlash, ular yordamida kommunizmni barbod qilish borasidagi g‘arb davlatlarining maxfiy yoki gohida ochiq xatti-harakatlari ham ushbu global muammoning chuqurlashishiga, yanada rivojlanishiga, eng muhimi ekstremistlar va mutaassiblarning ma‘lum bir hududlarga, zaruriy qurol-yarog‘ va moliyaviy manbalarga, eng asosiysi, vaqtincha bo‘lsada, siyosiy qo‘llab-quvvatlashga ham ega bo‘lganligini alohida qayd etmoq joiz.

SSSRning Afg‘onistonni tashlab chiqishi bilan nafaqat Afg‘onistondagi vaziyat ekstremistik kuchlar ta‘siriga tushganligini, balki bu holat ko‘plab esa ular tarafdorlariga “ilhom berganligi” ko‘pchilik mutaxassislariga ma‘lum. Shundan so‘ng radikal islom g‘oyalari bilan oziqlangan ekstremistlarning o‘z arenalarini kengaytira boshlaganligi, bu holatlar ayniqsa, Rossiyaning Shimoliy Kavkaz hududlarida, Markaziy Osiyoning yangi mustaqil davlatlarida o‘z faoliyatini kuchaytira boshlaganligi, eng asosiysi, turli tuman ekstremistik kuchlarning aksariyati Yaqin Sharq davlatlari, Pokiston va Afg‘oniston, Shimoliy Afrika, Turkiya hududlarida o‘rnashib olgan turli destruktiv beqarorlashtiruvchi kuchlar tomonidan moliyalashtirilganligi, qo‘llab-quvvatlanganligi o‘tgan asrning so‘nggi o‘n yilliklariga xos xususiyat bo‘lganligini qayd etmoq lozim.

XXI asr insoniyat tafakkuri tobora yuksalib borayotgan, turli tuman kashfiyotlar natijasida dunyoning rivojlangan davlatlari ilm-ma‘rifat bilan hattoki, o‘zga sayyoralarni zabt etishga kirishgan, inson farovonligi uchun barcha zamonaviy sharoitlarni muxayyo qilayotgan, taraqqiyot borasida misli ko‘rilmagan yutuqlarni qo‘lga kiritayotgan, shiddatli ilm-fan taraqqiyoti davrida Islom olami juda katta inqirozga duch kelganligi hech kimga sir emas. Faqatgina “o‘rta asrlarga xos shariatni joriy qilish” lozim degan tushunchalardan nariga o‘tolmaydigan, tobora aqlan zaif va mutaassib tafakkur bilan qurollangan radikal kuchlar aslida butun ma‘rifatparvar dunyoga dushman ekanligi ko‘pchilik jamiyatlar tomonidan allaqachon anglab yetilgan edi.

Yuqorida keltirib o‘tganimizdek, radikal islomiy kuchlarning ta‘siridan Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan O‘zbekiston ham “benasib” qolmagan edi.

Endigina kommunistik mafkuradan xolos bo'la boshlagan jamiyat uchun Yaqin Sharq, Pokiston yoki Afg'onistondan kirib kelayotgan "sof islom" g'oyalari yangilik edi. Uzoq yillik kommunistik g'oyalarga qaramlikdan so'ng, jannatni va'da qiladigan, buning uchun azaldan islom ilm-fani va madaniyati markazlaridan biri sifatida e'tirof etilgan O'zbekiston "sof islomdan yiroq sobiq kommunistik davlat" va unda yetishib, kamol topgan, Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Mahmud Zamaxshariy, Muhammad Qaffol Shoshiy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy singari ko'plab mutafakkirlarning me'rosi esa "xato qarashlardan iborat va foydasiz ilm" ekanligini targ'ib qiladigan radikal islomga aholining ma'lum bir qatlamlari, guruhlar berilib ketganligi ham hech birimizga sir emas. Eng murakkab holat shunda ediki, asta-sekin suqilib kirayotgan bunday g'oyalarga ko'pincha yoshlarning bilib-bilmay kirib qolishi, ular safida hattoki, oddiy haqiqatlarni ham rad etadigan mutaassib manqurtlarga tobora aylanib borayotganligi achinarli edi.

Bunday voqealiklar o'z natijasini uzoq kuttirmadi. 1999 yilgi fevral voqealari va undan keyingi bir necha bor amalga oshirilgan turli terrorchilik harakatlari O'zbekistoni bunday holatlarlarga qarshi murosasiz kurashga da'vat etib, xalqaro miqyosdagi terrorizm va fundamentalizmdan oziq olayotgan o'sha vaqtlardagi kuchlarga keskin zarba berish bilan davom etdi. Ammo, bu holatlar aksariyat hollarda, G'arb davlatlari tomonidan keskin tanqidga uchragan, O'zbekistonning inson huquqlarini, uning diniy erkinliklarini qo'pol ravishda buzayotgan mamlakatlar safiga kiritilgan, mamlakatga nisbatan turli sanksiyalarning qo'llanilishiga qadar yetib kelgan edi.

Lekin, tanganing ikkinchi tomoniga ham qaraydigan bo'lsak, O'zbekistonning diniy mutaassiblikka murosasizligi, ekstremistik harakatlarning oldini olish yoki unga butunlay chek qo'yish bo'yicha olib borilgan kurashlari o'zining natijasini ham bergan edi. Bugungi kunga qadar O'zbekistonning xalqaro maydondagi imidjiga bu jiddiy ta'sir ham ko'rsatganligini e'tirof etmog'imiz lozim. Amerikalik ekspert, Jon Xopkins universiteti professori Frederik Star o'z vaqtida "O'zbekistonga bo'lgan qiziqishning yuqoriligini ushbu davlat qator tahdidlar, jumladan diniy ekstremizmning Osiyodan Rossiyaga kirib kelishining oldini oluvchi asosiy to'siqlardan biri ekanligi bilan izohlash mumkin. Haqiqatan ham O'zbekiston hukumati O'zbekiston islom harakati va "Hizb ut tahrir" guruhiga qarshi keskin kurashishi bilan tanilgan" degan e'tiroflarni ham bayon qilgan edi.

Keyingi vaziyatlarda, ya'ni O'zbekistonda hokimiyatga Shavkat Mirziyoyevning kelishi bilan vaziyat ham o'zgara boshladi. Har qanday siyosiy muxolif yoki kuch bilan murosa qila oladigan, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini pragmatik siyosat orqali yuksaltirishga bel bog'lagan, eng asosiysi, inson huquqlari va erkinliklarini eng oliy qadriyat sifatida ko'ra oladigan lider sifatida Shavkat Mirziyoyev har qanday radikal kuchlarga, islomiy ekstremistik kuchlarga asosiy zarbani ma'naviy va ma'rifiy yo'llar bilan kurashda ko'ra oldi. Yangi prezident tomonidan 2017-2021 yilarni qamrab oladigan O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida diniy bahrikenglik va jamiyat barqarorligi keng ilgari

surildi va bu siyosat tezda o'z natijasini bera boshladi. O'zbekistonda diniy ta'lim tizimini isloh qilish, qadim va o'lmas an'analarga tayangan holda, mamlakat haqli ravishda "Islom olamining quvvati" unvoniga sazovor bo'lganligini, qadimdan Samarqand va Buxoroda Mirzo Ulug'bek qurdirgan madrasalar o'rta asrlarning universitetlari vazifasini bajarganligini, ularning avlodlari esa hech qanday radikal islomni qabul qilmasligini, balki, ushbu g'oyalarga qarshi ilm-ma'rifat bilan kurashish lozimligini doimo e'tirof etgan Prezident Shavkat Mirziyoyev bu borada yangi amaliy ishlarni ruyobga chiqara boshlagan edi.

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan globallashuv sharoitida dunyoda muqaddas islom dini ahkomlarini noto'g'ri talqin qilish, ularni soxtalashtirish yo'li bilan turli fitna va buzg'unchiliklar sodir etish holatlariga qarshi dinning sofliqini saqlash, uning tinchlik va insonparvarlikdan iborat asl mohiyatini aholi, ayniqsa, yoshlarga yetkazishga qodir, yuqori darajada ilmiy va diniy salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratila boshlandi. 2017 yilning 1 sentyabrida Toshkent shahridagi Hazrati Imom majmuasida davlat, jamoat va yoshlar tashkilotlari, diniy soha vakillari bilan uchrashuvida diniy ta'lim tizimini tahliliy o'rganib chiqish va zamon talablari asosida takomillashtirish, yuqori ilmiy tayyorgarlikka ega mutaxassislarni tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadida O'zbekiston Islom akademiyasini tuzish bo'yicha vazifalar belgilab berdi. Bu esa mamlakatimizning nafaqat islom olamida, musulmon mamlakatlari orasida, balki xalqaro miqyosdagi obro'si, nufuzi ortishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, Islom sivilizatsiyasi markazining tashkil qilinishi borasidagi tashabbusi esa, O'zbekistonni dunyo tomonidan yangicha qabul qilinishiga, yangicha tanilishiga sabab bo'ldi deyish mumkin.

Olamshumul ishlar ichida, bir vaqtlar turli aldovlarga uchib, o'z vatanini tark etgan, turli ekstremistik radikal kuchlar ta'siriga tushib qolgan shaxslarning xorijda yordamga muhtoj holatda qolib ketgan oilalarini, Suriya va Iroqning Kurdiston hududlaridagi jamloqlarida maxbus sifatida saqlanayotgan ayollar va bolalarning mashaqqatlar, xalqaro muzokaralar sharoitida bo'lsada, O'zbekistonga olib kelinishi mamlakatning xalqaro miqyosda ijobiy qiyofasini shakllantirdi. Shuningdek, mamlakat rahbarining bu boradagi insonparvarlik siyosati esa nafaqat xorij jamoatchiligi, balki mamlakat xalqi tomonidan ham o'ta qizg'in kutib olindi, ijobiy baholandi. Ezgu ishlar qatorida, o'ta xavfli mutaassib, radikal g'oyalarga sodik, ekstremistik kuchlar ta'sirida qolgan maxbuslar uchun mamlakatning uzoq hududlaridan birida tashkil qilingan "Jasliq" kamoqxonasining yopilishi, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, o'z qilmishlaridan chin dildan pushaymon bo'lgan shaxslardan qamoqlardan ozod qilish va ularni ijtimoiylashuvini, reabilitatsiyasini jadallashtirish borasidagi ishlari tufayli 2019 yilga kelib, AQSH Davlat departamenti tomonidan O'zbekiston diniy erkinlikni buzuvchi mamlakatlar ro'yxatidan chiqarib tashlangan sanoqli davlatlardan biriga aylandi. Ushbu holatning o'zi ham mamlakatimizning xalqaro maydondagi ijobiy e'tirofga sazovor bo'lganligini yana bir bor ko'rsatib berdi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida shunday degan edi: "Jahonda kechayotgan murakkab geosiyosiy

jarayonlar, koronavirus pandemiyasi va global iqtisodiy inqiroz sharoitida O'zbekiston ochiq va pragmatik tashqi siyosatni faol olib bormoqda. Xalqaro maydondagi qat'iy sa'yharakatlarimiz natijasida yurtimizning nufuzi va obro'-e'tibori tobora yuksalmoqda. Mamlakatimiz tarixda birinchi marta Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashiga a'zo etib saylandi. Yaqinda AQSH davlat departamenti tomonidan O'zbekiston diniy erkinlik sohasidagi "maxsus kuzatuvdagi davlatlar" ro'yxatidan chiqarilgani ham keng ko'lamli demokratik islohotlarimizning e'tirofidir".

Haqiqatda, bugungi kunda dunyoni bezovta qilayotgan, musulmon dunyosi taraqqiyotini ortga surishga, rivojlanishdan mahrum qilishga va eng asosiysi barqarorlik va xavfsizlikka rahna solayotgan radikal islomiy g'oyalarga qarshi kurashish, bu yo'lda chuqur insonparvarlik va ma'rifat tamoyillariga amal qilish borasida O'zbekiston juda katta yutuqlarni qo'lga kiritdi va bu uning xalqaro maydondagi imidji yuksalishining asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

II BOB. O'ZBEKISTON XALQARO IMIDJINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIY MASALALARI

2.1 Yangi O'zbekistonning yangi imidjini yuksaltirishda turizm sohasini rivojlantirish masalalari

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti va madaniy taraqqiyotining asosiy sohalaridan biri bo'lgan turizm nafaqat insonlarning ongu-shuurini boyitishga xizmat qiladigan, balki mamlakatning imidjini shakllantiradigan, shuningdek, uni yuksaltiradigan, mamlakat, jamiyat, xalq va millat haqida ijobiy fikrlarni bunyod qiladigan madaniy tarmoq ekanligini xam albatta hisobga olmoq lozim. Zero, bugungi kunda xar qanday mamlakatning kelajagi, o'tmishi, millatning tafakkur darajasi va jamiyatning saviyasini bilish, anglash uchun o'sha mamlakatga tashrif buyurishning uzi kifoya. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni va aynan strategiyaning 35-maqsadi, ya'ni "O'zbekiston bo'ylab sayoxat kiling" dasturi doirasida maxalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish xamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish" vazifasi belgilanganligidan kelib chiqqan xolda, aytish mumkinki, O'zbekiston iqtisodiyotida turizmning ulushi katta ekanligi barchamizga ayon. Shu bilan birga, pandemiya davrida ushbu tarmoqning eng katta zarar ko'rganligi xam kech birimizga sir emas.

Lekin shunday bo'lsada, pandemiyaning asta-sekin bartaraf bo'lishi bilan bog'liq jarayonlarda O'zbekistonning turizm sohasi xam tez sur'atlar bilan o'zini o'nglab ola boshladi. Mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy hayoti uchun muhim kasb etish bilan bir qatorda, soha tadbirkorlar va ishbilarmonlari, tarmoqda band bo'lganlar uchun yana daromad keltira boshladi.

Buning ham aslida bir qancha sabablari bo'lib, ular qatorida davlatning tinchligi va barqarorligi, millatimizning mehmondo'stligi, zaruriy infratuzilmalarning mavjudligi va asta-sekin obodlik kasb ztib borayotganligi, sayehlar uchun barcha imkoniyatlarni bo'yicha tadbirkorlik muhitining tobora yaxshilanib borayotganligi, sayehlarning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarning samaradorligi va hokazolarni alohida ta'kidlab o'tmok joiz. Bunday samarili siyosat o'z mevasini berayotganligi, sohada ko'zga tashlanayotgan kamchiliklar ustida yanada jiddiyoq ishlanayotganligi, sohaning mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining lokomotivga aylantirish borasida davlat siyosati darajasida ishlar olib borilayotganligini alohida qayd etmoq lozim.

Shuningdek, hali oldinda bir qator vazifalarning o'z yechimini va ijrosini kutib turganligini, ushbu vazifalarning strategik ahamiyagga ega ekanligini va eng asosiysi mamlakatning xalqaro maydondagi imidjini yuksaltirish va mustahkamlashga xizmat qiladigan xususiyatlarini alohida qayd etmoq lozim. Chunki, bu nafaqat mamlakat iqtisodiyotiga sarmoya va daromad olib keladigan

soha ekanligi, balki bizni dunyoga qanday madaniyatli ekanligimizni ko'rsatib bera oladigan soha ekanligini xam aslo unutmaslik lozim.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab xalqlari o'zlarining ijobiy qiyofasini shakllantirish uchun tobora jon-jahdlari bilan xarakatlarni kuchaytirayotgan, imkon kadar sayyohlarning katta oqimini o'zlariga jalb qilishga harakat qilayotgan bir davrda, O'zbekistonning xam bunday harakatlarga qo'shilishi, dunyo sayyohlik industriyasidan ortda qolmasdan, o'z turistik va madaniy imidjini shakllantirish aslida hayotiy zaruratdir.

Lekin mavjud kamchiliklarni xam albatta hisobga olish, O'zbekistonning turistik imidjining mamlakat va davlat imidji bilan bog'liqligini anglagan holda, ularni baravar yuksaltirish, bu borada kelgusida qilinishi lozim bo'lgan masalalarni, strategik vazifalarni hal qilmoq muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatga tashrif buyuradigan sayyohlar avvalo, tozalikka, ular tashrif buyuradigan tomoshagohlar, muzeylar va qadimiy obidalar atrofining obodonligiga, xizmat ko'rsatish sifatiga, ijtimoiy soha ob'yektlarining ozodaligi, gigiyenik talablarga javob berishi holatlariga chukur e'tibor qaratadilar. Afsuski, bu borada xar doim xam maqtana olmaymiz. Toshkentdan Samarqandgacha yoki Buxoro va Xivagacha bo'lgan avtomobil yullari atroflarining turli tuman axlat chiqindilariga to'laligi, odamlarning oddiy tozalik va gigiyena qoidalariga amal qilmasligi, turli ahlatlarni ko'chalarga tashlashi, ba'zilarining atrof-muhitning tobora ifloslantirish bilan bog'lik madaniy saviyasi kamligi bilan bog'liq holatlar nafaqat sayyohlarning, balki ularni ko'rgan har qanday odamning xam dilini xira kiladi. Ko'plab obidalarimiz atrofida sayyohlarning dam olishlari, xordiq chiqarishlari, obidalar haqida ma'lumotlarni to'liq va oson olishlari, hattoki, to'yib, maza qilib milliy taomlardan yeyishlari uchun elementar sharoitlarning ham gohida yetishmasligi, afsuski bor holat.

Shuni alohida qayd etishimiz kerakki, turizm — bu faqatgina ma'lumotlar olish emas, balki avvalo, hordiq demakdir. Sayyohlar uchun munosib darajada hordiq chiqarishlarini ta'minlab bera olmas ekanmiz, sohaning taraqqiyotini ta'minlash albatta mushkul va bu holat, O'zbekistonning turistik imidjiga xam salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Madaniy me'ros ob'yektlarining barchasini ro'yhatga olish va ularni O'zbekistonga tashrif buyuradigan har bir sayyohga taqdim qilish yoki elektron kataloglarini tarixi va xaritasi bilan yaratish, turli saytlar orqali, hattoki, ularning lokatsiyalarini xam doimiy yangilab borish, mamlakatimizda sayyohlar o'zlarini guyoki o'z uylaridagidek his qilishlari uchun barcha sharoitlarni yaratish vazifalari zudlik bilan hal qilinishi, bu soxada doimiy innovatsion o'zgarishlarni joriy qilishni taqazo qiladi.

Shuningdek, so'nggi vaqtlarda mamlakatimizga tashrif buyurgan ko'pchilik sayyohlarning e'tirozlari aynan "transport". "mehmonxona" servisi, "internet-kommunikasiya"ning past darajasi va hokazolarda deya ko'rsatilganligi achinarli holat, albatga. Chunki, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlariga tashrif buyuradigan sayyohlarning aksariyat qismi O'zbekistonga tashrif buyurishi, ko'plab osori atiqalarni o'z bag'rida joylagan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva,

Shaxrisabz, Termiz va Qo‘qon singari shaharlarning aynan O‘zbekistonda joylashganligi, bundan tashqari islom olamining mashhur ulamolari, tariqat pirlarining qabrlari va ularning tarixi bilan bog‘lik obidalarning mavjudligi barchaga ma‘lum.

Shular bilan bir qatorda, O‘zbekistonning nafakat moddiy, balki ko‘plab nomoddiy me‘rosga ega ekanligi, bu borada rang-barang festivallarning, xalq sayillarining, bayramu-tadbirlarning o‘tkazilib kelinayotganligi, ayniqsa, qadimdan saqlanib kelinayotgan xunarmandchilik madaniyati mavjudligi xam mavjudligi, bunday tadbirlar dunyoning minglab turistlarini O‘zbekistonga katta qiziqish bilan tashrif buyurishlariga xam mamlakatimizning turistik imidjini oshiradigan omil ekanligini, albatta soha taraqqiyoti uchun vazifa ekanligini unutmaslik lozim.

2.2 O‘zbekistonning xalqaro imidjini yuksaltirish – davlatning strategik vazifasi sifatida

Jahon miqyosda tobora obro‘si yuksalib borayotgan O‘zbekistonning xalqaro imidjini yuksaltirishning siyosiy masalalarini tadqiq qilish va bu borada takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kun siyosiy fanlarining ham muhim yo‘nalishiga aylandi. Zero, jahon hamjamiyati ko‘z o‘ngida jadal rivojlanayotgan, insonparvar va demokratik obrazi yaratilgan mamlakatina katta siyosiy va iqtisodiy muvaffaqiyatlarga erishadi. Dunyodagi ko‘p davlatlar taraqqiyotga ham aynan o‘zining imidjini yuksaltirish orqaligina erishganligi, bu holat mamlakatning kuchi va qudrati timsoli sifatida namoyon bo‘layotganligini, shuningdek, bunday strategik vazifalarni amalga oshirish yo‘lida O‘zbekiston oldida turgan muhim masalalar maqolada yoritilgan. Mamlakatning xalqaro hamjamiyat va jahon jamoatchiligi tomonidan ijobiy qabul qilinishi bu uning imidj muvaffaqiyatini ta‘minlash demakdir.

. Davlatning xalqaro maydonda o‘z brendiga ega bo‘lishi uning investision jozibadorligi ortishining ham asosiy shartlaridan biri ekanligi hech kimga sir emas. Jahon hamjamiyati ongu-fikrida, qarashlarida ijobiy obrazi yaratilgan mamlakatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy pozitsiyasi ham yuqori bo‘ladi va u amalda isbotlangan. Jahonning aksariyat davlatlari asosiy maqsadlaridan biri ham aynan shu ekanligini alohida e‘tirof etmoq joiz. Chunki, bugungi kunda dunyo miqyosida davlatning qudrati va salohiyati faqatgina uning iqtisodiy va ishlab chiqarish salohiyatigagina bog‘liq emas. Eng asosiysi davlatning xalqaro hamjamiyat va jahon jamoatchiligi tomonidan qabul qilinishidir.

Davlat va mamlakatning imidji masalasi juda qadim zamonlarga borib taqalishi bilan bir qatorda, uning fan sifatida shakllanishi asosan XX asrning 30-yillarida fanga kiritilgan. Bu borada Zigmund Freyd va amerikalik olim Kennet Bolduinglarning ilmiy ijodi katta qiziqish o‘yg‘otadi. Z. Freyd tomonidan mazkur mavzuda maxsus jurnal chop etilgan bo‘lsa, Kennet Boulding tomonidan “imidj” termini ilmiy sohaga kiritilgan. Shuningdek, dunyo miqyosida imidj masalasida taniqli olimlardan S.Agarval va S.Sikrilar tomonidan 1996 yilda chop etilgan “Country image: consumer evaluation of product category extensions” (Mamlakat imidji: ishlab chiqarilgan mahsulotni baholashning kengayishi) nomli maqola bu boradagi juda katta ilmiy tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Bunday tadqiqotlar qatorida S.Anxoltning 2007 yilda chop etgan “Competitive Identity. The New Brand Management for Nations, Cities and Regions” (O‘zlik raqobati. Mamlakatlar, shaharlar va hududlar uchun brend menejmenti), P.Makmillan, B.Xempshir va J.D.Martin lar hamkorlikda 2004 yilda yozgan “Factors influencing destination image” (Boshlanish nuqtasidagi imidjga ta’sir ko‘rsatadigan omillar) nomli maqollarida davlat va mamlakatning imidji, uning shakllanish jarayonlari va ularga ta’sir ko‘rsatadigan omillar chuqur tahlil qilinganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, ko‘plab olimlar va mutaxassislar ham borki, ular tomonidan imidj masalalarining yoritilishini birgina maqola bilan ko‘rsatib berish nihoyatda mushkuldir.

O‘zbekistonning bugungi xalqaro imidji tobora yuksalib borayotganligini qayd etsakda, bu borada hali ko‘p ishlar qilinishi lozimligi kunday ravshan bo‘lib qolmoqda. Xalqaro munosabatlarda alohida sub‘yekt sifatidagi davlat bo‘lganligimizga ham mana 31 yil to‘lish arafasida turibmiz. Mamlakatimizni dunyoga tanitish, uning ijobiy qiyofasini va obrazini shakllantirish, xalqaro imidjini yuksaltirish borasida ko‘plab ishlar qilindi va bu yo‘nalishdagi hayotiy muhim vazifalar davom etmoqda.

Ayniqsa, so‘nggi 5-6 yil davomida dunyo O‘zbekistonni “demokratik ruhi tobora yuksalayotgan, majburiy mehnat tugatilgan, inson huquqlari kafolatlanayotgan, so‘z va e‘tiqod erkinligi borasida katta siljishlarni amalga oshirgan davlat” sifatida qaytadan kashf eta boshladi[1]. Bunday muvaffaqiyatlarga erishish oson bo‘lgani yo‘q albatta. Mamlakatning Prezidenti vazifasini bajaruvchi sifatida ish boshlagan Shavkat Mirziyoyev o‘z rahbarligining ilk kunlaridan boshlab, garchi, o‘sha davr uchun biroz xatarli yoki tasavvur qilib bo‘lmas darajada murakkab bo‘lsada, ichki va tashqi siyosatda tub o‘zgarishlarni amalga oshirishga kirishgan edi. Xatarli deyishimizga asosiy sabab, uzoq yillar davomida shakllangan, ma’lum bir mustahkam “qolipga tushgan” elitaning qarshiligini yengib o‘tish, ikkinchidan, tashqi xavf-xatarlar soyasida o‘ta nozik diplomatiya olib borish mas’uliyati ham aynan o‘sha davrga to‘g‘ri kelar edi. Butun dunyoning diqqat bilan kuzatishi, yo‘l qo‘yilishi ehtimoli bo‘lgan xatolarni zimdan “poylashi”, geosiyosiy murakkabliklarning tobora ortib borishi sharoitida mamlakat Prezidentining va O‘zbekistonning xalqaro imidji bir yil ichida shiddat bilan o‘zgardi va umumjahon miqyosda bu holat dunyoning ko‘plab ekspertlari, siyosatchilari tomonidan keng e‘tirof etila boshlandi.

Mamlakat qisqa vaqt oralig‘ida jahonning eng qudratli davlatlari tomonidan hurmat bilan tilga olinib boshlandi va buning yorqin misoli sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ko‘plab davlatlarga, jumladan, Turkmaniston, Qozog‘iston, Xitoy, Rossiya, Saudiya Arabistoni, AQSH, Turkiya, Koreya Respublikasi, Tojikiston, Hindiston, Fransiya, Germaniya, Birlashgan Arab Amirliklari, Belarus, Yaponiya kabi davlatlarga oliy darajadagi xorijiy turnelarni amalga oshirganligi, ularning ba’zilariga bir necha bor amaliy, rasmiy va davlat tashriflari bilan borganligi, eng asosiysi har bir tashrif davomida yuksak hurmat va ehtirom bilan kutib olinganligini, O‘zbekistondagi islohotlar har tomonlama qiziqish bilan kuzatilayotganligi, olqishlanishi e‘tirof etildi. Dastlabki besh yillikdagi “Harakatlar strategiyasi” mamlakat tashqi siyosiy obro‘si va xalqaro imidji yuksaltirishining muhim bosqichi bo‘ldi deyish mumkin. Yuqorida keltirib o‘tganimizdek, jahon O‘zbekistonni boshqacha qiyofada taniy boshladi va unga monand munosabat shakllana boshladi.

Mamlakatda qabul qilingan “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ham aynan mamlakat imidjini yuksaltirish bilan bog‘liq vazifalarning, aniqrog‘i maqsadlarning belgilab olinganligi esa bu borada siyosiy vazifalarni davom ettirish va xalqaro maydonda O‘zbekistonning pozitsiyasini mustahkamlash borasidagi strategik ishlarni jadallashtirish mas’uliyatini yuklamoqda.

Jahonda sodir bo'layotgan turli tendensiyalarni tahlil qilish va kuzatish asnosida ishlab chiqilgan maqsadlar va vazifalarni oqilona yo'naltirish, dunyo bo'yicha bu borada katta yutuqlarni qo'lga kiritgan davlatlar tajribasidan keng va samarali foydalanish ham istiqbolli ekanligini qayd etmoq lozim. O'zbekistonning imidjini jahon sahnasida ilgari surish, amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi islohotlarning samaradorligini, jamiyatni demokratik yangilash borasidagi ishlarni xolis yoritish nafaqat siyosatchilarning, balki olimlarning ham asosiy maqsadlaridan biriga aylanishi lozim

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" va unda belgilangan vazifalar nafaqat mamlakat imidjini yuksaltiruvchi omil sifatida, balki uning farovonligini yuksaltiruvchi, xalqaro hamjamiyatning muhim ishtirokchisiga aylantiruvchi, jahon ayvonida O'zbekistonning madaniyatini va milliy an'analarimizni keng ommalashtirish, targ'ib qilishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro imidjni yuksaltirishning iqtisodiy, madaniy, san'at, turizm va ishlab chiqarish bilan bir qatorda, siyosiy masalalarini ham belgilash, uni takomillashtirish zarurati har qachongidanda dolzarb. Zero, jahon O'zbekistonni faqatgina serquyosh ulka, qadim madaniyatning me'rosxo'ri, ma'naviyati boy xalq, qadim osori-atiqalar juda ko'p, turistik salohiyati rivojlanayotgan, kattadan-katta maydonlarida paxta yetishtiriladigan, mehmondo'st millatlar va elatlar yashaydigan yurt sifatidagina tanishi shart emas.

Bugungi O'zbekistonni dunyo jadal siyosiy islohotlarni amalga oshirayotgan, samarali ichki va tashqi, mintaqaviy siyosat olib borayotgan, dastlab sobiq mustabid tizimni, keyin esa o'zining 25 yillik mustaqillik davridan me'ros qolgan katta murakkabliklarni bartaraf etishga bel bog'lagan va katta natijalarga erishayotgan zamonaviy davlat sifatida tanishi o'ta muhim. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bugungi kunda O'zbekiston o'zining geografik joylashuviga ko'ra, Shimol va Janubni, G'arb va Sharqni magistral tranzit koridorlari orqali bog'lab turadigan Markaziy Osiyo mintaqasining o'zagi hisoblanadi. Biz "Buyuk o'tmishdan — buyuk kelajak sari" tamoyili asosida iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishimizni jadal davom ettirmoqdamiz".

Buning vazifalar o'zi bo'lmaydi albatta. Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar bilan bir qatorda, mamlakat xalqaro imidjini yuksaltirishning siyosiy jihatlari albatta hisobga olinishi, ushbu yo'nalishda esa ko'plab ishlar qilinishi lozimligini anglab yetmog'imiz lozim. Mamlakat imidji ustida ishlaydigan imidjmeyker kadrlar tayyorlashdan tortib, to bugungi kun zamon talablariga javob bera oladigan rahbar kadrlar yetishtirish, siyosiy islohotlarning samaradorligini oshiradigan dasturlardan tortib, davlat qudratini, obro'sini yuksaltiradigan tuzilmalar faoliyatini takomillashtirishgacha bo'lgan vazifalarga katta ahamiyat qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Afsuski, bu boradagi ishlarimizni hali ko'ngildagidek deyish biroz qiyin. Sababi, turli axborot resurslari va ijtimoiy tarmoqlarda davlat boshqaruv organlari va turli bo'g'in tizimlarida ishlayotgan rahbar kadrlar va boshqaruvchilar tomonidan yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklar, ba'zi masalalardagi kaltabinligi yoki

korruptsiya holatlari mamlakat xalqaro imidjiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Zero, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat mamlakat jamoatchiligi, balki xalqaro media makonda ham jadal yoritilmoqda va yuqoridagi xato va kamchiliklar O'zbekiston davlatining imidjiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda, xorijiy hamkorlik aloqalarini kuchaytirishga ham zarar yetkazmoqda.

Shuning uchun ham mamlakat siyosiy tizimi va sohadagi yuz berayotgan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan mavjud muammolarni o'rganish, ularni tuzatish hamda siyosiy islohotlarning samaradorligini oshirish, rahbar va boshqaruvchi kadrlarning professionalligini va siyosiy saviyasini yuksaltirish masalalari o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. O'zni kelganda shuni ham alohida qayd etish lozimki, bugungi kun ko'plab rahbar kadrlarning kamchiligi – bu ularda omma yoki jamoa oldida gapira olish salohiyatining o'ta pastligi, tadbirlarda yoki majlislarda auditoriyani zerikishiga sabab bo'ladigan uzundan-uzun ma'ruzalarni qog'ozga qarab o'qib berishida ham namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, OAV bilan ishlash ko'nikmalariga ega emasligi, oddiy intervyu berishni ham eplay olmasligi singari kamchiliklar ham ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari, ba'zi tumanlar hokimlari tomonidan Feysbuk ijtimoiy tarmog'ida ochilgan sahifalarni ko'rsangiz, bo'lib o'tayotgan “zerikarli” tadbirlarnigina yoritish bilan cheklanib qolayotganligi va ushbu xabarlarni faqatgina sanoqli odamlar tomonidan o'qilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Qiziqarli statistik ma'lumotlar, hududni rivojlantirish bo'yicha takliflar va unga xalqning munosabatini o'rganish, muammoli masalalarning yechimi borasida nimalar qilish lozimligi va hokazolar haqida aslo gap yo'q. Demak, rahbarlar uchun axborot siyosatining zamonaviy tendensiyalarini, ulardan samarali va kreativ foydalanish uslublarini o'rgatish ham bugungi kunning dolzarb masalalari sifatida maydonga chiqmoqda. Shu bilan bir qatorda, O'zbekistondagi siyosiy o'zgarishlarni qiziqish va olqishlar bilan kuzatayotgan xalqaro hamjamiyat ko'z o'ngida aholining siyosiy faolligi ortib borayotganligi, ularning talab va ehtiyojlari ham taraqqiyotga monand tarzda o'sayotganligi sharoitida, davlat siyosatining, ayniqsa, rahbar kadrlarning ish uslubi ushbu o'zgarishlarga adekvat javob berishi ham davlat imidji sohasining muhim qismiga aylanib ulgurdi.

Ma'lumki, mamlakatning xalqaro imidjni yuksaltirish masalasi davlatning strategik vazifalaridan ekan, xalqaro hamjamiyat tomonidan mamlakatning qanday ko'z bilan ko'rilishi va qaralishi, shuningdek, unga nisbatan munosabati davlatning taraqqiyotini, farovonligini, nufuzini belgilovchi omillardandir. Har qanday davlatning tashqi dunyodagi e'tirofi uning xalqaro munosabatlari rivojlanishining ham muhim omili ekanligidan kelib chiqandigan bo'lsak, bu holat ham tabiiy. Aksariyat hollarda davlatlarning xalqaro maydondagi imidji, obro'si va nufuziga putur yetkazmaslikka harakat qiladi va ularga monand holda, ham ichki va tashqi siyosiy islohotlarini, kursini doimiy rivojlantirishga, samaradorligini oshirishga harakat qiladi. “Xalqaro hamjamiyat esa ushbu imidjga, davlatning qudratiga, salohiyatiga qarab u bilan barcha sohalaridagi munosabatlarni, aloqalarni rivojlantirishga harakat qiladi”.

Lekin, alohida qayd etish lozim bo'lgan jihatlar ham borki, bu ham bo'lsa, davlatning xalqaro maydondagi imidjini yuksaltirish bilan bog'liq jarayonlar osonlik bilan amalga oshirilmasligidir. Ayniqsa, bugungi kunda yer kurrasida terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash masalalari dolzarblashib borayotgan, g'arb tomonning ahloqsizlikni targ'ib qiladigan madaniyati ustunlik qilishga va suqilib kirishga harakat qilayotgan sharoitda uchinchi dunyo mamlakatlariga nisbatan axborot xurujlari va bosimlari tobora ortib bormoqda. Hali o'z imidjiga ega bo'la olmagan, o'z pozitsiyasini mustahkamlay olmagan davlatlar esa bunday bosimlarga qarshi tura olmasligi, axborot bosimlari ostida o'zini yo'qotib qo'yishi ham tabiiy. Faqatgina o'z ijobiy imidjini yarata olishgina uning raqobatbardoshligini orttirish bilan birga, turli xavf-xatarlarga ham qarshi kurasha olish salohiyatini yuksaltiradi.

O'tgan davrda, ya'ni Harakatlar strategiyasi davrida siyosiy islohotlarning jadal bosqichida xalqaro hamjamiyat ko'z o'ngida O'zbekistonning ijobiy qiyofasini, imidjini yaratish borasida ko'plab samarali ishlar amalga oshirilganligini, bu jarayonlarda O'zbekistonning yangi mazmundagi siyosati shakllanayotganligini, demokratiya, zamonaviy bozor iqtisodiyotiga asoslangan tuzumni, huquqiy va dunyoviy jamiyat qurish yo'lidan olg'a intilayotganligini ko'rsata olgan edik. Ammo, aynan mamlakat imidjini yuksaltirishning zaruriy ilmiy-konseptual, axboriy metodologik jihatlarini to'liq o'zlashtirgan, bu boradi ko'plab ilmiy va metodologik yechimlarni taqdim qila oladigan mutaxassislarning kamligi bois oldinga qo'yilgan vazifalarni to'liq amalga oshirdik deya olmaymiz.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekistonni xalqaro maydonda obro'sizlantirishga bel bog'lagan kuchlar ham qarab turmaganligini, ular tomonidan keng ko'lamli axborot faoliyati tobora kuchaytirilganligini, asosiysi, bu jarayonlar borgan sari kengayib borayotganligini qayd etmoq lozim. Bunga hamohang tarzda O'zbekistonning raqobatchilari ham qo'l qovushtirib o'tirmaganligi, ular tomonidan yuqorida keltirib o'tilgan kuchlarni qo'llabquvvatlash uchun kattadan-katta resurslar va kuch sarflanayotganligini ham alohida qayd etib o'tmoq joiz.

Shuni alohida qayd etmoq lozimki, xalqaro maydonda alohida qudratli davlatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatimiz borasida qabul qiladigan qarorlari aynan O'zbekistonni xalqaro maydonda obro'sizlantirishga bel bog'lagan kuchlarning maqsadli faoliyatlari ham hisobga olingan holda amalga oshirilishini siyosiy jihatdan anglab yetmog'imiz lozim. O'sha kuchlar tomonidan mamlakatimizdagi islohotlarga berilayotgan "baholar" nafaqat xalqaro hamjamiyat ongiga, balki mamlakatimiz ichidagi odamlarning ongushuuriga ham kuchli salbiy ta'sir ko'rsatishini alohida qayd etish lozim. Bu holat ayniqsa, xalqaro hamkorlarning O'zbekistonga nisbatan munosabatlariga ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda, mamlakatning salbiy imidji yaralishiga va jahon miqyosidagi turistik, siyosiy, iqtisodiy manfaatlariga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Xorijiy investisiyalarning qisqarishiga, moliyaviy-texnik yordamlarning kamayishiga, mamlakatdan kapitallarning chiqish ketishining tezlashishiga sabab bo'lishi ham mumkin.

Dunyo miqyosida ro'y berayotgan moliyaviy resurslar, investisiyalar va texnologiyalar uchun global raqobat sharoitida mamlakatning imidji masalasi bu

borada kurashlarda yengib chiqishning asosiy omillaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu borada esa ko‘plab mamlakatlarning tajribalaridan foydalanish, davlat o‘z imidjini yuksaltirish orqali siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy va investisiyaviy resusrlarni qo‘lga kirishini ilmiy asoslash ham bugungi kun fanlarining oldidagi muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshayotgan faol demokratik o‘zgarishlar jahon axborot maydonida dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Buning ortidan, mamlakatning imidji ham yuksalmoqda. Aholining siyosiy madaniyati va dunyoqarashi ham jahon miqyosida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga moslashib, Markaziy Osiyo mintaqasida ham O‘zbekistonning ochiqlik siyosati ham davlatlar va ham jamoatchilik tomonidan qo‘llabquvvatlanmoqda. Eng asosiysi, asosiy savdo-iqtisodiy sheriklar dunyoqarashida O‘zbekistonning imidji tom ma’noda yuksalayotganligini kuzatilmoqda. Bu borada dunyoviylik tamoyillari asosida rivojlanish, o‘zaro yaqin qo‘shnichilik, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik, har qanday masalani o‘zaro diplomatik yo‘llar bilan hal qilishga qaratilgan tashqi siyosat muhim rol o‘ynamoqda.

Ayniqsa, mintaqa davlatlari bilan aloqalarni rivojlantirish, 25 yillik davr mobaynida vujudga kelgan “muzlikni eritish” uchun amalga oshirilgan O‘zbekiston katta siyosiy dividendlarni ham taqdim qilganligini ko‘rdik. Demak, aytish mumkinki, “ijobiy imidj mamlakatga iqtisodiy imkoniyatlar beradi. Misol uchun, iste’molchilar ma’lum bir mamlakatlarda yaratilgan mahsulotlar, ya’ni Yaponida ishlab chiqarilgan elektronika mahsulotlari, Italiyada tayyorlangan oziqovqat mahsulotlari, Germaniyada ishlab chiqarilgan avtomobillar uchun qimmat narx to‘laydilar”.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston 15 yil deganda ilk bor «qora ro‘yxat»dan chiqarildi. O‘zbekistonning AQSHdagi Elchixonasi ma’lumotiga ko‘ra, 2020 yil 28 aprel kuni AQSHning Xalqaro diniy erkinliklar bo‘yicha komissiyasi (USCIRF) 2019 yilda dunyoda e’tiqod erkinligi holati baholangan navbatdagi hisobotini e’lon qildi. <https://www.xabar.uz/jamiyat/ozbekiston-qora-royxatdan>.
2. Mneniye zarubejnyx ekspertov. <https://isrs.uz/ru/xorijiy-ekspertlar-fikri>, Eksperty Uzbekistana i Norvegii obsudili vozmojnyye napravleniya dvustoronnego vzaimodeystviya. <https://nuz.uz/obschestvo/1216012-eksperty-uzbekistana-inorvegii-obsudili-vozmozhnye-napravleniya-dvustoronnego-vzaimodeystviya.html>, Eksperty ob Uzbekistane: geopoliticheskiy lider i zaslon ot ekstremizma. <https://ria.ru/20160903/1476008920.html>. Mejdunarodnyye eksperty: Uzbekistan mojet uskorit ekonomicheskij rost za schet strategicheskix investisiy v obrazovaniye. <https://uzdaily.uz/ru/post/61440>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022 yil 28 yanvardagi 60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
4. Investorlar uchun qulay va jozibador sharoit yaratishga qaratilgan amaliy ishlarimizni yanada jadallashtiramiz. 24.03.2022.. <https://president.uz/uz/lists/view/5077>

5. Xarbix S.K. Mejdunarodnyy imidj gosudarstva. Faktory formirovaniya. <file:///C:/Users/User/Downloads/mezhdunarodnyy-imidzh-gosudarstva-factory-formirovaniya.pdf>
6. Baxtiyor Ergashev o tom, zachem Uzbekistanu pozitivnyy vneshniy imidj i iz chego on skladyvayetsya. <https://repost.uz/image-importance>

2.3 Markaziy Osiyo mintaqasida millatlararo munosabatlar va axborot hurujlarining salbiy ta'siri

Mamlakatda 130 dan ortiq millat va elatning istiqomat qilishi mamlakat uchun jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuv, do'stona aloqalarni rivojlantirish, milliy rang-baranglik, turli madaniyatlarning rivojlanishi va o'zaro aloqadorligi borasida kattadan-katta imkoniyatlarni taqdim qilish bir qatorda, ularlar o'rtasidagi do'stlikni, ahillikni, totuvlikni ta'minlash borasida juda katta mas'uliyatni ham yuklaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT BA 75-sessiyasidagi nutqida "Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo mintaqasida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Biz mintaqada davlatlari o'rtasida yaxshi qo'shnichilik va o'zaro ishonch, do'stlik va hurmat muhitini yaratishga erishdik. ...Oxirgi to'rt yilda O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan o'zaro savdo hajmi salkam besh barobarga o'sdi. Mamlakatlarimiz ushbu sinovli kunlarda bir-birini yolg'iz qoldirmasdan, o'zaro yelkadosh bo'ldilar. Bugun Markaziy Osiyo davlatlari oldida muhim strategik vazifa turibdi. U ham bo'lsa, mintaqamizning global iqtisodiy, transport va tranzit yo'laklariga chuqur integratsiyasini ta'minlashdir" 377 deb alohida ta'kidlab o'tdi. Zero, jahon tajribasidan ma'lumki, bir mamlakatda turli millat vakillari istiqomat qilishining ham o'ziga xos nozik tomonlari, zahmatlari, murakkabliklari, qiyinchiliklari mavjud va ular borasida o'z fikrlarimizni bayon qilsak.

Ko'pmillatli O'zbekistonda millatlar o'rtasida do'stona va ahillik munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish borasida juda katta tajriba to'planganligini, shu vaqtga qadar mamlakatda birorta ham milliy xususiyatlar yoki milliy asosda biror bir nizoli holat yuz bermaganligini alohida qayd etish lozim. Buning asosida albatta davlat tomonidan mohirona olib borilgan insonparvarlik siyosati yotishini, mamlakatdagi har bir millat va elat taqdiri borasidagi mas'uliyati kuchli ekanligini alohida e'tirof etishimiz lozim.

Mintaqaning murakkab geosiyosiy makonda joylashganligi, butun Markaziy Osiyoda millatlararo ziddiyatlarning tobora keskinlashib borish ehtimoli o'ta yuqoriligi, globallashuv jarayonlarining tobora chuqurlashayotganligi, maqsadli auditoriya uchun tarqatiladigan turli destruktiv axborotlar ta'sirining kuchayib borayotganligi kabi holatlar esa millatlararo munosabatlar sohasida, shundoq ham tarang vaziyatni murakkablashtirishini, kelajakda kutilmagan ehtimolli voqealiklar yuz berishini har bir fuqaro chuqur anglab yetishimiz darkor.

Markaziy Osiyo miqyosida millatlararo munosabatlarning jiddiy tahdidga aylantirishga qodir bo'lgan, unga juda katta zararli ta'sir ko'rsatish salohiyatiga ega,

turli ssenariylar asosida xavotirli holatlarni vujudga keltirishi bo'lgan eng muhim va holatlarni sanaydigan bo'lsak, quyidagi manzaraga guvoh bo'lishimiz mumkin:

Chegaraviy muammolar - bugungi kunda mintaqa miqyosida millatlararo ziddiyatlarning eng og'riqli nuqtasi sifatida namoyon bo'layotgan va keyingi yillarda tobora shiddatli tus olib borayotgan masalalardan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Har besh mamlakat o'rtasidagi chegaralarning sobiq SSSR davrida nomutanosib bo'lib tashlanganligi, minglab yillar davomida biror bir ma'muriy yoki davlatlar tomonidan ajratilmagan chegaralarning sun'iy ravishda chegara tortilganligi bugungi kun millatlararo ziddiyatlarga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Sun'iy chegaralanish o'sha vaqtda aholining ijtimoiy ongiga, madaniyatiga va roziligiga qaramasdan, milliy va etnik xususiyatlarni pisand qilmasdan o'tkazilganligi, ko'plab anklavlarning vujudga kelganligi, yer-suvga ehtiyoji yuqori bo'lgan xalqlar o'rtasida bugungi kunda tortishuv predmeti sifatida millatlar o'rtasida turli nifoqlarni keltirib chiqarayotganligini tan olmasligimizning iloji yo'q. Buning ustiga, turli ommaviy axborot vositalarida, kanallari va resurslarida har qanday maishiy darajadagi nizo yoki tortishuvlarning ham juda katta bir fojia sifatida ko'rsatilayotganligi tufayli aholi ongida salbiy qarashlarni, vahimalarni, boshqa millatlarga nisbatan nafratning vujudga kelishi omili sifatida qarashimiz lozim.

Suv muammosi ham bugungi kun Markaziy Osiyo mintaqasi millatlari hayotiga juda katta ta'sirga ega bo'lgan holat hisoblanadi. Chunki, bu resurslarga bo'lgan talabning doimiy ortib borayotganligi, bir tomondan aholi sonining tobora ko'payib borayotganligi va ular uchun yashash joyiga va oziqovqatga bo'lgan talabning ortib borishi bilan xarakterlansa, ikkinchi tomondan, suv resurslarining o'zgarmas darajadagi hajmi, cheklanganligi, mintaqada suvdan ehtiyotkorlik bilan foydalanish borasida zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilmasligi va hokazolar, bugungi kunda ushbu resurs sarfi va boshqaruvi borasida ular muvofiq harakatlarning yo'qligi ham davlatlar va millatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarga sabab bo'layotganligini qayd etishimiz lozim. Ammo, masalaning ikkinchi jihati borki, bu ham bo'lsa, yana axborot omili. Aynan turli yolg'on, noxolis, bir tomonlama axborotlarning keng tarqalishi, aholi o'rtasida u millat yoki bu millatga daxldorlikni sun'iy ravishda bo'rttirayotganligini ko'rib turibmiz va bu muammo ham o'ziga xos keskinlikni saqlab qolmoqda.

Tashqi ta'sir omili –ham Markaziy Osiyo xalqlari, ushbu mintaqada yashovchi millatlar uchun juda katta muammoli vaziyatga aylangan. Mintaqa, yuqorida keltirib o'tganimizdek, o'zining geosiyosiy va geostrategik ahamiyati jihatdan qudratli davlatlar, turli siyosiy kuchlar manfaatlari kesishadigan hudud sifatidagi maqomini saqlab qolmoqda. O'z ta'sirini kuchaytirish uchun mintaqada sun'iy ravishda, bevosita tashqi kuchlarning axborot, harbiy, siyosiy ssenariylari asosida millatlararo turli nizolar, kelishmovchiliklar vujudga keltirilishi singari fojiali holatlar ro'y berib turadi. Bu esa ko'proq axborot makonida amalga oshirilishi, o'zbeklar, qozoqlar, tojiklar, qirg'izlar, turkmanlar o'rtasida doimiy millatlararo nizolarni, mojarolarni keltirib chiqarishga urinishda, ushbu millatlarni bir-birlariga qarshi qayrab, gij-gijlash singari faoliyatlarida namoyon bo'lmoqda.

Buning ortida esa mintaqani o'zining ta'siri ostida saqlash va hukmronlik qilishni davom ettirish ilinjida bo'lgan davlatlar, kuchlar turganligi bugungi kunda hech bir ziyoliga sir emas.

Ammo, masalaning ayanchli tomoni shundaki, minglab yillar davomida o'zaro do'st, ahil-inoq bo'lib yashab kelgan millatlar o'rtasida bugungi kunda salbiy axborotlarning sun'iy ravishda yaratilishi va tarqatilishi tufayli bir muncha sovuq munosabatlar paydo bo'layotganligi va turli maishiy darajada namoyon bo'layotganligi kabilarni misol sifatida keltirishimiz mumkin. Bunday sovuq munosabat yoki o'zaro nizolarning ro'y berishida tashqi kuchlarning ta'siri borgan sari kengayib, Markaziy Osiyo xalqlari uchun fojiali tus olishi ehtimolini doimo anglab yetishimiz, ularga qarshi keng jamoatchilik yordamida turli axborot omilidan foydalangan holda samarali kurashishimiz shart bo'lib qolmoqda.

So'nggi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarning insoniyat hayotiga jadal kirib kelganligi, bu holat insonlar ongiga, madaniyatiga, dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatishning zamonaviy formatiga aylanganligini e'tirof etgan holda, Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari ham bu jarayonlardan chetda qolmayotganligini, balki, turli hiylalarga, ma'lum bir maqsadlarga yo'naltirilgan, o'z "o'ljasi" uchun nihoyatda "jozibador" axborotlarning eng faol iste'molchilariga aylanib ulgurdi.

Aynan ushbu holatlar esa Markaziy Osiyoda beqarorlikdan manfaatdor, hukmronlik istagida davlatlar yoki kuchlar uchun o'ta qulay vaziyat sifatida foydalanilayotganligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ular tomonidan yaratilgan "ijod mahsuli"ning mevalari sifatida esa millatchilikka, ayirmachilikka asoslangan fikrlar, qarashlar, g'oyalar, targ'ibot-tashviqotlar, chaqiriqlar borgan sari ko'payib bormoqda va ba'zi holatlarda ular o'z "mevasini" berayotganligini ham ming afsuslar bilan qayd etishimiz lozim. Millatlar o'rtasida tarixda kuzatilmagan bir-birlariga nafrat, ko'rolmaslik, g'azab, shovinizm singari illatlarni keng yoyishga harakatlar tobora avj olayotganligini, ular turli shakllarda va sharoitlarda sodir bo'layotganligini ham unutmasligimiz lozim.

Bu jarayonlar "Facebook", "Odnoklasniki" singari ijtimoiy tarmoqlarda, "SyentrAziya" singari internet saytlarida tobora ildiz otayotganligini, millatlar orasiga nizo solish va ularni kuchaytirishga qaratilgan ochiqcha sun'iy chaqiriqlar borgan sari ko'payib borayotganligini, bunday salbiy holatlarning oldini olish yoki bartaraf etish uchun esa mintaqada istiqomat qiluvchi millatlar jamoatchiligi tomonidan e'tibor va tashabbusning yetarli bo'lmayapti yoki mutaxassislar tomonidan hanuzgacha jiddiy qabul qilinmayapti.

Garchi, davlatlar miqyosida bu holatlarga barham berilganligiga, qonunlar yordamida bunday tashviqotlarga aslo yo'l qo'yilmasligiga qaramasdan xorijdan turib masalani jiddiylashtirayotgan, shuningdek, ulardan ilhom olib ichki nizolarni avj oldirishdan manfaatdor kuchlar ham doimiy harakatda ekanligini doimiy e'tibordan qochirmaslik, bugungi kunning eng muhim talabiga aylandi.

Ming afsuslar bilan qayd etishimiz lozim bo'lgan holatlardan yana biri shuki, Markaziy Osiyodan 150 yillardan beri yashab kelayotgan, barcha davlatlarning tenghuquqli millatlari qatorida bo'lgan rus yoki boshqa yevropa millatlari bilan mahalliy aholi o'rtasiga nizo solish borasidagi "tashabbuslar" ham avj olmoqda.

Ularga nisbatan siyosiy diskriminatsiya sodir bo'layotganligi to'g'risidagi ko'plab noxolis va yolg'on xabarlar bong urilayotganligi, guyoki, rusiyzabon millatlarning huquqlari poymol qilinayotganligi to'g'risidagi sun'iy axborotlar maqsadli ravishda yaratilib, tarqatilayotganligi, bu esa jamoatchilik ongiga juda katta ta'sir ko'rsatayotganligini ham bugungi kunning realligiga aylandi.

Shuning uchun ham bugungi kunda millatlaro munosabatlarni do'stona ruhini davom ettirish, bu yo'lda vujudga kelaytgan muammolarni yechish, xavf-xatarlarni bartaraf etish uchun keskin va murosasiz kurash olib borish, axborot maydonida millarlararo do'stlikni, qarindoshlik va qardoshlikni, ahillikni keng targ'ib qilish nafaqat mintaqa davlatlarining siyosiy strategiyasiga, balki jamoatchilikning, ziyolilarning ham eng muhim faoliyat yo'nalishiga aylanishi lozim.

2.4 Professional siyosatshunoslarni tayyorlash va siyosiy fanlarning imijini yuksaltirish omili

Mamlakatimizning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi tobora jadallashib, Yangi O'zbekiston sifatida xalqaro hamjamiyat tomonidan imiji jadal yuksalayotgan davlat sifatida e'tirof etilayotganligi siyosatshunoslar oldiga ulkan vazifalarni qo'yishi tabiiy. Siyosiy fanlarda kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish, fuqarolik jamiyati, milliy davlatchilikning siyosiy asoslarini rivojlantirish sohasida kompleks tizimli tadqiqotlar olib borish, globallashtirish sharoitida davlatning ichki va tashqi siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, shu asosda ijtimoiy-siyosiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar va dasturlarni ishlab chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 yanvardagi «Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilingan edi.

Xo'sh, bu borada nimalar o'zgardi, nima yangiliklar ro'y berdi, mamlakat rahbari tomonidan qo'yilgan vazifalar ijrosi qanday ta'minlanmoqda? Dunyo siyosiy fanlari bilan integratsiyalashuv, fanning konseptual muammolarini tadqiq qilish va istiqbollarga doir yo'nalishlarni kengaytirish borasida yangidan-yangi izlanishlar amalga oshirildimi?

Bizga ma'lumki, dunyoda turli kuchlar o'rtasida qarama-qarshilik va ziddiyatlar kuchayib, jahon miqyosida resurslar uchun shafqatsiz kurashlar tobora ortib borayotganligi, milliy xavfsizlik va barqarorlikka nisbatan kutilmagan tahdidlarning vujudga kelayotganligi va eng asosiysi, bunday sharoitda jamiyat va davlat barqarorligini saqlash ehtiyoji boshqa fanlar qatorida O'zbekistonda siyosatshunoslikning rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Dunyo miqyosida insoniyat taraqqiyotini belgilashga xizmat qilayotgan, davlatlar, millatlar va xalqlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlarning rivojlanishini ta'minlab berayotgan siyosiy fanlar O'zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda siyosatshunoslikning fan sifatida shakllanganligi va ma'lum bir bosqichlarni bosib o'tganligiga chorak asrdan ko'proq vaqt o'tdi. O'tgan yillarda ko'plab siyosatshunoslar yetishib chiqqanligi, ularning turli davlat tuzilmalarida, organlari va boshqaruv bo'g'inlarida samarali faoliyat ko'rsatayotganligini alohida e'tirof etmoq lozim. Shuningdek, ularning ko'pchiligi oliy ta'lim dargohlarida, turli tahliliy tuzilmalar ham siyosiy baholash, ekspert fikrlarini ishlab chiqish, ma'lum bir siyosiy jarayonlarni tahlil va prognoz qilish kabi vazifalarda o'rni ham beqiyos bo'layotganligini qayd etish lozim. Bugungi kunga qadar O'zbekistonda siyosiy fanlar doktori, siyosiy fanlar nomzodi, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), siyosiy fanlar doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega bo'lgan ko'plab siyosatshunos olimlar faoliyat yuritayotganligini ta'kidlagan holda, ularning 35 millionli aholiga ega mamlakat uchun salmog'i hali ham kam ekanligini aytish joiz.

Aslida yangi O'zbekistonda siyosatshunoslikka, haqiqiy siyosatshunoslarga bo'lgan talab nihoyatda yuqori. Chunki, mamlakatda tobora jadallashib borayotgan demokratiyaning asl muvaffaqiyati ham siyosatshunoslarga, ular tomonidan amalga oshirilayotgan siyosiy tahlillar va tavsiyalarga har tomonlama bog'liq. Ayniqsa,

bugungi kun mamlakat siyosiy hayotida tobora roli ortib borayotgan fuqarolik jamiyati institutlarining siyosiy saviyasi va faolligini, kompetensiyasini yuksaltirishda ham siyosatshunoslarning o'rni nihoyatda muhim ekanligini, avvalo, jamiyat anglab yetmog'i lozim.

Lekin, gohida afsus bilan qayd etish lozimki, bugungi kunda O'zbekistonda siyosatshunoslik, umuman, siyosiy fanlar boshqa ko'plab fanlar qatori o'zini to'liq namoyon qila olmayotgani yo'q. Bu birinchi galda, davriy uzilish, ya'ni 2010 yillarda mamlakatda siyosatshunoslikning fan sifatida rivojlanishi to'xtatib qo'yilishi, ikkinchidan, bu borada haqiqiy mutaxassislar nisbatan munosabatning o'zgarganligi bilan bog'liq bo'lganligi hech birimizga sir emas.

Hozirgi kunda bunday tashkiliy muammolar bartaraf etilganligiga qaramasdan, siyosatshunoslikni fan sifatida dunyo darajasiga ko'tarildi, deya olmaymiz. Albatta, buning bir qator sabablari bo'lib, ularni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

Birinchidan, mamlakatda siyosiy fan namoyandalarining xalqaro miqyosga chiqa olmayotganligi, AQSH, Yevropa singari siyosatshunoslik fani taraqqiy etgan mamlakatlar bilan munosabatlar, ilmiy almashinuvlar darajasining nihoyatda pastligi, bu esa fanning ma'lum darajada biqlikka duch kelganligi bilan ham izohlanadi. Shuningdek, buning asosiy sabablaridan biri sifatida olimlarning aksariyat qismi xorijiy tillarni bilmasligi, bu esa dunyoning turli mamlakatlari universitetlari yoki ekspert guruhlari ichida ma'ruzalar bilan ishtirok eta olmasligi kabilarga ham ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, siyosiy fanlar, umuman, siyosatshunoslikning taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, shuningdek, uning turg'unligini ta'minlayotgan yana bir omil, siyosatshunos kadrlarni tayyorlash, ularga zamonaviy talablar asosida ta'lim berish, malakasini oshirish, tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan o'quv jarayonlarini yo'lga qo'yish, darsliklar va qo'llanmalar bilan ta'minlash muammolaridir. Hozirgi davrda siyosatshunos mutaxassislarini tayyorlaydigan deyarli barcha OTMlarda davlat tilidagi adabiyotlar bilan ta'minlash borasidagi muammolar dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Uchinchidan, mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlari, birinchi galda, siyosiy partiyalar va NNTlar uchun siyosatshunoslar suv va havodek zarur bo'lsa-da, ushbu partiyalar Markaziy Kengashlaridan tortib, hududiy tashkilotlariga qadar, umuman, siyosatga, siyosatshunoslikka aloqasi bo'lmagan mutaxassislar ishlayotganligi, oliy ta'lim muassasalarini bitirgan mutaxassislar esa ish topolmayotganligi ham bugungi kunning realligiga aylanganligini e'tirof etmog'imiz lozim.

To'rtinchidan, mutaxassislar tayyorlash, ayniqsa, ilmiy darajali pedagoglar tayyorlash masalasidagi muammolar haligacha saqlanib qolmoqda. Ma'lumki, mamlakatimizdagi ba'zi OTMlar qoshida Ilmiy darajalar beruvchi ixtisoslashgan ilmiy kengashlar mavjud. Ammo, ularda dissertatsiya himoya qilayotgan aksariyat olimlar yoki da'vogarlarining asl mutaxassisligi umuman boshqa soha ekanligi (ma'naviyat, huquq, falsafa, pedagogika, jismoniy madaniyat, filologiya, jurnalistika, hattoki, matematika va fizika), lekin dissertatsiya himoya qilishni oson

fan sohasi bu siyosatshunoslik ekanligi deb hisoblashi fan taraqqiyotiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Boshqa fanlar sohasidan himoya qila olmagan bunday tadqiqotchilar guruhi esa o'z ixtisosligi bo'yicha omadi chopmaganligi yoki siyosatshunoslikka «o'ta qiziqishi» tufayli ham imkon qadar siyosiy fanlar sohasida «yetuk olim» bo'lishga intilayotganligidir. Afsuski, bu holat eng ko'p kuzatilayotgan muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Beshinchidan, mamlakatning xalqaro maydondagi imijini yuksaltirish, xalqaro munosabatlar va siyosiy tahlil singari strategik vazifalarda siyosatshunoslarning o'rni va roli nihoyatda pastligi, ularga bo'lgan talab, aniqrog'i, vazifalar yo'qligi, davlat va jamiyat boshqaruvi hayotida ularning ishtiroki sezilmayotganligi ham fan taraqqiyoti oldida turgan muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shuningdek, mamlakat parlamentidagi deputatlar ichida, davlat va jamiyat boshqaruv sohasida ham siyosatshunoslar hissasining juda kamligi soha mutaxassislarining begonalashuviga sabab bo'lmoqda. Eng og'ir masalalardan biri sifatida esa siyosatshunoslar, siyosiy fan sohasidagi mutaxassislarning faqatgina ta'lim sohasida ishlay olish imkoniyatigina mavjudligidir. Zero, siyosatshunos mutaxassislar davlat boshqaruvi, u bilan bog'liq qarorlar qabul qilinishi, mamlakatning rivojlanish strategiyasini belgilash bilan bog'liq sohalar, xavfsizlik tizimi, geosiyosiy mavqeini yuksaltirish va mamlakatning imijini yuksaltirish singari vazifalarda ishlashini ta'minlash davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri ekanligini ham unutmasligimiz lozim.

Ko'rinib turibdiki, bugungi kunda globallashuv jarayonlarining keskin tus olayotganligi, mintaqalar, davlatlar va xalqlar hayotiga nisbatan turli tahdidlar ortib borayotgan sharoitda inson siyosiy ongini tarbiyalash, uning ruhiyatini boyitish va keskin raqobat zamon, shiddat bilan o'zgarayotgan hayot bizning oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan, o'ta muhim va dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning inauguratsiya marosimida so'zlagan nutqida ta'kidlaganidek, «Mana shunday murakkab va qaltis vaziyatda barchamiz tinch va osoyishta hayotimizni asrash, milliy mustaqilligimizni mustahkamlash uchun yanada jipslashib, hushyor va ogoh bo'lib, dadil va qat'iy harakat qilishimiz zarur».

Yaqin yillarda siyosatshunoslik fanining imijini yuksaltirish, uning dunyo ilm-fani bilan integratsiyalashuvini ta'minlash, yetuk siyosatshunos mutaxassislarni tayyorlash va ularni ijtimoiy-siyosiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar va dasturlarni ishlab chiqishga jalb qilish Yangi O'zbekiston oldida turgan eng muhim vazifalardan biri sifatida qolmoqda.

2.5 Gumanitar fanlarni rivojlantirishning dolzarb muammolari va ularning mamlakat imidji tizimidagi o‘rni

O‘zbekiston jadal rivojlanaётgan va jahon hamjamiyati bilan chuqur integratsiyalashib boraётgan davlat sifatida so‘nggi besh yilliklarda misli ko‘rilmagan o‘zgarishlarni, islohotlarni boshdan kechirdi. Xalqaro hamjamiyat tomonidan Yangi O‘zbekiston sifatida e‘tirof etilmoqda va bu holat uning xalqaro nufuziga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Mamlakatda ta‘lim va fan tizimi ham shunga monand rivojlanishi bilan bir qatorda, gumanitar fanlarni rivojlantirishga, ushbu sohada oliy pedagog kadrlar tayèrlashga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Globallashuv sharoitida, mafkuraviy, sièsiy, madaniy tahdidlarning ortib borishi sharoitida gumanitar fanlar o‘rni va roli, ayniqsa, jamiyat barqarorligi tizimidagi ahamiyati nihoyatda beqiès ekanligidan kelib chiqqan holda, bu borada ham katta islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ma‘lumki, dunèda turli kuchlar o‘rtasida qarama-qarshilik va ziddiyatlar kuchayib, jahon miqèsida resurslar uchun shafqatsiz kurashlar, ziddiyatlar tobora ortib boraётganligi, xavfsizlik va barqarorlikka nisbatan kutilmagan tahdidlarning vujudga kelaётganligi va eng asosiysi, bunday sharoitda jamiyat va davlat barqarorligini saqlash ehtièji boshqa fanlar qatorida O‘zbekistonda gumanitar fanlarning ham kuchayishini, taraqqiy etishini taqazo etmoqda.

Dunè miqèsida insoniyat taraqqiètini belgilashga xizmat qilaётgan, davlatlar, millatlar va xalqlar o‘rtasidagi sièsiy munosabatlarning rivojlanishini ta‘minlab beraётgan gumanitar fanlar O‘zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi va davlatimiz bu borada yetarlicha tajribaga ega. O‘zbekiston mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, mafkuraviy, ma‘naviy masalalarga keng e‘tibor qaratganligi natijasida jamiyatda katta xavflar kuzatilmaganligini ham e‘tibordan qochirmaslik lozim.

O‘tgan 30 yillik vaqt mobaynida mamlakatda ko‘p sonli faylasuflar, sosiologlar, psixologlar, sièsatshunoslar, yuristlar, iqtisodchilar yetishib chiqqanligi, ularning turli davlat tuzilmalarida va organlarida ishlab kelaётganligi, aholining sièsiy va ijtimoiy ongi yuksalishiga katta ta‘sir ko‘rsataётganligini ham alohida e‘tirof etmoq lozim. Shuningdek, gumanitar fanlar vakillarining ko‘pchiligi oliy ta‘lim tizimida, turli tahliliy tuzilmalarda, davlat va jamiyat boshqaruvi bilan bog‘liq mas‘uliyatli idoralarda faoliyat yuritaётganligini alohida qayd etish joiz. Bugungi kunga qadar mamlakatimizda gumanitar fanlar sohasida umumiy hisobda mingdan ortiq fan doktorlari va nomzodlari, PhD falsafa doktorlari, DSc fan doktorlari mamlakatning ijtimoiy, madaniy va ma‘rifiy taraqqièti uchun salmoqli mehnat qilmoqda.

Mamlakatda inson huquq va erkinliklari ta‘minlanishi, demokratik islohotlarning tobora jadallashib borishi bilan bog‘liq bo‘lib, xohlaymizmi èki yo‘qmi – bu o‘z navbatida gumanitar tafakkurning muvaffaqiyatiga har tomonlama bog‘liqdir. Ayniqsa, bugungi kun mamlakat sièsiy haètida tobora roli ortib boraётgan fuqarolik jamiyati institutlarining sièsiy saviyasi va faolligini, kompetensiyasini

yuksaltirishda ham gumanitar fan vakillari, namoëndalarining o'zni nihoyatda beqièsdir.

Ammo, bu sohani kamchiliklardan butunlay xoli deyishimiz ham bir muncha murakkab. Chunki, uning fan sifatida jahon ilm-fani bilan raqobatlashuvi uchun hali oldinda ko'plab dolzarb muammolar saqlanib qolmoqda. Boshqa fanlar tomonidan yaratiladigan moddiy èki natural qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarilmasligi èki ularni tijoratlashtirish imkoni pastligi natijasida gumanitar fanlar asosan davlat tomonidan moliyalashtirilishigagina bog'liq bo'lib qolaètganligi ham aslida juda katta muammo ekanligini qayd etmoq lozim.

Shuningdek, gumanitar fanlarning xalqaro miqèsga chiqa olmaètganligi, AQSH, Yevropa singari mazkur fan sohalari taraqqiy etgan mamlakatlar bilan munosabatlarning, ilmiy almashinuvlar darajasining nihoyatda pastligi ham bugungi kun gumanitar fanlari oldidagi asosiy muamolardan biri bo'lib qolaètganligini qayd etish joiz. Bunga asosiy sabablaridan biri sifatida olimlarning aksariyat qismi xorijiy tillarni bilmasligi, bu esa dunèning turli mamlakatlari universitetlari èki ekspert guruhlari ichida ma'ruzalar bilan ishtirok eta olmasligi va hokazolar ham ta'sir ko'rsatadi.

Muhim muammolar ichida gumanitar fanlarning taraqqiètiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, shuningdek, uning turg'unligini ta'minlaètgan yana bir omil, bu borada kadrlarni tayèrlash, ularga zamonaviy talablar asosida ta'lim berish, malakasini oshirish, ularda tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan o'quv jaraènarini yo'lga qo'yish, darsliklar va qo'llanmalar bilan ta'minlash muammolaridir. Bugungi kunda gumanitar fanlar mutaxassislarini tayèrlaydigan deyarli barcha OTMlarda davlat tilidagi zamonaviy adabiètlar bilan ta'minlash borasidagi muammolar mavjudligini ham tan olish lozim.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari, birinchi galda, sièsiy partiyalar, NNTlar va hokazolar uchun gumanitar fanlar sohasidagi mutaxassislar suv va havodek zarur bo'lsada, ularda ba'zan texnik èki aniq fanlar sohasi vakillari ishlaètganligini, oliy ta'lim muassasalarini bitirgan mutaxassislar esa ish topolmaètganligi ham bugungi kunning realligiga aylanganligini e'tirof etmog'imiz mumkin.

Gumanitar fanlar sohasida mutaxassislar tayèrlash, ayniqsa, ilmiy darajali pedagoglar tayèrlash masalasidagi muammolar haligacha saqlanib qolmoqda. Ma'lumki, mamlakatimizdagi ba'zi OTMlar qoshida Ilmiy darajalar beruvchi ixtisoslashgan ilmiy kengashlar mavjud. Ammo, ularda dissertatsiya himoya qilaètgan aksariyat olimlarning èki da'vogarlarining bazaviy ixtisosligi ba'zan boshqa soha vakillaridan iborat ekanligi, bu esa gumanitar fanlar taraqqiètiga salbiy ta'sir ko'rsataètganligi ham namoèn bo'lmoqda. Boshqa fanlar sohasidan himoya qila olmagan bunday tadqiqotchilar esa o'z ixtisosligi bo'yicha omadi chopmaganligi tufayli ham imkon qadar gumanitar intilaètganligini ta'kidlamoq lozim.

Shular qatorida, mamlakatning xalqaro maydondagi imidjini yuksaltirish, xalqaro munosabatlar va sièsiy tahlil singari strategik vazifalarda gumanitar fanlarning o'zni va roli nihoyatda pastligi, ularga bo'lgan talab, aniqrog'i, vazifalar

yoʻqligi, davlat va jamiyat boshqaruvi haʼtida ularning ishtiroki sezilmaʼtganligi ham fan taraqqiʼi oldida turgan muammolardan biri boʻlib qolmoqda.

Koʻrinib turibdiki, bugungi kunda globallashuv jaraʼnlarining keskin tus olaʼtganligi, mintaqalar, davlatlar va xalqlar haʼtiga nisbatan turli tahdidlarning ortib oraʼtgan sharoitida inson ongini tarbiyalash, uning ruhiyatini boyitish, va keskin raqobat zamoni, shiddat bilan oʻzgaraʼtgan haʼt bizning oldimizga kechiktirib boʻlmaydigan, oʻta muhim va dolzarb vazifalarni qoʻymoqda. Zero, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziʼyevning inauguratsiya marosimida soʻzlagan nutqida taʼkidlaganidek, —Mana shunday murakkab va qaltis vaziyatda barchamiz tinch va osoyishta haʼtimizni asrash, milliy mustaqilligimizni mustahkamlash uchun yanada jipslashib, hushʼr va ogoh boʻlib, dadil va qatʼiy harakat qilishimiz zarur. Bu borada siʼsatshunoslik fanining imidjini saqlash, uning dunʼ ilm-fani bilan integratsiyalashuvini taʼminlash, bu borada yetuk mutaxassislarni tayʼrlash va ularni davlatning ichki va tashqi siʼsatini shakllantirish va amalga oshirish, shu asosda ijtimoiy-siʼsiy islohotlarni chuqurlashtirish boʻyicha ilmiy asoslangan tavsiyalar va dasturlarni ishlab chiqish vazifalariga jalb qilish Yangi Oʻzbekiston oldida turgan eng muhim vazifalardan biri sifatida qolmoqda.

Adabiyotlar

1. Shavkat Mirziʼyev. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti etib qayta saylangan inauguratsiya marosimida soʻzlagan nutqi.<https://president.uz/uz/lists/view/4743>.
2. Bektash Berdiyev. Oʻzbekistonning xalqaro maydondagi imidjini yuksaltirishning siʼsiy jihatlari. Sbornik materialov mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii. 6 maya 2021 g. Prioritetы vneshney politiki Respubliki Uzbekistan v sovremennыx usloviyax: ekonomika, pravo, politika

2.6. Mamlakat ijobiy qiyofasini shakllantirish va xalqaro imidjini ilgari surishning dolzarb masalalari

Xalqaro siyosatda mamlakatning ijobiy imidjini qurish, dinamik va oqilona targ'ib qilish davlatning dolzarb va strategik vazifalari hisoblanadi. Uning tashqi va ichki jamoatchilikka maqsadli axborot, amaliy, targ'ibot, ma'rifiy, ilmiy usullar bilan ta'sir o'tkazish qobiliyati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev mamlakatimiz yutuqlari va ustuvorliklari haqida so'z yuritarkan, **“bugungi kunda butun dunyo bo'ylab raqobat qanchalik qattiqlashayotganini barchamiz ko'rib turibmiz. Bunday tez o'zgaruvchan raqobat sharoitida faqat zamonaviy ilm-fan va innovatsiyalar yutuqlarining keng joriy etilishi bizga ushbu qiyinchilikka munosib javob berishga imkon beradi. Ushbu strategik vazifa bizning faoliyatimizning ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda”** – deya alohida ta'kidlagan edi o'z chiqishlaridan birida. Shunday qilib, ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan mamlakat imidjini oshirish bo'yicha ishlarni chuqur o'rganish ham davlatimizning strategik vazifasidir.

Davlatning madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy, innovatsion siyosati bilan bir qatorda, mamlakat va uning fuqarolari manfaatlarini zarur va muvaffaqiyatli himoya qilish ham davlatning strategik rivojlanishi sharti muhim tarkibiy qismi, usuli sifatida maydonga chiqmoqda, xavfsizligining shartlaridan biriga aylanmoqda. Bugungi kunda globallashtirish jarayonlari barcha davlatlarni ham mamlakat ichida va ham xorijda o'zlarining ijobiy imidjini yaratish, rivojlantirish va targ'ib qilish bilan shug'ullanishga majbur qilmoqda. Ommaviy diplomatiya insoniyatga hamroh bo'lib, uning evolyutsiyasining dastlabki qadamlaridan biridir.

O'zbekistonda ushbu vazifalarni hal etish uchun xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda turli davlat tashkilotlari, idoralar, jamoat birlashmalari, siyosiy institutlar tomonidan xalqaro darajadagi ko'plab konferensiyalar, seminarlar, simpoziumlar, qabullar va turli tadbirlar maqsadli tashkil etilib, o'tkazilib kelinmoqda va bunday faoliyat muhim va samarali vosita ekanligini anglab, ko'plab resurslar sarflandi. Jahon sahnasida milliy, davlat manfaatlarini himoya qilish. Ular, birinchi navbatda, mamlakatning obro'si va imidjini oshirish uchun kerak, shuningdek, xalqning ichki konsolidatsiyasi, har bir fuqaroning milliy g'ururini oshirish, tashqi investitsiyalar va kapitalni jalb qilish, uning dunyodagi ta'sirini kuchaytirish va boshqalar nuqtai nazaridan bebahodir.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning fikricha, "biz amalga oshirayotgan islohotlar xalqaro hamjamiyat tomonidan munosib baholanmoqda. Xususan, dunyodagi nufuzli nashrlardan biri – “iqtisodchi” jurnali O'zbekistonni 2019 yilda islohotlar eng tez sur'atlar bilan amalga oshirilgan “yil mamlakati” deb tan oldi. O'ylaymanki, siz men bilan rozi bo'lasiz, bunday baho bizni mag'rurlik hissi bilan to'ldiradi, yanada kuch beradi va yangi cho'qqilarni zabt etishga ilhomlantiradi”. Buning uchun ilg'or siyosiy va PR texnologiyalari, davlatning “qulay qiyofasini” targ'ib qilish va yaratish bilan shug'ullanadigan tegishli mutaxassislar, imidjmeykerlar, olimlar, davlat strategiyasi va, albatta, zarur moddiy va boshqa resurslar kerak. Ammo davlat miqyosidagi bunday ishdagi eng muhim

narsa, birinchi navbatda, inson resurslari, fuqarolik institutlari va ularning mavqei tayyor bo'lishi kerak.

Shunday qilib, savol tug'iladi, ko'p yillik mustaqil irivojlanish davomida biz tegishli tuzilmalar va madaniyatni yaratishga muvaffaq bo'ldikmi? Xuddi shu vazifalarni amalga oshirish uchun katta resurslarga ega bo'lgan ko'plab mamlakatlardan orqada qolmaymizmi? Bizning amaldorlar, davlat organlari va institutlari, huquqiy bazasi, ommaviy axborot vositalari, xalqimiz mamlakatimizning ijobiy imidjini yaratishga tayyormi? Ushbu savollarga javob topish va global miqyosda xalqaro obro'-e'tiborni oshirish va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish bizning dolzarb vazifalarimiz bo'lib qolmoqda.

Yo'qoridagi maqsadlarga erishish uchun oldimizda turgan muhim vazifalar nima? Biz ularni navbat bilan ro'yxatlaymiz:

Birinchidan, PR mutaxassislari tomonidan mamlakatning ijobiy imidjini targ'ib qilish metodologiyasini ishlab chiqish, muayyan vaqt oralig'ida qaysi omillar va ko'rsatkichlar mamlakatimizga bo'lgan munosabatning kerakli ta'siriga olib kelishi mumkinligi asosida chuqur tadqiqotlar o'tkazish kerak. Shu bilan birga, bunday strategiyaga mahalliy va xorijiy siyosatshunoslar, sotsiologlar, faylasuflar, san'atshunoslar, yozuvchilar, jurnalistlarni davlat ahamiyatiga ega bo'lgan keng jalb qilish. Hatto olimlar, ziyolilar, ishbilarmonlar, sayyohlik kompaniyalari va madaniy muassasalar va boshqalar o'rtasida so'rov o'tkazish orqali jahon hamjamiyatidan xalqaro darajadagi ijobiy baholarni olish uchun ishchi guruh tuzishimiz mumkin;

Ikkinchidan, chet elda mamlakatimizning idrokini yaxshilash uchun ijtimoiy tarmoqlar, turli xil axborot kanallari, bloggerlar va boshqalar yordamida mamlakatning tashqi siyosiy axborot siyosatini bir necha bor kuchaytirish kerak. So'nggi yillarda jahon hamjamiyati nazarida yangi O'zbekistonning imidji jadal o'zgarib bormoqda. Uning evolyutsiyasi "totalitar tizim" dan jahon hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan majburiy demokratiyaga, "yosh demokratiya va bozor iqtisodiyoti" obraziga qadar ancha uzoq yo'lni bosib o'tdi. Ushbu islohotlar va o'zgarishlar ko'plab ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy sharhlar bilan aks ettirilishi kerak. Va bunday yutuqlarga erishish uchun, bizning fikrimizcha, ushbu faoliyat sohasidagi axborot-tahliliy ishlar masalalariga yondashuvlarni tubdan o'zgartirish kerak.

Uchinchidan, mamlakatning madaniy salohiyatidan imidj strategiyasi vositasi sifatida samarali foydalanish muhimdir. Ushbu manbadan mohirona va oqilona foydalanish uning ichki rivojlanishiga va xalqaro munosabatlar tizimidagi o'zini jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yashirin imkoniyatlarni faollashtirishga imkon beradi. Ammo, afsuski, biz faqat chet elda madaniy kunlar va festivallarni o'tkazish bilan cheklanamiz.

Barchamizga ma'lumki, bizning boy madaniyatimiz va tariximiz butun dunyoda katta qiziqish uyg'otadi. Sayyohlik salohiyati yuqori bo'lgan ba'zi mamlakatlarda aholi mamlakatimiz haqida bilishmaydi. Bu shuni anglatadiki, mamlakatimiz hali ham juda katta auditoriya bilan tanishish uchun yangi imkoniyatlarga ega, chunki biz ko'pchilik uchun noma'lum orol bo'lib qolamiz.

Ehtimol, yuqoridagi omillarga asoslanib, biz chet elda maktablar, madaniy markazlar, teatrlar, sayyohlik guruhlarini ochishimiz va ularning faoliyatini yanada targ'ib qilish uchun faollashtirishimiz kerak.

To'rtinchidan, yuqorida aytib o'tganimizdek, davlat organlari amaldorlari, mahalliy davlat xizmatchilari mamlakatning xalqaro imidjini oshirish bo'yicha o'zlarining kasbiy faoliyati va faoliyatiga mos kelishi va hissa qo'shishi kerak. Afsuski, bugungi kunda davlat hokimiyati va hokimiyat munosabatlarining barcha darajalarida juda orqada qolgan vaziyat kuzatilmoqda.

Ularning ba'zilar o'zlarining qobiliyatsizligi yoki befarqligi bilan ba'zan nafaqat murosaga kelishadi, balki jahon hamjamiyati oldida mamlakatni butunlay obro'sizlantiradilar. Bunday holatlar ko'pincha davlat va mintaqaviy boshqaruv sohasida, aholi bilan munosabatlarda, ommaviy axborot vositalarining nutqlarida va ularning axloqiy parchalanishlari ro'y beradi. Vaziyatning hozirgi holatini to'g'rilash va bunday noo'rin vaziyatlarning oldini olish uchun birinchi navbatda boshqaruv kadrlarini tayyorlashga, qayta tayyorlashga e'tiborni kuchaytirish, tizimli kadrlar ilg'or etakchilik ko'nikmalari va malakalari, tashkiliy fazilatlar, notiqlik bilan ta'minlanadi.

Chunki samarali davlat boshqaruvi va korrupsiya darajasi dunyo davlatlari reytingini tuzish metodologiyasida muhim ko'rsatkichlardir. Xuddi shu reytinglar davlatlar o'zlarining iqtisodiy va inson resurslarini boshqarish orqali biznesni samarali rivojlantirish va iqtisodiy o'sish uchun sharoit yaratishga qodirligini hisobga oladi. Reytingni tuzishda rasmiy statistika va ekspert so'rovlari hisobga olinadi.

Beshinchidan, jahon jamoatchiligi ko'p hollarda, O'zbekiston haqida turli ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa kanallardan ma'lumot oladi. Hech kimga sir emaski, turli xil talqinlar xorijiy manbalar tomonidan O'zbekiston, mamlakatimizda ro'y berayotgan siyosiy o'zgarishlar va islohotlar to'g'risida etkaziladi va ular to'g'ridan-to'g'ri xorijiy auditoriyaning jamoatchilik fikrini shakllantiradi. Bu mamlakatning xalqaro imidjining yomonlashuvining asosiy sabablari bo'lgan axborotni tarqatishning obyektiv va asossiz oqimlaridir.

Ushbu salbiy hodisalarni bartaraf etish uchun biz tegishli fuqarolik jamiyati institutlari, erkin matbuot, inson huquqlari institutlari va boshqalar yordamida O'zbekiston haqida ijobiy taassurot qoldirishimiz muhim. Hozirgi vaqtda davlatchilik va institutsional islohotlarimiz, o'zgarishlarimiz chet elda alohida hurmatga sazovor yoki qo'llab-quvvatlanmoqda va biz ham xuddi shunday vaziyatdan foydalanishimiz kerak.

Matbuot erkinligi haqida gapirganda shuni ta'kidlash kerakki, har yili "Chegarasiz muxbirlar" Xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan mamlakatlar reytingi nashr etiladi. Tashkilot mutaxassislari ma'lum bir mamlakatda ommaviy axborot vositalarining erkinligi holati to'g'risida 43 ta asosiy ko'rsatkichlar, shu jumladan jurnalistlarga (qotillik, qamoq, jismoniy zo'ravonlik va tahdidlar) va ommaviy axborot vositalariga nisbatan turli xil qonunbuzarliklar mavjudligi kabi mezonlar asosida xulosalar chiqaradilar. Asosiy muammo shundaki, bugungi kunda G'arb yoki butun dunyo bo'ylab jamoatchilik fikri O'zbekistonning obrazini zarur to'liqlik

va xolislik bilan rivojlantirmagan va asosan mamlakatimiz haqidagi g'oyalar G'arb aholisi orasida juda lam, ko'pincha qarama-qarshi bo'lib, ba'zida fikrlar to'liq rasmiylashtirilmagan. Ular G'arb targ'ibotining maqsadiga aylandilar, ular qashshoqlik, inson huquqlari sohasidagi qonunchilikning rivojlanmaganligi va boshqaruv tizimidagi qoloqlik kabi nozik va sezgir masalalarga e'tibor qaratmoqdalar.

G'arb aholisi, garchi O'zbekistonning afsonaviy shaharlari – Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqalarning buyukligi to'g'risida obyektiv tarixiy ma'lumotlarni maktabda olgan bo'lsa-da, g'arbdagi targ'ibot ularning mintaqamizga bo'lgan qiziqishini susaytirdi. Ushbu ulkan salbiy axborot oqimlarini bartaraf etish O'zbekistonni ular uchun qayta ochishga imkon beradi. Bundan tashqari, yuqorida aytib o'tganimizdek, bugungi kunda dunyoda O'zbekistonga qiziqish unchalik katta emas. Mamlakat qanchalik kam qiziqish uyg'otsa, stereotiplar shunchalik kuchga ega bo'ladi va fikrlarni yaxshi tomonga o'zgartirmaydi.

Shuni unutmasligimiz kerakki, jahon o'yinchilarining global va geosiyosiy manfaatlari natijasida mamlakatimizga qarshi doimiy axborot urushi olib borilmoqda. Va bu omillar bizni zamonaviy dunyoda mamlakat xalqaro imidjini oshirish uchun samarali ishlaydigan tuzilmalarni yaratishga majbur qiladi. Agar biz mavjud to'siqlarni yoki muammolarni hal qila olmasak, siyosiy va huquqiy munosabatlarni yaxshilay olmaymiz.

III.BOB. O'ZBEKISTON XALQARO IMIDJINI YUKSALTIRISHNING SIYOSIY MUAMMOLARI

3.1. O'zbekiston - davlat hokimiyatidagi institusional o'zgarishlar va jadal demokratik yangilanishlar davri

2016-yilning ikkinchi yarmida mamlakat siyosiy hayoti tub o'zgarishlarni boshdan kechirganligi barchamizga ma'lum. Prezident Sh.Mirziyoyevning hokimiyatga kelishi bilan mamlakat siyosiy hayotida, hokimiyat tizimida, boshqaruvida, siyosiy modernizatsiyalashuvida butunlay yangi jarayonlar boshlandi. Bu jarayonlar jahon hamjamiyati bilan kengroq integratsiyalashishga, boshqaruv tizimida samaradorlikni yanada oshirishga, demokratik ruhni yanada boyitishga, xalqning ahvolini, qiyinchiliklarini ko'proq o'rgangan holda, siyosiy qarorlar qabul qilishga va yana ko'plab vazifalarni qamrab olishga asoslangan edi.

Uzoq yillar davomida mamlakat Bosh vaziri sifatida faoliyat yuritgan Sh.Mirziyoyev mamlakatni davlat boshqaruviga kelishi bilanoq, yillar davomida yechimini kutib turgan muammolarni hal qilish borasida ko'plab institusional o'zgarishlarni joriy qila boshladi. Siyosiy modernizatsiyaning mutlaqo yangi yo'nalishi sifatida boshlangan keyingi davrda jadallashgan demokratiya sharoiti, avvalo, fuqarolarning ruhiyatida demokratiyani qaror toptirish va davlat boshqaruv institutlarining faoliyatini butunlay yangicha isloh qilish masalalari kun tartibiga chiqdi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini o'z ichiga olgan, 2017-yilning 7-fevralida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi № PF-4947 son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni barcha islohotlar uchun muhim asos bo'ldi. Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo'nalishi:

- davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish singari eng ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Ushbu jarayonlarda:

Siyosiy islohotlarda samaradorlikni oshirishga qaratilgan yangi siyosiy tuzilmalar va institutlar tashkil qilindi. Masalan: Xalqning yillar davomida to'planib qolgan muammolarning ko'lamini aniqlash, ularga yechim topish uchun davlat hokimiyati organlarining yoppasiga safarbar qilinishini ta'minlash, respublika bo'yicha tumanlar, viloyatlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, tarmoqlar va sohalarning faoliyatini baholash uchun o'ta noyob yangi institut O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi va uning mintaqaviy bo'limlari tashkil qilindi va yo'lga qo'yildi. Bu o'ziga xos barometr sifatida tez orada o'zining samaradorligini namoyon qildi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, ortiqcha ma'muriy tartib taomillarni bartaraf etish, shuningdek, idoralararo elektron hamkorlikni rivojlantirish hisobiga davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirish, davlat xizmatlari yagona reyestrini shakllantirish, mazkur sohada davlat organlari va boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning innovatsion shakllari va uslublarini joriy etishni tashkil qilish, mazkur sohada qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va hokazolar maqsadida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida Davlat xizmatlari agentligi tashkil etildi.

Ijro hokimiyatining asosiy instituti hisoblangan Vazirlar Mahkamasi ham keng islohotlarni boshdan kechirdi, uning faoliyatida eng samarali mexanizmlar doimiy takomillashtirilmoqda. 2017-yil 27-noyabr kuni «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Prezident qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosarlari, hukumat apparati tarkibiy bo'linmalari rahbarlarining samarali va natijali ishini ta'minlash, ularning shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasi qayta shakllantirilib, yangi komplekslar va vazirlik tashkil etilgan edi.

Vazirlar Mahkamasi tuzilmasiga O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari – Investisiyalar, innovatsion rivojlantirish, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonlari faoliyatini muvofiqlashtirish, turizm masalalari kompleksi, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari – Ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport masalalari kompleksi rahbarlari lavozimlari kiritildi (Bu kompleks shu vaqtgacha bosh vazir tasarrufida bo'lgan Sog'liqni saqlash, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport masalalari axborot-tahlil departamenti hamda Madaniyat, san'at va turizmni rivojlantirish masalalari axborot-tahlil departamenti o'rnida yuzaga kelgan). Umuman olganda qisqa vaqt mobaynida Vazirlar Mahkamasi faoliyatini isloh qilishga qaratilgan ko'plab hujjatlar qabul qilindi.

Hukumat faoliyati uchun birinchi marta xorijlik mutaxassis jalb qilindi va uning maqomi Bosh vazir o'rinbosari sifatida belgilandi. Bundan tashqari mamlakatimiz rahbari tomonidan "Biz yangi yildan boshlab siyosiy hayotimizda yana bir amaliyotni joriy etamiz. Kirib kelayotgan yilning bosh hujjati bo'lgan Murojaatnomada bayon qilingan har bir ustuvor yo'nalish bo'yicha Bosh vazir va hukumat a'zolari amalga oshirilgan ishlar haqida Senat va Qonunchilik palatasi oldida har chorakda hisobot berib boradi. Bu jarayon ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritilishi lozim".

Islohotlarning su'ratiga mos ravishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni ham o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Mamlakat rahbarining 2018-yil 26-avgustdagi PF-5519 sonli «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Ko'zlangan maqsad, davlat rahbarining konstitutsiyaviy vakolatlarini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish, davlat hokimiyati organlarining o'zaro

kelishib ishlashi va munosabatlari, xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratish va farovonligini oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan jiddiy nazorat o'rnatishdir. Shuningdek, Administratsiya tarkibiga rahbar, shuningdek, tegishli yo'nalishlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tuzilmalari faoliyatini boshqaruvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi lavozimlari joriy etildi. Administratsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shakllantiriladigan davlat organi hisoblanadi va bevosita unga hisob berishi belgilandi. U Prezidentning axborot-tahlil, tashkiliy-nazorat faoliyati nazoratini ta'minlaydi. Davlat rahbari Administratsiya faoliyatini boshqaradi, Administratsiya rahbari esa, Administratsiya tuzilmalari o'zaro uyg'un va muvofiq faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tarkibida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi – Spichrayter lavozimi joriy etildi. U O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutq va ma'ruzalarini tayyorlash vazifalarini bajarishi belgilandi.

Yana bir siyosiy o'zgarish bu - mahalliy hokimliklarning mas'uliyati va vakolatlarining kengaytirilishi bilan bog'liq jarayonlar bo'lib, oldingi bosqichdagi amalga oshirilgan ma'muriy islohotlar natijasida davlat hokimiyati boshqaruv organlari soni keskin qisqartirilgan edi. Yangi siyosiy o'zgarishlarning boshlanishi natijasida, hokimiyatning boshqaruv tuzilmalariga keng o'zgarishlar joriy qilindi. Hokim o'rinbosarlarining maqomi o'zgartirildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentyabrdagi PF-5185-son farmoni e'lon qilindi.

Jadal siyosiy o'zgarishlar qatoridan islohotlarning ma'naviy asoslari ham chetda qolmadi. Dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etardi. Xususan, oila, mahalla va ta'lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi, chekka hududlar va mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan maqsadli g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning yuzaki tarzda olib borilayotgani, **jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terroristik harakatlarga adashib qo'shib qolish, milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik, erta turmush qurish, oilaviy ajralishlar** kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot ishlarining aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotgani bu masalalarga jiddiy e'tiborni talab etardi. Shu va boshqa omillarni hisobga olgan holda, 2017 yilning 28 iyulida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3160 son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi xamda Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazini birlashtirish yo'li bilan ularning negizida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazitashkil qilindi.

Mamlakat rahbari tomonidan olib borilgan yangi siyosiy yo'nalishning yana bir xususiyati – bu milliy xavfsizlik tizimining vakolatlari demokratik o'zgarishlarga mos ravishda isloh qilinganligidir. Ko'plab xorijiy ekspertlar tomonidan davlat

ichidagi davlat sifatida e'tirof etilgan Milliy xavfsizlik xizmati oldingi siyosiy tuzum davrida juda katta vakolatlarga ega bo'lganligi, siyosiy rivojlanish uchun juda katta to'siq bo'lganligi, muxolifat fikrini butunlay qatag'onchilik siyosatini olib borganligi, mahalliy hokimiyatdan tortib, iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy sohalargacha barchasining ustidan kuchli nazorat o'rnatganligi va oxir oqibat juda katta korrupsiya o'chog'iga aylanib qolganligi mamlakatimiz rahbari tomonidan ko'p bora ta'kidlangan edi. Shu munosabat bilan tashkilotning vakolatlari va maqomi butunlay o'zgartirildi va mamlakat rahbari «O'zbekiston Respublikasi davlat xavfsizligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonni imzoladi. Shular qatorida 2018-yil 15-mart kuni Senat tomonidan bilan bir vaqtda «O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida» Qonuni ma'qullandi.

O'zbekistonda siyosiy modernizatsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida mazkur bobga tatbiqan quyidagi xulosalar shakllandi:

O'zbekistonda siyosiy modernizatsiyalashuvning murakkab jarayonlari mustaqillikning dastlabki yillarida vujudga kelgan muammolar va ixtiloflarda namoyon bo'lgan edi. Sobiq SSSR tizimini qo'msash, korrupsiya va jinoyatchilik, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik, milliy mafkura, dinning siyosiylashuvi, nodavlat notijorat tashkilotlarining siyosiylashuvi, siyosiy partiyalar va harakatlarning nafaolligi muammolari, zamonaviy kadrlar bilan ta'minlash muammosi, siyosiy madaniyat muammolari, oav faoliyati zamon talablariga javob bermasligi singari masalalar mamlakat siyosiy modernizatsiyalashuviga bugungi kunga qadar o'zining ta'sirini ko'rsatayotganligi, O'zbekistonda siyosiy modernizatsiyaning dinamikasi va yo'nalishlarini belgilashda ushbu omillar hisobga olinayotganligi, ushbu muammolar va ixtiloflarni bartaraf etish yo'lida ko'plab siyosiy o'zgarishlar talab etilishi doimo diqqat e'tiborni talab etmoqda.

Siyosiy modernizatsiyaning yangi bosqichi – davlat hokimiyatidagi institusional o'zgarishlar va jadallashgan demokratiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan siyosatning mazmun mohiyatini tashkil etadi va endigi asosiy masala, boshlangan jadal demokratik islohotlarning samaradorligini va barqarorligini ta'minlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi № PF-4947 son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. <https://lex.uz/docs/3107036>

2.O'zbekistonRespublikasiPrezidentiShavkatMirziyoyevningOliy MajlisgaMurojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/2228>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparati tuzilmasini takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3825-son qarori, 2018 yil 18 dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4065-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi

«O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4101-son qarori)

3.2 Professional boshqaruv kadrlar tayyorlash: muammolar va vazifalar

Bugungi kunda mamlakatimiz siyosiy hayotida yuz berayotgan jadal o‘zgarishlarning asosini tashkil qiladigan boshqaruv kadrlarini tanlash, tayyorlash va tayinlash tizimini butunlay isloh qilish masalalari hech qachon o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydigan masala hisoblanadi. Zero, har qanday islohotning, taraqqiyotning yetakchi kuchi (lokomotivi) bu boshqaruv kadrlari ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Bundan to‘rt yil oldin Prezidentlik lavozimiga kirishishidagi tantanali marosimga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Asosiy vazifa – bu yuqori kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega, puxta o‘ylangan, har tomonlama to‘g‘ri qarorlar qabul qila oladigan, belgilangan maqsadlarga erishadigan rahbarlar va mansabdor shaxslarning yangi tarkibini shakllantirishdan iborat”, deya ta’kidlagan edi. Savol tug‘ilishi tabiiy, nega u o‘sha vaqtda ham asosiy vazifa edi va hozir ham asosiy vazifa Davlatning, jamiyatning, shaxsning taqdiri, xalqning farovonligi, to‘qligi, davlat va siyosatdan roziligi, mamlakat taraqqiyoti, xavfsizligi va barqarorligi, avvalo, rahbar omiliga bog‘liq ekanligini qayta-qayta ta’kidlashimiz ortiqcha. Kuchli tafakkurga ega, adolatli va boshqaruvda samaradorlik ko‘rsata oladigan shijoat sohibi bo‘lgan, qobiliyatli, salohiyatli rahbar kadrlarni yetishtirish esa davlatdan kattadan-katta resurslarni va ma’lum bir davrni va, eng asosiysi, bu sohada oqilona siyosat olib borishni talab qiladi.

Bugungi kun dunyo taraqqiyotida o‘ta ilgarilab borayotgan davlatlardan ortda qolmaslik, u bilan yonma-yon yurish masalasi to‘g‘risini aytadigan bo‘lsak, xalqimizning, millatimizning orzusidir. Mamlakatimizning tabiiy resurslarga boy bo‘lishiga, iqlim jihatdan jannatmonand ekanligiga, taraqqiyot uchun, dunyoda munosib o‘ringa ega bo‘lish uchun barcha imkoniyatlarga ega ekanligiga qaramasdan tobora taraqqiy etib borayotgan davlatlardan anchayin ortda qolayapmiz va buni ochiqchasiga tan olishimiz lozim. Buning ko‘plab sabablari bo‘lsa-da, ularning ichida asosiysi bu – turli bo‘g‘inlardagi rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyati nihoyatda pastligi, boshqaruv va rahbarlik ilmini puxta egallamaganligi, ularni tanlash va tayinlash tizimi qoloqligi yoki milliy mentalitetimizdagi ba’zi jihatlarning ba’zi xususiyatlari ta’siri asosida lavozimlarga, mas’uliyatli ishlarga “tavsiya qilinishi” kabilardir. Davlat tomonidan ishlab chiqiladigan, juda katta umidlar bilan qaraladigan megaloyihalar barbod bo‘lishining asosiy sababi ham aynan rahbar kadrlarni tanlash va ular bajara olmaydigan vazifalarni yuklashdir. Afsuski, uchinchi darajali kadrlarga birinchi darajadagi vazifalar, birinchi darajadagi kadrlarga esa uchinchi darajadagi vazifalar yuklanayotganligi ham haqiqatdir. Bu masalalarini chuqur o‘rganmasak, tahlil qilmasak va xatolarni tuzatmasak,

dunyoning qoloq davlatlari safida o‘rnimiz “mustahkamlanib” boraveradi-boraveradi.

Demak, rahbarlarda boshqaruv salohiyatini rivojlantirish, donolarimizning ta‘biri bilan aytganda, “o‘zida bor” mukammal kadrlarni, avvalo, yetishtirish va ma‘lum bir sinovlardan so‘nggina, mas‘uliyatli lavozimlarga tayinlash masalasi davlatimizning strategik vazifasidir. To‘g‘ri, kadr tanlash masalasi juda murakkab jarayon va ulkan mas‘uliyat. Lekin, murakkabligi yoki qiyinligi uchun salohiyatli kadrlarni tanlash borasida xatolarga yo‘l qo‘yish, – bu millat va xalq uchun halokat hamdir.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning dunyo bilan integratsiyalashuvi va o‘z taraqqiyotida turli xalqaro reytinglarni va inson resurslarini rivojlantirish indikatorlarini joriy qilayotganligi e‘tirofqa loyiq masala. Lekin, bunda raqamlar emas, ushbu faoliyatning bevosita aks etadigan natijaga e‘tiborni qaratish muhim. Rahbarlarning nafaqat saviyasi, balki ishonib topshirilgan tarmoq yoki sohada yangilik qila olish salohiyati, tarmoqni rivojlantira olish qobiliyati, muammolarni hal qila olish borasidagi qisqa muddatli, o‘rta muddatli va uzoq muddatli strategik rejalar belgilashi va uni amalga oshira olishi asosiy mezon bo‘lmog‘i kerak.

Professional rahbar kadrlarni, salohiyatli boshqaruvchilarni tayyorlash va tanlash, ularni o‘z o‘rniga qo‘ya olish jarayoni mamlakat hayotining eng dolzarb masalasi ekan, bu borada doimiy o‘zgarishlar, doimiy yangiliklar va takomillashuv bo‘lishi kerak. Rahbar kadrlarni tanlashning eng oliy mezonlari, lavozimga tayinlashning tajribadan o‘tgan sinovlari qo‘llanilishigina orqali bu borada strategik burilishni, sakrashni ta‘minlash mumkin. Afsuski, bu borada katta yutuqlarni qo‘lga kiritdik, deb maqtan olmaymiz. Chunki, rahbar kadrlarni tanlash va tayinlash tizimi a‘lo darajada bo‘lgan-da edi, bugun xalqimiz umuman boshqacha yashayotgan, mamlakatimiz rivojlanish dinamikasining indikatorlari umuman boshqacha raqamlarni ko‘rsatib turgan bo‘lar edi.

To‘g‘ri, agar siyosatshunos sifatida o‘zgarishlarga baho beradigan bo‘lsak, hech ish qilinmayapti, deyishimiz ham adolatdan bo‘lmaydi. Deyarli butun bir o‘rta avlodning umriga teng bo‘lgan davrdagi “katta yutuq” sifatida” rahbar kadrlarni yetishtirishning sovet tizimidan butunlay voz kechganimiz bilangina maqtanishimiz mumkin.

Garchi, so‘nggi yillarda mamlakatimizning rivojlanishning tamomila yangi bosqichi, uchinchi Renessans davrini boshdan kechirayotganligi munosabati bilan aynan rahbar kadrlar tayyorlash, ularning boshqaruv, psixologik, ma‘naviy, siyosiy salohiyatini yuksaltirish va ularni doimiy monitoring qilib borish, davlat fuqarolik xizmatini, shu jumladan, nomzodlarni ochiq mustaqil tanlov orqali saralab olish, davlat fuqarolik xizmatchilarining ish samaradorligi va kompetensiyasini baholovchi mezonlarni, ularning malakasini oshirishga bo‘lgan talablarni belgilash borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda ham.

Bularga misol tariqasida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5139-sonli,

2017-yil 29-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5264-sonli, 2019-yil 3-oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-sonli farmonlarini, shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4472-son Qarori kabilarni misol sifatida keltirish mumkin. Ushbu hujjatlarda eng asosiy vazifalar qatorida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining (keyingi o‘rinlarda – Akademiya deb yuritiladi) eng asosiy vazifalari qatoriga:

- hozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarida ishlash uchun boshqaruv kadrlarining kasbiy tayyorgarligiga nisbatan qo‘yiladigan talablarga javob beradigan oliy kasb ta’limi dasturlari bo‘yicha davlat, xo‘jalik va jamiyat boshqaruvi sohasida boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

- davlat hokimiyati organlarida, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida hamda jamoat tashkilotlarida kadrlar bilan ta’minlanganlik holati va sifati bo‘yicha axborotliloy materiallar tayyorlash, ularning kadrlar zaxirasini shakllantirish, rahbar kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish va tayinlash, davlat va jamiyat boshqaruvining kadrlar salohiyati monitoringini tashkil etish uslubiyatlarini ishlab chiqish va hokazolar qo‘yilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi (keyingi o‘rinlarda

- Innovatsiya vazirligi deb yuritiladi) oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biri etib:

- davlat xizmatlari ko‘rsatishning tartib-taomillarini optimallashtirish va soddalashtirishni, davlat boshqaruvi organlari faoliyatining samaradorligini oshirishni ta’minlaydigan davlat boshqaruvining innovatsion shakllarini joriy etish kabilar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligiga (keyingi o‘rinlarda – Agentlik deb yuritiladi) yuklatilgan vazifalarning eng muhimlari sifatida esa:

- kadrlar malakasini muntazam oshirib borish, davlat fuqarolik xizmatchilarini toifalash va ularga malaka martabalari (darajalari) berish orqali xizmat karyerasining lavozim pog‘onalaridan bosqichma-bosqich o‘tishni nazarda tutuvchi davlat fuqarolik xizmatining «karyera modeli»ni joriy etish;

- nomzodning barcha fazilatlari va ustunliklarini, shu jumladan, uning ma’naviyaxloqiy va vatanparvarlik sifatlarini ob’ektiv baholash imkonini beradigan ochiq mustaqil saralab olish asosida davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish;

- davlat organi va tashkiloti darajasidan (respublika, viloyat, tuman va shahar), xodimning malaka martabasi (darajasi) va shaxsiy hissasidan kelib chiqqan holda ish haqini belgilashga nisbatan unifikatsiyalashtirilgan talablar o‘rnatilishini nazarda tutuvchi davlat fuqarolik xizmatchilari mehnatiga haq to‘lashning yagona tizimini joriy etish;

-milliy, respublika, tarmoq va hududiy darajalarda professional tayyorlangan samarali kadrlar zaxirasini shakllantirish, davlat fuqarolik xizmatiga eng malakali nomzodlarni saralab olish uchun xususiy bandlik agentliklarini faol jalb etish va zamonaviy autsorsing shakllaridan foydalanish va hokazolarni ko'rsatish mumkin. Davlat tomonidan taqdim qilingan bunday vakolatlar qanday tarzda amalga oshirilyapti, berilgan shunday katta ishonch va mas'uliyat qay darajada oqlanmoqda?—degan savollarga javobni esa kechiktirib bo'lmaydi va bu borada imkon qadar qisqa fikrlarimizni keltirib o'tsak.

2005-yilda Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi tarzida tashkil qilingan Akademiya tomonidan bugungi kunga qadar ko'psonli rahbar kadrlar tayyorlab berilganligini va ularning davlat va jamiyat boshqaruvining turli bo'g'in, tarmoq va sohalarida faoliyat yuritayotganligini, lekin yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, o'tgan 25 yil davomidagi natijasi kutilganidek yuqori bo'lmaganligini ta'kidlash lozim. Shuningdek, yetishtirilgan rahbar kadrlarning natijasini va samaradorligini baholash hanuzgacha mushkul bo'lib qolmoqda. Sababi, ushbu davrda akademiyada o'qigan va mamlakat taraqqiyotini ta'minlashga hissa qo'shayotgan rahbar kadrlar faoliyatidagi samaradorlikni baholashning aniq metodologiyasi va mezonlari shakllantirilmagan, ular kar'yerasing dinamikasi ilmiy muammo sifatida o'rganilmagan, muammolarning yechimi borasida aniq takliflar yoki tavsiyalar ishlab chiqilmagan yoki hisobga olinmagan. O'tgan davrda tayyorlangan, qayta tayyorlangan yoki malakasi oshirilgan rahbar kadrlar mamlakatimizni katta sakrashlar qilishga, jahon mamlakatlari bilan raqobat qila olishiga erishdilar, davlat va jamiyat boshqaruvida juda samarador boshqaruvni namoyon qilmoqdalar, deb ayta olmaymiz.

Buning asosiy sababi sifatida, Akademiyada ta'lim beradigan mutaxassislarning aksari fan doktorlari – professorlar, fan nomzodlari – dotsentlar ekanligi, ularning ham aksar qismi, davlat boshqaruvi, biznes boshqaruvi, jamiyat boshqaruvi sohasida umuman tajribasi yo'qligini ko'rsatishimiz mumkin. Bo'lajak rahbarlarga esa faqatgina fan sohasida shuhrat qozongan, yoki faqatgina auditoriyalarda ishlab, tajriba orttirganlar emas, balki davlat boshqaruvining turli bo'g'inlarida, biznes, tarmoq boshqaruvida ishlagan, bu borada ma'lum yutuqlarga erishgan, hayotiy va boshqaruv tajribasi katta, boshqarishning achchiq-chuchugini totgan mutaxassislar, chet el kompaniyalari menedjerlari ta'lim bermoqliklari maqsadga muvofiq. O'qiyotgan tinglovchilar faqatgina olimlarning ma'ruzalari, testlar yechish va hokazolar bilan cheklanib qolayotganligi tufayli, yuksak tafakkurga va boshqaruv salohiyatiga ega bo'lgan yetakchi rahbarlar kam yetishib chiqayotganligining asosiy sabablaridan biri sifatida ko'rsatish lozim.

Yana bir tashkilot, ya'ni ne-ne orzu umidlar bilan, mamlakatning ertangi kuni uchun istiqbol megaloyiha sifatida tashkil qilingan Innovatsiya vazirligi ham bu borada o'ziga yuklatilgan vazifani bajara olmayapti yoki uni amalga oshirish uchun salohiyati yetmayapti, deyishimiz mumkin. Garchi, vazirlik tuzilmasi tarkibida "Davlat va jamiyat qurilishiga innovatsiyalarni joriy qilish hamda tadqiq etish boshqarmasi" tashkil qilinganligi, unda ko'plab malakali deya tanlab olingan mutaxassislar faoliyat yuritayotganligiga qaramasdan, davlat va jamiyat boshqaruvi

borasida hali biror bir ijobiy fikr, loyiha yoki innovatsion g'oya ilgari surildi va joriy qilindi, deyishimiz iyyin. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida, vazirlik boshqaruvida katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan boshqaruvchilarning emas, balki faqatgina fan sohasi bilangina cheklangan olimlarning, boshqaruv sohasidan bir muncha yiroq, katta megaloyihalarni ro'yobga chiqarishda amaliy tajribaga ega bo'lmagan, rahbarlik salohiyati past kadrlar mavjudligidir. Mutaxassis sifatidagi fikrimiz shundan iboratki, vazirlikdagi olim rahbarlarni o'zlarini qiynab turgan boshqaruv lavozimlardan ozod etib, ularga o'z sohalari bo'yicha laboratoriyalar, texnoparklar ochib berilsa, balki davlatga va jamiyatga ko'proq foydasi tegishi mumkin edi.

Yuqorida keltirib o'tganimiz, yana bir tashkilot, ya'ni Agentlik hali nisbatan yosh va katta tajribaga ega bo'lmagan tashkilot bo'lsa-da, oldinga intilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Ammo, ushbu tashkilot ham o'z vaqtida o'z faoliyati davomida mamlakatimiz rahbari tomonidan qo'yilgan vazifalarni o'z vaqtida, samarali bajara olishlari uchun ko'p izlanishlar va qat'iyatlik namoyon qilishlari talab etiladi. Buning uchun esa, mamlakatimizda kadrlar salohiyatini baholash va ularni aniq o'z o'rinlariga tayinlash uchun, avvalo, qanday rahbarlarni tayinlash va ularda qanday xususiyatlarni shakllantirish, rivojlantirish zarurligi haqida ham so'z yuritsak.

Ma'lumki, bugungi kun rahbar kadrlarini lavozimlarga tayinlashdan oldin maxsus tizimni, metodologiyani ishlab chiqish va joriy qilish, har qanday tashkilotning yoki tarmoqning faoliyat yo'nalishiga mos kadrlarni topish, ularning ishchanlik, tashkilotchilik, ma'naviy sifatlarini sinovdan o'tkazish, ularning qaysi sohaga layoqati mavjud ekanligiga qarab lavozimga tayinlash masalalarini chuqur o'rganishlari talab etiladi. Zero, "globallashuv sharoitida rahbardan talab qilinayotgan yana bir xislat uning o'z atrofida sog'lom fikrlovchi, izlanuvchan, tadbirkor va ishbilarmon kishilarni jalb etishi va jamlashida ko'rinadi. Bunday rahbar yangilikka intiluvchi, kuchli yetakchidir. Tashabbuskorona ish qaynab turgan joyda esa muhit ham sog'lom, odamlarning kayfiyati ham yaxshi bo'ladi".

Rahbar kadrlarni tanlashning metodologiyasiga esa rahbarning sifatlarini hisobga olish, ya'ni sohani rivojlantirish, qo'l ostidagi xodimlarini rivojlantirishi, o'zini ustida doimiy ishlashi, ijtimoiy-ma'naviy muhitdan xabardorlik singari xususiyatlarni albatta kiritish lozim.

Bugungi kun davlat va jamiyat boshqaruvi sohasida faqatgina buyruqni bajaradigan robot mexanizm kadrlardan voz kechib, mustaqil fikrlaydigan, masalaning yechimi bo'yicha puxta va aniq qarorlar qabul qiladigan, ularning ijrosini ta'minlay oladigan kadrlar kerakligini tushunib yetish lozim. Rahbar kadrlarning boshqaruvdagi katta muammosi, ularda boshqaruv samaradorligining pastligidir. Bu muammolarni hal qilish uchun ularda, avvalo, ish jarayonini tashkil qilish, nostandart qarorlar qabul qilish, turli an'anaviy uslublardan voz kechib, kreativ ishlash mexanizmlarini, ko'nikmalarini amaliy shakllantirish masalalariga e'tibor qaratish kerak. Eng muhimi, ularning ma'lum bir lavozimlarga tayinlangandan so'ng, olgan bilimlarini nechog'li qo'llayotganligini monitoring yoki tahlil qilishdir. Chunki, zamonaviy bilimlarni olgan kadrlar ko'pincha o'z ish

idorasiga qaytib borishi bilan yana o'sha eski byurokratik ish tizimiga asoslangan uslubda davom ettirishga majbur bo'ladi. Shuning uchun ham masalaning yana bir muhim jihatini, ya'ni ularga faqatgina zamonaviy va kreativ ish uslubinigina emas, balki o'sha byurokratik ish tizimini o'zgartirish strategiyasini o'rgatishdir.

Bugungi kunda rahbar kadrlar faoliyatida kuzatiladigan eng katta va murakkab muammolardan biri – bu o'z tashkiloti va tarmog'i uchun kadr tanlay olish va ularni boshqarish layoqatining yetishmasligidir. Bu borada, afsuski, rahbarlarda komanda shakllantirish, HR (inson resurslarini rivojlantirish) borasidagi bilimlarning pastligi saqlanib qolmoqda. Inson huquqlariga zid ravishda, shuningdek, inson resurslari mamlakatning milliy boyligiga aylanishi sharoitida tashkilotga kelgan yangi rahbar tomonidan oldindan ishlaydigan xodimlarga nisbatan "butunlay tozalash" operatsiyasiga moyillikning mavjudligi va bu jamiyatda katta noroziliklarga sabab bo'lishini esa, ming afsuski, ko'plab rahbar anglab yetmagan va bunday nomaqbul ishlarni amalga oshirmoqdalar. Xodimlarga past nazar bilan qarash, gohida o'zining tor mezonlari yordamida ularni saralash, o'zining yakkahokimligiga tayanib, xohlagan kadrlarini ishlatib va qolganlarini bo'shab ketishga majbur qilish, "notanish" xodimlardan xavfsirash, ularni dushman sifatida qarash ruhiyatidan ozod qilish masalasi sohadagi eng dolzarb vazifalardan bo'lmog'i shart! Ayniqsa, xodimlarning nohaq bo'shatilishi, ularga doimiy ruhiy bosim o'tkazilishidan himoya qiladigan huquqiy mexanizm yoki tizimni yaratish eng ustuvor vazifa sifatida tezda yechimini topishi lozim. Ko'plab rahbarlarda o'z mansabini yo'qotishdan qo'rqish sindromi ham keng tarqalgan muammolardan biri bo'lib qolayotganligi, o'ziga kelajakda raqobatchi bo'lishidan xavotirga tushib, ko'plab o'rinbosarlarini yoki sohani yaxshi tushunadigan kuchli mutaxassislardan qutulishga bo'lgan harakatlar ham afsuski, keng tarqalgan. Buning ijtimoiy xavfini esa ko'plab rahbarlar tushunib yetmayaptilar. Bu esa, o'z navbatida, bo'shatilgan kadrlarning xorijiy mamlakatlarga ish izlab ketishlariga yoki davlat siyosatidan norozi bo'lishlariga olib kelmoqda. Demak, noqobil rahbarlardan kadrlarni himoya qilish tizimi ham zudlik bilan joriy qilinishi lozim.

Bugungi rahbar kadrlarda kuzatilayotgan yana bir o'ta salbiy holat – bu ularning ma'naviy saviyasi pastligi, axloqsizlik sifatleri tez-tez namoyon bo'layotganligidir. Qo'l ostidagilarga adolatsiz muomalada bo'lish, ularni haqorat qilish ko'nikmalari "o'ta rivojlanganligi" natijasida ko'plab kadrlarda o'ziga ishonch yo'qolmoqda, boshqalar oldida qattiq mulzam bo'lishi natijasida ruhiy ezilish sodir bo'lmoqda. Demak, boshqaruv kadrlarining insoniylik, ma'anaviy va axloqiy sifatlarini rivojlantirish, boshqalarning sha'nini, or-nomusini hurmat qilish hissini shakllantirishga ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Boshqaruv kadrlarining ega bo'lishi lozim bo'lgan yana bir muhim jihati – bu sog'lomlik masalasidir. Ammo, ba'zi hududlarda ko'plab rahbar kadrlarning turli omillar sababli o'ta beo'xshov tusga kirganligi (qorni katta, kiyinish yoki o'zini tutish malakasi pastligi), sport bilan shug'ullanmasligi, sog'lomlik tamoyillariga amal qilmasligi ham ko'p uchraydi. Bu holat ularning ruhiga, kayfiyatiga, muomala madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatadigan omil ekanligini e'tirof etmoq joiz. Bu esa

xalq orasida rahbar kadrlarga nisbatan hurmatsiz munosabat shakllanishiga ham sabab bo'lishi mumkin.

Bugungi kun ba'zi rahbar kadrlari faoliyatida kuzatilayotgan yana bir kamchilik – bu ularda omma yoki jamoa oldida gapira olish salohiyatining o'ta pastligi, tadbirlarda yoki majlislarda auditoriyani zerikishiga sabab bo'ladigan uzundan-uzun ma'ruzalarni qog'ozga qarab o'qib berishida ham namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, OAV bilan ishlash ko'nikmalariga ega emasligi, oddiy intervyu berishni ham eplay olmasligi singari kamchiliklar ham ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari, ba'zi tumanlar hokimlari tomonidan Feysbuk ijtimoiy tarmog'ida ochilgan sahifalarni ko'rsangiz, bo'lib o'tayotgan “zerikarli” tadbirlarnigina yoritish bilan cheklanib qolayotganligi va ushbu xabarlarni faqatgina sanoqli odamlar tomonidan o'qilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Qiziqarli statistik ma'lumotlar, hududni rivojlantirish bo'yicha takliflar va unga xalqning munosabatini o'rganish, muammoli masalalarning yechimi borasida nimalar qilish lozimligi va hokazolar haqida aslo gap yo'q. Demak, rahbarlar uchun axborot siyosatining zamonaviy tendensiyalarini, ulardan samarali va kreativ foydalanish uslublarini o'rgatish ham bugungi kunning dolzarb masalalari sifatida maydonga chiqmoqda.

Rahbarlar ruhiyatida tanqidni ko'tara olmaslik, faqatgina maqtovlar eshitishga odatlanish muammosi saqlanib qolayotganligi, ularni bunday “qadriyatlardan” voz kechishning ijobiy tomonlarini tushuntirish, umuman, bu ruhiyatdan xalos bo'lishning yo'llarini, psixologik va ma'naviy qarashlarni ko'proq singdirish yo'li bilan erishish borasida ham samarali ishlar amalga oshirilishi lozim. Bunday metodlarning variantlari sifatida rahbar va boshqaruvchi kadrlar uchun rahbarlikning mas'uliyati va zamonaviy usullari borasida doimiy kurslar, seminarlarning tashkil qilinishidir.

XULOSA

Yana muhim muammolar ichida rahbar kadrlarning himoyasi, huquqlari, manfaati, mavqei, mas'uliyati va burchi kabilar alohida va muhim ahamiyatga ega mavzudir. Rahbarlikning o'zi oson emasligini yaxshi tushungan va ularning zimmasidagi mas'uliyatni his qilgan holda, ularning xizmat vazifalari, ish vaqti, mas'uliyat chegarasi, huquq va manfaatlari, jamiyatdagi o'rni va mavqei masalalari ham tobora yangilanayotgan O'zbekistonning eng dolzarb masalalaridandir.

Xulosa o'rnida aytishimiz lozimki, biz sodiq, mas'uliyatli, xalq manfaati va tinchligini, farovonligini o'ylaydigan, uning g'amini yeydigan, ishning ko'zini biladigan, zamonaviy fikrlash va ishlash qobiliyatiga ega, munosib rahbarlarni topish, tarbiyalash, mas'ul lavozimlarga tayinlash, faoliyatini doimiy monitoring qilish singari vazifalarni davlat siyosatining strategik vazifasi sifatida belgilab olsakkina, oldinga qo'yilgan maqsadlarimizga erishamiz. Chunki, zamonning o'zi, bizni taraqqiyot yo'lida yo'qotilgan vaqt o'rnini to'ldirishga, xalqimizning dard-tashvishlarini bartaraf qilishga, ertangi kunning munosib avlodlarini tayyorlashga va ular oldida mas'uliyatni yanada chuqur his qilishga undamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Shavkat Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”/ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. 14.12.2016. Manba: <http://uza.uz/oz/politics/erkin-va-farovon-demokratikzbekiston-davlatini-mard-va-olizh-14-12-2016>

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5139-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/3300784>

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5264-son

Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/3431985>

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/454999>

[5] A.Xolov “Zamonaviy rahbar qanday bo‘lishi kerak?”. Manba: <http://biznes-daily.uz/uz/gazetabirja/52823-zamonaviy-rahbar-qanday-bulishi-karak>

3.3 O'zbekiston Xalqaro imidjini yuksaltirishning siyosiy muammolari

Yangi O'zbekistonning xalqaro imidjini yuksaltirish vazifalari mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni va demokratik o'zgarishlarni muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarish borasida, shuningdek, xalqaro maydonda mamlakatimizning nufuzini yanada mustahkamlashda va aholi farovonligining oshishini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ichki va tashqi siyosatimizni keng targ'ib qilishni ham nazarda tutadi. Zero, "Jahonda kechayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar, koronavirus pandemiyasi va global iqtisodiy inqiroz sharoitida O'zbekiston ochiq va pragmatik tashqi siyosatni faol olib bormoqda. Xalqaro maydondagi qat'iy sa'y-harakatlarimiz natijasida yurtimizning nufuzi va obro'-e'tibori tobora yuksalmoqda".

Mana O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi PF-6003-son Farmoni imzolanganligiga ham deyarli bir yil to'ldi. Erishilgan natijalar va muvaffaqiyatli qadamlar bilan bir qatorda, yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni, oldimizda o'z yechimini kutib turgan muammolarni ham aniq belgilab olish siyosatshunoslik va xalqaro munosabatlar sohasining ham oldida turgan eng muhim vazifalardandir.

Prezident Sh.Mirziyoyevning chuqur o'ylangan pragmatik va faol islohotlari va siyosati, dunyoning ko'plab mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli munosabatlarining faollashuvi natijasida xalqaro arenada O'zbekistonning ijobiy imidji bir muncha yuksaldi. O'zining qisqa muddatli Prezidentligi davomida Sh.Mirziyov ko'plab dunyoning eng qudratli va rivojlangan, xalqaro munosabatlarda yetakchi o'rin egallaydigan davlatlar rahbarlari, jumladan, AQSH, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Rossiya, Koreya, Yaponiya, Turkiya, Saudiya Arabiston, Misr, Belorussiya va hokazo davlat va hukumat rahbarlari bilan uchrashuvlar o'tkazdi, ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT, SHHT, Turkiy tilli davlatlar kengashi, Islom hamkorlik tashkiloti, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi, Markaziy Osiyo davlatlari davlat rahbarlarining maslahat kengashi kabilarning tadbirlarida nutqlar so'zladi. Ushbu nutqlarining barchasida faqatgina barqarorlik, taraqqiyot, hamkorlik, integratsiya, do'stlik, yaqin qo'shnichilik va hokazo ijobiy tashabbuslar ilgari surilganlining o'zi mamlakat imidji shakllanishiga sabab bo'ldi.

O'zbekiston tashqi siyosatidagi ochiqlik va faollikning tobora ortib borishi, xorijiy mamlakatlar bilan ko'p qirrali va o'zaro manfaatli hamkorlikning mustahkamlanib borayotganligi O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi imidji yuksalishiga o'zining hissasini qo'shmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiya jarayonlarini kuchaytirish, qo'shni davlatlar bilan ahillik muhitini yaratish, muammolarni o'zaro maslahatlashuv yo'li bilan hal qilish, mavdo-iqtisodiy va investision loyihalar ko'lamini kengaytirish, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash borasidagi O'zbekistonning faol va konstruktiv tashqi siyosati natijasida bugun dunyoning yetakchi davlatlarining e'tibori ortishiga, munosabatlarida o'zgarishlar ro'y berishiga zamin bo'lmoqda.

Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hokimiyatga kelgan ilk kunlaridan boshlab, Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni tubdan rivojlantirish, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida ham amaliy hamkorlikni rivojlantirish borasidagi tashabbuslari bir vaqtning o'zida mintaqa davlatlari tomonidan ham qo'llab quvvatlandi.

Eng muhim vazifalar qatorida mamlakat tashqi siyosiy faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlaydigan organlarning ish uslubini takomillashtirish, uning samaradorligini zamon talablaridan kelib chiqib belgilash, bu borada tashkiliy-huquqiy, siyosiy islohotlarni amalga oshirish borasida ham katta odimlar tashlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yilning 5 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda uning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5400-son Farmoni mamlakatimizning xalqaro maydondagi imidjini mustahkamlash, uning nufuzini yanada yuksaltirishga xizmat qilganligini alohida e'tirof etishimiz joiz.

Unda belgilangan vazifalarning strategik ahamiyati shundaki, Farmonda mamlakat tashqi siyosatini yanada rivojlantirish, milliy manfaatlarimizni himoya qilish, davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatining samaradorligini ta'minlash, xorijdagi vatandoshlarimiz bilan muloqot o'rnatish, dolzarb xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal etish va hokazo hayotiy muhim vazifalarning belgilanganligidir.

Bugungi kunda O'zbekistonning xalqaro imidji yuksalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan yana bir omil – mamlakatning Afg'onistondagi siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish borasidagi tashabbuslari hamdir. Zero, Aynan prezident Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan jafokash afg'on xalqining ko'p yillik mashaqqatlariga chek qo'yish, tinch va osuda yashashlari uchun shartsharoitlar yaratish, mamlakatdagi siyosiy kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun qarama-qarshi tomonlarni o'zaro muzokaralarga chorlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Afg'onistonning amaldagi hukumati va Tolibon harakati o'rtasida hech bir shartlarsiz muzokaralar o'tkazish uchun har ikki tomonni irodali bo'lishga, bunday uchrashuvni tashkil qilish va o'tkazish uchun O'zbekiston tomoni doim tayyorligini ma'lum qilgan edi. Eng muhimi, mamlakat doimo mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikka to'g'ridanto'g'ri ta'sir ko'rsatadigan Afg'onistonni barqarorlashtirish borasida ko'plab tashabbuslar ilgari surilmoqda. «Afg'oniston xavfsizligi – bu O'zbekiston xavfsizligi, butun bepoyon Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasi barqarorligi hamda taraqqiyotining garovidir... Hech shubhasiz, oxir-oqibatda afg'on zaminida tinchlik o'rnatilishi bepoyon Yevroosiyo qit'asidagi barcha davlatlar uchun yangi imkoniyatlar ochadi va real naf keltiradi» - deya ta'kidlagan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'z chiqishlaridan birida. Ushbu zaminda barqarorlikni o'rnatishga ko'maklashish, mamlakatda infratuzilmalarni tiklash va rivojlantirish, gumanitar va ta'lim sohasida yordam ko'rsatish singari vazifalarning amalga oshirilishi natijasida O'zbekistonning xalqaro obro'e'tibori tobora ortib borayotganligiga guvoh bo'lib turibmiz

Yana bir ijobiy holat, u ham bo'lsa 2020 yilning oxirlarida O'zbekiston diniy erkinliklar bo'yicha «Maxsus kuzatuvdagi davlatlar ro'yxati» (Special Watch List) dan chiqarilgani bo'ldi. Bu borada Tramp ma'muriyati AQSH Davlat kotibi Maykl Pompeo tomonidan berilgan bayonotda «O'tgan yil davomida O'zbekiston hukumati tomonidan erishilgan muhim, aniq yutuqlarga asoslanib, O'zbekiston Maxsus kuzatuvlar ro'yxatidan chiqarilganini e'lon qilishdan mamnunman. O'zbekistonning qonunlari va amaliyotdagi jasorati boshqa millatlar uchun namuna bo'lmoqda»², deyilgan edi.

O'zbekistonda paxta mavsumi davrida ijtimoiy soha xodimlarini terimga jalb qilish bilan bog'liq majburiy mehnatning bekor qilinganligi, bolalar mehnati ta'qiqlanganligi va hokazo holatlar mamlakat xalqaro imidjiga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekistonning xalqaro hamjamiyat ko'z o'ngida ijobiy qiyofasi shakllanishiga saba bo'ldi.

Prezident Sh.Mirziyoyevning mamlakat ichida va tashqarisida obro'si ortshining yana bir sababi, bu adashib terroristik guruhlar tarkibiga qo'shilish uchun Suriya va Afg'oniston singari notinch mintaqalarga ketgan, u yerlarda o'ta qiyin ahvolda qolib ketgan vatandoshlarni "Mehr" operatsiyalari yordamida mamlakatga qaytarib olib kelganligi, ularning reabilitatsiyasi va adaptatsiyasi uchun davlat darajasida e'tibor qaratganligini ham alohida ta'kidlash lozim. Besh marta amalga oshirilgan bunday amaliyot, garchi O'zbekiston uchun katta murakkabliklar yaratgan bo'lsada, O'zbekiston o'z fuqarolarini to'g'ri yo'lga boshlash va ularni har qanday sharoitda ham himoya qilish salohiyatiga, imkoniyatiga va eng muhimi istagiga ega davlat sifatida dunyoga yana bir bor tanilishiga, e'tirof etilishiga zamin bo'ldi deyish mumkin.

Ushbu sohada oldimizda turgan asosiy vazifalar sifatida quyidagilarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb talabi bo'lib qolmoqda:

- mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarishlar va respublikaning xalqaro tashabbuslari haqida jahon hamjamiyatini doimiy xabardor qilib borish;

- O'zbekistonning dunyoviy va jadal rivojlanayotgan mamlakat sifatidagi ijobiy imidjini yaratish, xalqaro maydondagi nufuzini, reytingini mustahkamlash;

- xorijda turli sohalarda katta yutuqlarni qo'lga kiritgan, ma'lum bir muvaffaqiyatlarga erishgan vatandoshlarimiz bilan doimiy aloqalarni yanada kuchaytirish, ular tajribasidan, bilim va malakalaridan mamlakatimiz milliy manfaati yo'lida foydalanish;

- mamlakatning xalqaro imidjini shakllantiradigan, mustahkamlaydigan, yuksaltiradigan imidjmeyster mutaxassislarni tayyorlash, bu borada xorijiy tajribani o'rganish va chet ellik mutaxassislarni jalb qilish;

- O'zbekistonning xalqaro hamjamiyat oldida, ongida ijobiy qiyofasini mustahkamlaydigan barcha omillarni va resurslarni ishga solish, mamlakat ichki siyosatida rahbar va boshqaruvchi kadrlarning bu boradagi salohiyatini doimiy oshirib borish va hokazolar.

Bugun mamlakat uchun islohotlarning muvaffaqiyatini o'zida aks ettiradigan, iqtisodiy siyosatining samaradorligini ko'rsatib beradigan, nafaqat ekspertlar

darajasida, balki davlat darajasida ham keng foydalaniladigan xalqaro reytinglardagi o'rnini mustahkamlash va yuqorilab borish nihoyatda muhim. Zero, BMT inson taraqqiyoti indeksi, (Human Development Index), Butunjahon iqtisodiy forumining global raqobatbardoshlik indeksi (Global Competitiveness Index), Butunjahon bankining biznesni yuritish reytingi (Doing Business) va boshqalar dunyoning turli mamlakatlarida, jumladan, O'zbekistonda turli dasturlarni ishlab chiqish uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi bugungi kunda jahon jamoatchiligi va davlatlari oldida tobora nufuzi yuksalib, obro'si oshib borayotgan O'zbekistonning nufuzini yanada yuksalishiga xizmat qiladigan omil ekanligini aslo ununtmasligimiz lozim!

3.4 O'zbekistonning xalqaro imidjini yuksaltirish – davlatning strategik vazifasi

Jahon miqyosda tobora obro'si yuksalib borayotgan O'zbekistonning xalqaro imidjini yuksaltirishning siyosiy masalalarini tadqiq qilish va bu borada takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kun siyosiy fanlarining ham muhim yo'nalishiga aylandi. Zero, jahon hamjamiyati ko'z o'ngida jadal rivojlanayotgan, insonparvar va demokratik obrazi yaratilgan mamlakatina katta siyosiy va iqtisodiy muvaffaqiyatlarga erishadi. Dunyodagi ko'p davlatlar taraqqiyotga ham aynan o'zining imidjini yuksaltirish orqaligina erishganligi, bu holat mamlakatning kuchi va qudrati timsoli sifatida namoyon bo'layotganligini, shuningdek, bunday strategik vazifalarni amalga oshirish yo'lida O'zbekiston oldida turgan muhim masalalar tadqiqotda yoritilgan. Mamlakatning xalqaro hamjamiyat va jahon jamoatchiligi tomonidan ijobiy qabul qilinishi bu uning imidj muvaffaqiyatini ta'minlash demakdir.

Davlatning xalqaro maydonda o'z brendiga ega bo'lishi uning investision jozibadorligi ortishining ham asosiy shartlaridan biri ekanligi hech kimga sir emas. Jahon hamjamiyati ongu-fikrida, qarashlarida ijobiy obrazi yaratilgan mamlakatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy pozitsiyasi ham yuqori bo'ladi va u amalda isbotlangan. Jahonning aksariyat davlatlari asosiy maqsadlaridan biri ham aynan shu ekanligini alohida e'tirof etmoq joiz. Chunki, bugungi kunda dunyo miqyosida davlatning qudrati va salohiyati faqatgina uning iqtisodiy va ishlab chiqarish salohiyatigagina bog'liq emas. Eng asosiysi davlatning xalqaro hamjamiyat va jahon jamoatchiligi tomonidan qabul qilinishidir.

Davlat va mamlakatning imidji masalasi juda qadim zamonlarga borib taqalishi bilan bir qatorda, uning fan sifatida shakllanishi asosan XX asrning 30-yillarida fanga kiritilgan. Bu borada Zigmund Freyd va amerikalik olim Kennet Bolduinglarning ilmiy ijodi katta qiziqish o'yg'otadi. Z. Freyd tomonidan mazkur mavzuda maxsus jurnal chop etilgan bo'lsa, Kennet Boulding tomonidan "imidj" termini ilmiy sohaga kiritilgan. Shuningdek, dunyo miqyosida imidj masalasida taniqli olimlardan S.Agarval va S.Sikrilar tomonidan 1996-yilda chop etilgan "Country image: consumer evaluation of product category extensions" (Mamlakat imidji: ishlab chiqarilgan mahsulotni baholashning kengayishi) nomli maqola bu boradagi juda katta ilmiy tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Bunday tadqiqotlar qatorida S.Anxoltning 2007 yilda chop etgan "Competitive Identity. The New Brand Management for Nations, Cities and Regions" (O'zlik raqobati. Mamlakatlar, shaharlar va hududlar uchun brend menejmenti), P.Makmillan, B.Xempshir va J.D.Martin lar hamkorlikda 2004 yilda yozgan "Factors influencing destination image" (Boshlanish nuqtasidagi imidjga ta'sir ko'rsatadigan omillar) nomli maqollarida davlat va mamlakatning imidji, uning shakllanish jarayonlari va ularga ta'sir ko'rsatadigan omillar chuqur tahlil qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, ko'plab olimlar va mutaxassislar ham borki, ular tomonidan imidj masalalarining yoritilishini birgina tadqiqot bilan ko'rsatib berish nihoyatda mushkuldir.

O‘zbekistonning bugungi xalqaro imidji tobora yuksalib borayotganligini qayd etsakda, bu borada hali ko‘p ishlar qilinishi lozimligi kunday ravshan bo‘lib qolmoqda. Xalqaro munosabatlarda alohida sub’yekt sifatidagi davlat bo‘lganligimizga ham mana 31yil to‘lish arafasida turibmiz. Mamlakatimizni dunyoga tanitish, uning ijobiy qiyofasini va obrazini shakllantirish, xalqaro imidjini yuksaltirish borasida ko‘plab ishlar qilindi va bu yo‘nalishdagi hayotiy muhim vazifalar davom etmoqda.

Ayniqsa, so‘nggi 5-6 yil davomida dunyo O‘zbekistonni “demokratik ruhi tobora yuksalayotgan, majburiy mehnat tugatilgan, inson huquqlari kafolatlanayotgan, so‘z va e‘tiqod erkinligi borasida katta siljishlarni amalga oshirgan davlat” sifatida qaytadan kashf eta boshladi. Bunday muvaffaqiyatlarga erishish oson bo‘lgani yo‘q albatta. Mamlakatning Prezidenti vazifasini bajaruvchi sifatida ish boshlagan Shavkat Mirziyoyev o‘z rahbarligining ilk kunlaridan boshlab, garchi, o‘sha davr uchun biroz xatarli yoki tasavvur qilib bo‘lmas darajada murakkab bo‘lsada, ichki va tashqi siyosatda tub o‘zgarishlarni amalga oshirishga kirishgan edi. Xatarli deyishimizga asosiy sabab, uzoq yillar davomida shakllangan, ma’lum bir mustahkam “qolipga tushgan” elitaning qarshiligini yengib o‘tish, ikkinchidan, tashqi xavf-xatarlar soyasida o‘ta nozik diplomatiya olib borish mas’uliyati ham aynan o‘sha davrga to‘g‘ri kelar edi. Butun dunyoning diqqat bilan kuzatishi, yo‘l qo‘yilishi ehtimoli bo‘lgan xatolarni zimdan “poylashi”, geosiyosiy murakkabliklarning tobora ortib borishi sharoitida mamlakat Prezidentining va O‘zbekistonning xalqaro imidji bir yil ichida shiddat bilan o‘zgardi va umumjahon miqyosda bu holat dunyoning ko‘plab ekspertlari, siyosatchilari tomonidan keng e‘tirof etila boshlandi.

Mamlakat qisqa vaqt oralig‘ida jahonning eng qudratli davlatlari tomonidan hurmat bilan tilga olinib boshlandi va buning yorqin misoli sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ko‘plab davlatlarga, jumladan, Turkmaniston, Qozog‘iston, Xitoy, Rossiya, Saudiya Arabistoni, AQSH, Turkiya, Koreya Respublikasi, Tojikiston, Hindiston, Fransiya, Germaniya, Birlashgan Arab Amirliklari, Belarus, Yaponiya kabi davlatlarga oliy darajadagi xorijiy turnelarni amalga oshirganligi, ularning ba’zilariga bir necha bor amaliy, rasmiy va davlat tashriflari bilan borganligi, eng asosiysi har bir tashrif davomida yuksak hurmat va ehtirom bilan kutib olinganligini, O‘zbekistondagi islohotlar har tomonlama qiziqish bilan kuzatilayotganligi, olqishlanishi e‘tirof etildi. Dastlabki besh yillikdagi “Harakatlar strategiyasi” mamlakat tashqi siyosiy obro‘si va xalqaro imidji yuksaltirishining muhim bosqichi bo‘ldi deyish mumkin. Yuqorida keltirib o‘tganimizdek, jahon O‘zbekistonni boshqacha qiyofada taniy boshladi va unga monand munosabat shakllana boshladi.

Mamlakatda qabul qilingan “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ham aynan mamlakat imidjini yuksaltirish bilan bog‘liq vazifalarning, aniqrog‘i maqsadlarning belgilab olinganligi esa bu borada siyosiy vazifalarni davom ettirish va xalqaro maydonda O‘zbekistonning pozitsiyasini mustahkamlash borasidagi strategik ishlarni jadallashtirish mas’uliyatini yuklamoqda.

Jahonda sodir bo'layotgan turli tendensiyalarni tahlil qilish va kuzatish asnosida ishlab chiqilgan maqsadlar va vazifalarni oqilona yo'naltirish, dunyo bo'yicha bu borada katta yutuqlarni qo'lga kiritgan davlatlar tajribasidan keng va samarali foydalanish ham istiqbolli ekanligini qayd etmoq lozim. O'zbekistonning imidjini jahon sahnasida ilgari surish, amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi islohotlarning samaradorligini, jamiyatni demokratik yangilash borasidagi ishlarni xolis yoritish nafaqat siyosatchilarning, balki olimlarning ham asosiy maqsadlaridan biriga aylanishi lozim.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" va unda belgilangan vazifalar nafaqat mamlakat imidjini yuksaltiruvchi omil sifatida, balki uning farovonligini yuksaltiruvchi, xalqaro hamjamiyatning muhim ishtirokchisiga aylantiruvchi, jahon ayvonida O'zbekistonning madaniyatini va milliy an'analarimizni keng ommalashtirish, targ'ib qilishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro imidjni yuksaltirishning iqtisodiy, madaniy, san'at, turizm va ishlab chiqarish bilan bir qatorda, siyosiy masalalarini ham belgilash, uni takomillashtirish zarurati har qachongidanda dolzarb. Zero, jahon O'zbekistonni faqatgina serquyosh ulka, qadim madaniyatning me'rosxo'ri, ma'naviyati boy xalq, qadim osori-atiqlar juda ko'p, turistik salohiyati rivojlanayotgan, kattadan-katta maydonlarida paxta yetishtiriladigan, mehmondo'st millatlar va elatlar yashaydigan yurt sifatidagina tanishi shart emas.

Bugungi O'zbekistonni dunyo jadal siyosiy islohotlarni amalga oshirayotgan, samarali ichki va tashqi, mintaqaviy siyosat olib borayotgan, dastlab sobiq mustabid tizimni, keyin esa o'zining 25 yillik mustaqillik davridan me'ros qolgan katta murakkabliklarni bartaraf etishga bel bog'lagan va katta natijalarga erishayotgan zamonaviy davlat sifatida tanishi o'ta muhim. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bugungi kunda O'zbekiston o'zining geografik joylashuviga ko'ra, Shimol va Janubni, G'arb va Sharqni magistral tranzit koridorlari orqali bog'lab turadigan Markaziy Osiyo mintaqasining o'zagi hisoblanadi. Biz "Buyuk o'tmishdan — buyuk kelajak sari" tamoyili asosida iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishimizni jadal davom ettirmoqdamiz".

Buning vazifalar o'zi bo'lmaydi albatta. Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar bilan bir qatorda, mamlakat xalqaro imidjini yuksaltirishning siyosiy jihatlari albatta hisobga olinishi, ushbu yo'nalishda esa ko'plab ishlar qilinishi lozimligini anglab yetmog'imiz lozim. Mamlakat imidji ustida ishlaydigan imidjmeyker kadrlar tayyorlashdan tortib, to bugungi kun zamon talablariga javob bera oladigan rahbar kadrlar yetishtirish, siyosiy islohotlarning samaradorligini oshiradigan dasturlardan tortib, davlat qudratini, obro'sini yuksaltiradigan tuzilmalar faoliyatini takomillashtirishgacha bo'lgan vazifalarga katta ahamiyat qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Afsuski, bu boradagi ishlarimizni hali ko'ngildagidek deyish biroz qiyin. Sababi, turli axborot resurslari va ijtimoiy tarmoqlarda davlat boshqaruv organlari va turli bo'g'in tizimlarida ishlayotgan rahbar kadrlar va boshqaruvchilar tomonidan yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklar, ba'zi masalalardagi kaltabinligi yoki

korruptsiya holatlari mamlakat xalqaro imidjiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Zero, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat mamlakat jamoatchiligi, balki xalqaro media makonda ham jadal yoritilmoqda va yuqoridagi xato va kamchiliklar O'zbekiston davlatining imidjiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda, xorijiy hamkorlik aloqalarini kuchaytirishga ham zarar yetkazmoqda.

Shuning uchun ham mamlakat siyosiy tizimi va sohadagi yuz berayotgan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan mavjud muammolarni o'rganish, ularni tuzatish hamda siyosiy islohotlarning samaradorligini oshirish, rahbar va boshqaruvchi kadrlarning professionalligini va siyosiy saviyasini yuksaltirish masalalari o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. O'zni kelganda shuni ham alohida qayd etish lozimki, bugungi kun ko'plab rahbar kadrlarning kamchiligi – bu ularda omma yoki jamoa oldida gapira olish salohiyatining o'ta pastligi, tadbirlarda yoki majlislarda auditoriyani zerikishiga sabab bo'ladigan uzundan-uzun ma'ruzalarni qog'ozga qarab o'qib berishida ham namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, OAV bilan ishlash ko'nikmalariga ega emasligi, oddiy intervyu berishni ham eplay olmasligi singari kamchiliklar ham ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari, ba'zi tumanlar hokimlari tomonidan Feysbuk ijtimoiy tarmog'ida ochilgan sahifalarni ko'rsangiz, bo'lib o'tayotgan “zerikarli” tadbirlarnigina yoritish bilan cheklanib qolayotganligi va ushbu xabarlarni faqatgina sanoqli odamlar tomonidan o'qilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Qiziqarli statistik ma'lumotlar, hududni rivojlantirish bo'yicha takliflar va unga xalqning munosabatini o'rganish, muammoli masalalarning yechimi borasida nimalar qilish lozimligi va hokazolar haqida aslo gap yo'q. Demak, rahbarlar uchun axborot siyosatining zamonaviy tendensiyalarini, ulardan samarali va kreativ foydalanish uslublarini o'rgatish ham bugungi kunning dolzarb masalalari sifatida maydonga chiqmoqda. Shu bilan bir qatorda, O'zbekistondagi siyosiy o'zgarishlarni qiziqish va olqishlar bilan kuzatayotgan xalqaro hamjamiyat ko'z o'ngida aholining siyosiy faolligi ortib borayotganligi, ularning talab va ehtiyojlari ham taraqqiyotga monand tarzda o'sayotganligi sharoitida, davlat siyosatining, ayniqsa, rahbar kadrlarning ish uslubi ushbu o'zgarishlarga adekvat javob berishi ham davlat imidji sohasining muhim qismiga aylanib ulgurdi.

Ma'lumki, mamlakatning xalqaro imidjni yuksaltirish masalasi davlatning strategik vazifalaridan ekan, xalqaro hamjamiyat tomonidan mamlakatning qanday ko'z bilan ko'rilishi va qaralishi, shuningdek, unga nisbatan munosabati davlatning taraqqiyotini, farovonligini, nufuzini belgilovchi omillardandir. Har qanday davlatning tashqi dunyodagi e'tirofi uning xalqaro munosabatlari rivojlanishining ham muhim omili ekanligidan kelib chiqandigan bo'lsak, bu holat ham tabiiy. Aksariyat hollarda davlatlarning xalqaro maydondagi imidji, obro'si va nufuziga putur yetkazmaslikka harakat qiladi va ularga monand holda, ham ichki va tashqi siyosiy islohotlarini, kursini doimiy rivojlantirishga, samaradorligini oshirishga harakat qiladi. “Xalqaro hamjamiyat esa ushbu imidjga, davlatning qudratiga, salohiyatiga qarab u bilan barcha sohalaridagi munosabatlarni, aloqalarni rivojlantirishga harakat qiladi”.

Lekin, alohida qayd etish lozim bo'lgan jihatlar ham borki, bu ham bo'lsa, davlatning xalqaro maydondagi imidjini yuksaltirish bilan bog'liq jarayonlar osonlik bilan amalga oshirilmasligidir. Ayniqsa, bugungi kunda yer kurrasida terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash masalalari dolzarblashib borayotgan, g'arb tomonning ahloqsizlikni targ'ib qiladigan madaniyati ustunlik qilishga va suqilib kirishga harakat qilayotgan sharoitda uchinchi dunyo mamlakatlariga nisbatan axborot xurujlari va bosimlari tobora ortib bormoqda. Hali o'z imidjiga ega bo'la olmagan, o'z pozitsiyasini mustahkamlay olmagan davlatlar esa bunday bosimlarga qarshi tura olmasligi, axborot bosimlari ostida o'zini yo'qotib qo'yishi ham tabiiy. Faqatgina o'z ijobiy imidjini yarata olishgina uning raqobatbardoshligini orttirish bilan birga, turli xavf-xatarlarga ham qarshi kurasha olish salohiyatini yuksaltiradi.

O'tgan davrda, ya'ni Harakatlar strategiyasi davrida siyosiy islohotlarning jadal bosqichida xalqaro hamjamiyat ko'z o'ngida O'zbekistonning ijobiy qiyofasini, imidjini yaratish borasida ko'plab samarali ishlar amalga oshirilganligini, bu jarayonlarda O'zbekistonning yangi mazmundagi siyosati shakllanayotganligini, demokratiya, zamonaviy bozor iqtisodiyotiga asoslangan tuzumni, huquqiy va dunyoviy jamiyat qurish yo'lidan olg'a intilayotganligini ko'rsata olgan edik. Ammo, aynan mamlakat imidjini yuksaltirishning zaruriy ilmiy-konseptual, axboriy metodologik jihatlarini to'liq o'zlashtirgan, bu boradi ko'plab ilmiy va metodologik yechimlarni taqdim qila oladigan mutaxassislarning kamligi bois oldinga qo'yilgan vazifalarni to'liq amalga oshirdik deya olmaymiz.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekistonni xalqaro maydonda obro'sizlantirishga bel bog'lagan kuchlar ham qarab turmaganligini, ular tomonidan keng ko'lamli axborot faoliyati tobora kuchaytirilganligini, asosiysi, bu jarayonlar borgan sari kengayib borayotganligini qayd etmoq lozim. Bunga hamohang tarzda O'zbekistonning raqobatchilari ham qo'l qovushtirib o'tirmaganligi, ular tomonidan yuqorida keltirib o'tilgan kuchlarni qo'llabquvvatlash uchun kattadan-katta resurslar va kuch sarflanayotganligini ham alohida qayd etib o'tmoq joiz.

Shuni alohida qayd etmoq lozimki, xalqaro maydonda alohida qudratli davlatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatimiz borasida qabul qiladigan qarorlari aynan O'zbekistonni xalqaro maydonda obro'sizlantirishga bel bog'lagan kuchlarning maqsadli faoliyatlari ham hisobga olingan holda amalga oshirilishini siyosiy jihatdan anglab yetmog'imiz lozim. O'sha kuchlar tomonidan mamlakatimizdagi islohotlarga berilayotgan "baholar" nafaqat xalqaro hamjamiyat ongiga, balki mamlakatimiz ichidagi odamlarning ongushuuriga ham kuchli salbiy ta'sir ko'rsatishini alohida qayd etish lozim. Bu holat ayniqsa, xalqaro hamkorlarning O'zbekistonga nisbatan munosabatlariga ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda, mamlakatning salbiy imidji yaralishiga va jahon miqyosidagi turistik, siyosiy, iqtisodiy manfaatlariga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Xorijiy investisiyalarning qisqarishiga, moliyaviy-texnik yordamlarning kamayishiga, mamlakatdan kapitallarning chiqish ketishining tezlashishiga sabab bo'lishi ham mumkin.

Dunyo miqyosida ro'y berayotgan moliyaviy resurslar, investisiyalar va texnologiyalar uchun global raqobat sharoitida mamlakatning imidji masalasi bu

borada kurashlarda yengib chiqishning asosiy omillaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu borada esa ko‘plab mamlakatlarning tajribalaridan foydalanish, davlat o‘z imidjini yuksaltirish orqali siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy va investisiyaviy resurslarni qo‘lga kirishini ilmiy asoslash ham bugungi kun fanlarining oldidagi muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshayotgan faol demokratik o‘zgarishlar jahon axborot maydonida dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Buning ortidan, mamlakatning imidji ham yuksalmoqda. Aholining siyosiy madaniyati va dunyoqarashi ham jahon miqyosida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga moslashib, Markaziy Osiyo mintaqasida ham O‘zbekistonning ochiqlik siyosati ham davlatlar va ham jamoatchilik tomonidan qo‘llabquvvatlanmoqda. Eng asosiysi, asosiy savdo-iqtisodiy sheriklar dunyoqarashida O‘zbekistonning imidji tom ma’noda yuksalayotganligini kuzatilmoqda. Bu borada dunyoviylik tamoyillari asosida rivojlanish, o‘zaro yaqin qo‘shnichilik, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik, har qanday masalani o‘zaro diplomatik yo‘llar bilan hal qilishga qaratilgan tashqi siyosat muhim rol o‘ynamoqda.

Ayniqsa, mintaqa davlatlari bilan aloqalarni rivojlantirish, 25 yillik davr mobaynida vujudga kelgan “muzlikni eritish” uchun amalga oshirilgan O‘zbekiston katta siyosiy dividendlarni ham taqdim qilganligini ko‘rdik. Demak, aytish mumkinki, “ijobiy imidj mamlakatga iqtisodiy imkoniyatlar beradi. Misol uchun, iste’molchilar ma’lum bir mamlakatlarda yaratilgan mahsulotlar, ya’ni Yaponida ishlab chiqarilgan elektronika mahsulotlari, Italiyada tayyorlangan oziqovqat mahsulotlari, Germaniyada ishlab chiqarilgan avtomobillar uchun qimmat narx to‘laydilar”.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston 15 yil deganda ilk bor «qora ro‘yxat»dan chiqarildi. O‘zbekistonning AQSHdagi Elchixonasi ma’lumotiga ko‘ra, 2020 yil 28 aprel kuni AQSHning Xalqaro diniy erkinliklar bo‘yicha komissiyasi (USCIRF) 2019 yilda dunyoda e’tiqod erkinligi holati baholangan navbatdagi hisobotini e’lon qildi. <https://www.xabar.uz/jamiyat/ozbekiston-qora-royxatdan>.
2. Mneniye zarubejnyx ekspertov. <https://isrs.uz/ru/xorijiy-ekspertlar-fikri>, Eksperty Uzbekistana i Norvegii obsudili vozmozhnyye napravleniya dvustoronnego vzaimodeystviya. <https://nuz.uz/obschestvo/1216012-eksperty-uzbekistana-inorvegii-obsudili-vozmozhnye-napravleniya-dvustoronnego-vzaimodeystviya.html>, Eksperty ob Uzbekistane: geopoliticheskiy lider i zaslon ot ekstremizma. <https://ria.ru/20160903/1476008920.html>. Mejdunarodnyye eksperty: Uzbekistan mojet uskorit ekonomicheskij rost za schet strategicheskix investisiy v obrazovaniye. <https://uzdaily.uz/ru/post/61440>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022 yil 28 yanvardagi 60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
4. Investorlar uchun qulay va jozibador sharoit yaratishga qaratilgan amaliy ishlarimizni yanada jadallashtiramiz. 24.03.2022.. <https://president.uz/uz/lists/view/5077>

5. Xarbix S.K. Mejdunarodnyy imidj gosudarstva. Faktory formirovaniya. <file:///C:/Users/User/Downloads/mezhdunarodnyy-imidzh-gosudarstva-factory-formirovaniya.pdf>
6. Baxtiyor Ergashev o tom, zachem Uzbekistanu pozitivnyy vneshniy imidj i iz chego on skladyvayetsya. <https://repost.uz/image-importance>

3.5 Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi mamlakat xalqaro imidjini yuksaltirishning muhim siyosiy omili sifatida

Yangi O'zbekistonning xalqaro maydonda o'z obro'siga ega bo'lishi uning investision jozibadorligi ortishining ham asosiy shartlaridan biri ekanligi hech kimga sir emas. Jahon hamjamiyati ongu-fikrida, qarashlarida ijobiy obrazi yaratilgan mamlakatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy pozitsiyasi ham yuqori bo'ladi va u amalda isbotlangan. Jahonning aksariyat davlatlari asosiy maqsadlaridan biri ham aynan shu ekanligini alohida e'tirof etmoq joiz. Chunki, bugungi kunda dunyo miqyosida davlatning qudrati va salohiyati faqatgina uning iqtisodiy va ishlab chiqarish salohiyatigagina bog'liq emas. Eng asosiysi davlatning xalqaro hamjamiyat va jahon jamoatchiligi tomonidan qabul qilinishidir.

Davlat va mamlakatning imidji masalasi juda qadim zamonlarga borib taqalishi bilan bir qatorda, uning fan sifatida shakllanishi asosan XX asrning 30-yillarida fanga kiritilgan. Bu borada Zigmund Freyd va amerikalik olim Kennet Bolduinglarning ilmiy ijodi katta qiziqish o'yg'otadi. Z. Freyd tomonidan mazkur mavzuda maxsus jurnal chop etilgan bo'lsa, Kennet Boulding tomonidan "imidj" termini ilmiy sohaga kiritilgan. Shuningdek, dunyo miqyosida imidj masalasida taniqli olimlardan S.Agarval va S.Sikrilar tomonidan 1996-yilda chop etilgan "Country image: consumer evaluation of product category extensions" (Mamlakat imidji: ishlab chiqarilgan mahsulotni baholashning kengayishi) nomli maqola bu boradagi juda katta ilmiy tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Bunday tadqiqotlar qatorida S.Anxoltning 2007 yilda chop etgan "Competitive Identity. The New Brand Management for Nations, Cities and Regions" (O'zlik raqobati. Mamlakatlar, shaharlar va hududlar uchun brend menejmenti), P.Makmillan, B.Xempshir va J.D.Martin lar hamkorlikda 2004-yilda yozgan "Factors influencing destination image" (Boshlanish nuqtasidagi imidjga ta'sir ko'rsatadigan omillar) nomli maqollarida davlat va mamlakatning imidji, uning shakllanish jarayonlari va ularga ta'sir ko'rsatadigan omillar chuqur tahlil qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, ko'plab olimlar va mutaxassislar ham borki, ular tomonidan imidj masalalarining yoritilishini birgina tadqiqot bilan ko'rsatib berish nihoyatda mushkuldir.

O'zbekistonning bugungi xalqaro imidji tobora yuksalib borayotganligini dunyo miqyosida ko'plab ekspertlar, siyosatchilar va olimlar tomonidan alohida e'tirof etilmoqda. Bu holat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida o'z aksini topgan bo'lib, unda "Bugungi kunda O'zbekiston

jahon siyosati markazlaridan biriga aylanayotgani, xalqaro hamjamiyat buni keng e'tirof etayotgani ham ayni haqiqatdir. Shanxay hamkorlik tashkiloti va Turkiy davlatlar tashkiloti sammitlari hamda o'nlab yuqori darajadagi xalqaro anjumanlarga mezbonlik qildik va muhim tashabbuslarni ilgari surdik. Bularning barchasi mamlakatimizning xalqaro nufuzi tobora ortib borayotganidan dalolat beradi" deya e'tirof etilgan.

Xalqaro munosabatlarda alohida sub'yekt sifatidagi davlat bo'lganligimizga ham mana 31yil to'lish arafasida turibmiz. Mamlakatimizni dunyoga tanitish, uning ijobiy qiyofasini va obrazini shakllantirish, xalqaro imidjini yuksaltirish borasida ko'plab ishlar qilindi va bu yo'nalishdagi hayotiy muhim vazifalar davom etmoqda.

Ayniqsa, so'nggi 5-6 yil davomida dunyo O'zbekistonni "demokratik ruhi tobora yuksalayotgan, majburiy mehnat tugatilgan, inson huquqlari kafolatlanayotgan, so'z va e'tiqod erkinligi borasida katta siljishlarni amalga oshirgan davlat" sifatida qaytadan kashf eta boshladi. Bunday muvaffaqiyatlarga erishish oson bo'lgani yo'q albatta. Mamlakatning Prezidenti vazifasini bajaruvchi sifatida ish boshlagan Shavkat Mirziyoyev o'z rahbarligining ilk kunlaridan boshlab, garchi, o'sha davr uchun biroz xatarli yoki tasavvur qilib bo'lmas darajada murakkab bo'lsada, ichki va tashqi siyosatda tub o'zgarishlarni amalga oshirishga kirishgan edi. Xatarli deyishimizga asosiy sabab, uzoq yillar davomida shakllangan, ma'lum bir mustahkam "qolipga tushgan" elitaning qarshiligini yengib o'tish, ikkinchidan, tashqi xavf-xatarlar soyasida o'ta nozik diplomatiya olib borish mas'uliyati ham aynan o'sha davrga to'g'ri kelar edi. Butun dunyoning diqqat bilan kuzatishi, yo'l qo'yilishi ehtimoli bo'lgan xatolarni zimdan "poylashi", geosiyosiy murakkabliklarning tobora ortib borishi sharoitida mamlakat Prezidentining va O'zbekistonning xalqaro imidji bir yil ichida shiddat bilan o'zgardi va umumjahon miqyosda bu holat dunyoning ko'plab ekspertlari, siyosatchilari tomonidan keng e'tirof etila boshlandi.

Mamlakat qisqa vaqt oralig'ida jahonning eng qudratli davlatlari tomonidan hurmat bilan tilga olinib boshlandi va buning yorqin misoli sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ko'plab davlatlarga, jumladan, Turkmaniston, Qozog'iston, Xitoy, Rossiya, Saudiya Arabistoni, AQSH, Turkiya, Koreya Respublikasi, Tojikiston, Hindiston, Fransiya, Germaniya, Birlashgan Arab Amirliklari, Belarus, Yaponiya kabi davlatlarga oliy darajadagi xorijiy turnelarni amalga oshirganligi, ularning ba'zilariga bir necha bor amaliy, rasmiy va davlat tashriflari bilan borganligi, eng asosiysi har bir tashrif davomida yuksak hurmat va ehtirom bilan kutib olinganligini, O'zbekistondagi islohotlar har tomonlama qiziqish bilan kuzatilayotganligi, olqishlanishi e'tirof etildi. Dastlabki besh yillikdagi "Harakatlar strategiyasi" mamlakat tashqi siyosiy obro'si va xalqaro imidji yuksalishining muhim bosqichi bo'ldi deyish mumkin. Yuqorida keltirib o'tganimizdek, jahon O'zbekistonni boshqacha qiyofada taniy boshladi va unga monand munosabat shakllana boshladi.

Mamlakatda qabul qilingan "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham aynan mamlakat imidjini yuksaltirish bilan bog'liq vazifalarning, aniqrog'i maqsadlarning belgilab

olinganligi esa bu borada siyosiy vazifalarni davom ettirish va xalqaro maydonda O'zbekistonning pozitsiyasini mustahkamlash borasidagi strategik ishlarni jadallashtirish mas'uliyatini yuklamoqda.

Jahonda sodir bo'layotgan turli tendensiyalarni tahlil qilish va kuzatish asnosida ishlab chiqilgan maqsadlar va vazifalarni oqilona yo'naltirish, dunyo bo'yicha bu borada katta yutuqlarni qo'lga kiritgan davlatlar tajribasidan keng va samarali foydalanish ham istiqbolli ekanligini qayd etmoq lozim. O'zbekistonning imidjini jahon sahnasida ilgari surish, amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalaridagi islohotlarning samaradorligini, jamiyatni demokratik yangilash borasidagi ishlarni xolis yoritish nafaqat siyosatchilarning, balki olimlarning ham asosiy maqsadlaridan biriga aylanishi lozim.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" va unda belgilangan vazifalar nafaqat mamlakat imidjini yuksaltiruvchi omil sifatida, balki uning farovonligini yuksaltiruvchi, xalqaro hamjamiyatning muhim ishtirokchisiga aylantiruvchi, jahon ayvonida O'zbekistonning madaniyatini va milliy an'analarimizni keng ommalashtirish, targ'ib qilishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro imidjni yuksaltirishning iqtisodiy, madaniy, san'at, turizm va ishlab chiqarish bilan bir qatorda, siyosiy masalalarini ham belgilash, uni takomillashtirish zarurati har qachongidanda dolzarb. Zero, jahon O'zbekistonni faqatgina serquyosh ulka, qadim madaniyatning me'rosxo'ri, ma'naviyati boy xalq, qadim osori-atiqalar juda ko'p, turistik salohiyati rivojlanayotgan, kattadan-katta maydonlarida paxta yetishtiriladigan, mehmondo'st millatlar va elatlar yashaydigan yurt sifatidagina tanishi shart emas.

Bugungi O'zbekistonni dunyo jadal siyosiy islohotlarni amalga oshirayotgan, samarali ichki va tashqi, mintaqaviy siyosat olib borayotgan, dastlab sobiq mustabid tizimni, keyin esa o'zining 25 yillik mustaqillik davridan me'ros qolgan katta murakkabliklarni bartaraf etishga bel bog'lagan va katta natijalarga erishayotgan zamonaviy davlat sifatida tanishi o'ta muhim. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **"Bugungi kunda O'zbekiston o'zining geografik joylashuviga ko'ra, Shimol va Janubni, G'arb va Sharqni magistral tranzit koridorlari orqali bog'lab turadigan Markaziy Osiyo mintaqasining o'zagi hisoblanadi. Biz "Buyuk o'tmishdan – buyuk kelajak sari" tamoyili asosida iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishimizni jadal davom ettirmoqdamiz"**.

Buning vazifalar o'zi bo'lmaydi albatta. Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar bilan bir qatorda, mamlakat xalqaro imidjini yuksaltirishning siyosiy jihatlari albatta hisobga olinishi, ushbu yo'nalishda esa ko'plab ishlar qilinishi lozimligini anglab yetmog'imiz lozim. Mamlakat imidji ustida ishlaydigan imidjmeyker kadrlar tayyorlashdan tortib, to bugungi kun zamon talablariga javob bera oladigan rahbar kadrlar yetishtirish, siyosiy islohotlarning samaradorligini oshiradigan dasturlardan tortib, davlat qudratini, obro'sini yuksaltiradigan tuzilmalar faoliyatini takomillashtirishgacha bo'lgan vazifalarga katta ahamiyat qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Afsuski, bu boradagi ishlarimizni hali ko'ngildagidek deyish biroz qiyin. Sababi, turli axborot resurslari va ijtimoiy tarmoqlarda davlat boshqaruv organlari va turli bo'g'in tizimlarida ishlayotgan rahbar kadrlar va boshqaruvchilar tomonidan yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklar, ba'zi masalalardagi kaltabinligi yoki korrupsiya holatlari mamlakat xalqaro imidjiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Zero, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat mamlakat jamoatchiligi, balki xalqaro media makonda ham jadal yoritilmoqda va yuqoridagi xato va kamchiliklar O'zbekiston davlatining imidjiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda, xorijiy hamkorlik aloqalarini kuchaytirishga ham zarar yetkazmoqda.

Shuning uchun ham mamlakat siyosiy tizimi va sohadagi yuz berayotgan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan mavjud muammolarni o'rganish, ularni tuzatish hamda siyosiy islohotlarning samaradorligini oshirish, rahbar va boshqaruvchi kadrlarning professionalligini va siyosiy saviyasini yuksaltirish masalalari o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. O'rni kelganda shuni ham alohida qayd etish lozimki, bugungi kun ko'plab rahbar kadrlarning kamchiligi – bu ularda omma yoki jamoa oldida gapira olish salohiyatining o'ta pastligi, tadbirlarda yoki majlislarda auditoriyani zerikishiga sabab bo'ladigan uzundan-uzun ma'ruzalarni qog'ozga qarab o'qib berishida ham namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, OAV bilan ishlash ko'nikmalariga ega emasligi, oddiy intervyu berishni ham eplay olmasligi singari kamchiliklar ham ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari, ba'zi tumanlar hokimlari tomonidan Feacebook ijtimoiy tarmog'ida ochilgan sahifalarni ko'rsangiz, bo'lib o'tayotgan “zerikarli” tadbirlarnigina yoritish bilan cheklanib qolayotganligi va ushbu xabarlarini faqatgina sanoqli odamlar tomonidan o'qilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Qiziqarli statistik ma'lumotlar, hududni rivojlantirish bo'yicha takliflar va unga xalqning munosabatini o'rganish, muammoli masalalarning yechimi borasida nimalar qilish lozimligi va hokazolar haqida aslo gap yo'q. Demak, rahbarlar uchun axborot siyosatining zamonaviy tendensiyalarini, ulardan samarali va kreativ foydalanish uslublarini o'rgatish ham bugungi kunning dolzarb masalalari sifatida maydonga chiqmoqda.

Shu bilar bir qatorda, O'zbekistondagi siyosiy o'zgarishlarni qiziqish va olqishlar bilan kuzatayotgan xalqaro hamjamiyat ko'z o'ngida aholining siyosiy faolligi ortib borayotganligi, ularning talab va ehtiyojlari ham taraqqiyotga monand tarzda o'sayotganligi sharoitida, davlat siyosatining, ayniqsa, rahbar kadrlarning ish uslubi ushbu o'zgarishlarga adekvat javob berishi ham davlat imidji sohasining muhim qismiga aylanib ulgurdi.

Ma'lumki, mamlakatning xalqaro imidjni yuksaltirish masalasi davlatning strategik vazifalaridan ekan, xalqaro hamjamiyat tomonidan mamlakatning qanday ko'z bilan ko'rilishi va qaralishi, shuningdek, unga nisbatan munosabati davlatning taraqqiyotini, farovonligini, nufuzini belgilovchi omillardandir. Har qanday davlatning tashqi dunyodagi e'tirofi uning xalqaro munosabatlari rivojlanishining ham muhim omili ekanligidan kelib chiqandigan bo'lsak, bu holat ham tabiiy. Aksariyat hollarda davlatlarning xalqaro maydondagi imidji, obro'si va nufuziga putur yetkazmaslikka harakat qiladi va ularga monand holda, ham ichki va tashqi

siyosiy islohotlarini, kursini doimiy rivojlantirishga, samaradorligini oshirishga harakat qiladi. “Xalqaro hamjamiyat esa ushbu imidjga, davlatning qudratiga, salohiyatiga qarab u bilan barcha sohalaridagi munosabatlarni, aloqalarni rivojlantirishga harakat qiladi”.

Lekin, alohida qayd etish lozim bo‘lgan jihatlar ham borki, bu ham bo‘lsa, davlatning xalqaro maydondagi imidjini yuksaltirish bilan bog‘liq jarayonlar osonlik bilan amalga oshirilmasligidir. Ayniqsa, bugungi kunda yer kurrasida terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash masalalari dolzarblashib borayotgan, g‘arb tomonning ahloqsizlikni targ‘ib qiladigan madaniyati ustunlik qilishga va suqilib kirishga harakat qilayotgan sharoitda uchinchi dunyo mamlakatlariga nisbatan axborot xurujlari va bosimlari tobora ortib bormoqda. Hali o‘z imidjiga ega bo‘la olmagan, o‘z pozitsiyasini mustahkamlay olmagan davlatlar esa bunday bosimlarga qarshi tura olmasligi, axborot bosimlari ostida o‘zini yo‘qotib qo‘yishi ham tabiiy. Faqatgina o‘z ijobiy imidjini yarata olishgina uning raqobatbardoshligini orttirish bilan birga, turli xavf-xatarlarga ham qarshi kurasha olish salohiyatini yuksaltiradi.

O‘tgan davrda, ya’ni Harakatlar strategiyasi davrida siyosiy islohotlarning jadal bosqichida xalqaro hamjamiyat ko‘z o‘ngida O‘zbekistonning ijobiy qiyofasini, imidjini yaratish borasida ko‘plab samarali ishlar amalga oshirilganligini, bu jarayonlarda O‘zbekistonning yangi mazmundagi siyosati shakllanayotganligini, demokratiya, zamonaviy bozor iqtisodiyotiga asoslangan tuzumni, huquqiy va dunyoviy jamiyat qurish yo‘lidan olg‘a intilayotganligini ko‘rsata olgan edik. Ammo, aynan mamlakat imidjini yuksaltirishning zaruriy ilmiy-konseptual, axboriy-metodologik jihatlarini to‘liq o‘zlashtirgan, bu boradi ko‘plab ilmiy va metodologik yechimlarni taqdim qila oladigan mutaxassislarning kamligi bois oldinga qo‘yilgan vazifalarni to‘liq amalga oshirdik deya olmaymiz.

Shu bilan bir qatorda, O‘zbekistonni xalqaro maydonda obro‘sizlantirishga bel bog‘lagan kuchlar ham qarab turmaganligini, ular tomonidan keng ko‘lamli axborot faoliyati tobora kuchaytirilganligini, asosiysi, bu jarayonlar borgan sari kengayib borayotganligini qayd etmoq lozim. Bunga hamohang tarzda O‘zbekistonning raqobatchilari ham qo‘l qovushtirib o‘tirmaganligi, ular tomonidan yuqorida keltirib o‘tilgan kuchlarni qo‘llab-quvvatlash uchun kattadan-katta resurslar va kuch sarflanayotganligini ham alohida qayd etib o‘tmoq joiz.

Shuni alohida qayd etmoq lozimki, xalqaro maydonda alohida qudratli davlatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatimiz borasida qabul qiladigan qarorlari aynan O‘zbekistonni xalqaro maydonda obro‘sizlantirishga bel bog‘lagan kuchlarning maqsadli faoliyatlari ham hisobga olingan holda amalga oshirilishini siyosiy jihatdan anglab yetmog‘imiz lozim. O‘sha kuchlar tomonidan mamlakatimizdagi islohotlarga berilayotgan “baholar” nafaqat xalqaro hamjamiyat ongiga, balki mamlakatimiz ichidagi odamlarning ongu-shuuriga ham kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatishini alohida qayd etish lozim. Bu holat ayniqsa, xalqaro hamkorlarning O‘zbekistonga nisbatan munosabatlariga ta’sir ko‘rsatish bilan bir qatorda, mamlakatning salbiy imidji yaralishiga va jahon miqyosidagi turistik, siyosiy, iqtisodiy manfaatlariga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Xorijiy investisiyalarning qisqarishiga, moliyaviy-texnik yordamlarning kamayishiga,

mamlakatdan kapitallarning chiqish ketishining tezlashishiga sabab bo'lishi ham mumkin.

Dunyo miqyosida ro'y berayotgan moliyaviy resurslar, investisiyalar va texnologiyalar uchun global raqobat sharoitida mamlakatning imidji masalasi bu borada kurashlarda yengib chiqishning asosiy omillaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada esa ko'plab mamlakatlarning tajribalaridan foydalanish, davlat o'z imidjini yuksaltirish orqali siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy va investisiyaviy resurslarni qo'lga kirishini ilmiy asoslash ham bugungi kun fanlarining oldidagi muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshayotgan faol demokratik o'zgarishlar jahon axborot maydonida dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Buning ortidan, mamlakatning imidji ham yuksalmoqda. Aholining siyosiy madaniyati va dunyoqarashi ham jahon miqyosida ro'y berayotgan o'zgarishlarga moslashib, Markaziy Osiyo mintaqasida ham O'zbekistonning ochiqlik siyosati ham davlatlar va ham jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Eng asosiysi, asosiy savdo-iqtisodiy sheriklar dunyoqarashida O'zbekistonning imidji tom ma'noda yuksalayotganligini kuzatilmoqda. Bu borada dunyoviylik tamoyillari asosida rivojlanish, o'zaro yaqin qo'shnichilik, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik, har qanday masalani o'zaro diplomatik yo'llar bilan hal qilishga qaratilgan tashqi siyosat muhim rol o'ynamoqda.

Ayniqsa, mintaqa davlatlari bilan aloqalarni rivojlantirish, 25 yillik davr mobaynida vujudga kelgan "muzlikni eritish" uchun amalga oshirilgan O'zbekiston katta siyosiy dividendlarni ham taqdim qilganligini ko'rdik. Demak, aytish mumkinki, "ijobiy imidj mamlakatga iqtisodiy imkoniyatlar beradi. Misol uchun, iste'molchilar ma'lum bir mamlakatlarda yaratilgan mahsulotlar, ya'ni Yaponida ishlab chiqarilgan elektronika mahsulotlari, Italiyada tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari, Germaniyada ishlab chiqarilgan avtomobillar uchun qimmat narx to'laydilar".

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yangi O'zbekiston g'oyasi ilgari surilayotgan va mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzi mustahkamlanib borayotganligi sharoitida O'zbekistonning davlat imidjini yuksaltirish borasidagi vazifalarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan siyosiy islohotlarning, o'zgarishlarning tashkiliy asoslariga ham bog'liq bo'lib qolmoqda. Buning uchun esa, kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar qatorida, mamlakat oldida imidj sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash va ulardan samarali foydalanish, siyosiy tahlillar va prognozlar ishlab chiqish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borishni rag'batlantirish, mamlakatning siyosiy muvaffaqiyatini ta'minlaydigan kadrlar siyosatini yanada takomillashtirish, kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirishni ta'minlaydigan institutlarni har tomonlama taraqqiy ettirish singari strategik ishlarni jadal olib borishni taqazo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022.

<https://president.uz/uz/lists/view/5774>

2. O‘zbekiston 15 yil deganda ilk bor «qora ro‘yxat»dan chiqarildi. O‘zbekistonning AQSHdagi Elchixonasi ma’lumotiga ko‘ra, 2020 yil 28 aprel kuni AQSHning Xalqaro diniy erkinliklar bo‘yicha komissiyasi (USCIRF) 2019 yilda dunyoda e’tiqod erkinligi holati baholangan navbatdagi hisobotini e’lon qildi. <https://www.xabar.uz/jamiyat/ozbekiston-qora-royxatdan>.
3. Mneniye zarubejnyx ekspertov. <https://isrs.uz/ru/xorijiy-ekspertlar-fikri>, Eksperty Uzbekistana i Norvegii obsudili vozmozhnyye napravleniya dvustoronnego vzaimodeystviya. <https://nuz.uz/obschestvo/1216012-eksperty-uzbekistana-i-norvegii-obsudili-vozmozhnye-napravleniya-dvustoronnego-vzaimodeystviya.html>, Eksperty ob Uzbekistane: geopoliticheskiy lider i zaslon ot ekstremizma. <https://ria.ru/20160903/1476008920.html>. Mejdunarodnyye eksperty: Uzbekistan mojet uskorit ekonomicheskij rost za schet strategicheskix investisij v obrazovaniye. <https://uzdaily.uz/ru/post/61440>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022 yil 28 yanvardagi 60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
5. Investorlar uchun qulay va jozibador sharoit yaratishga qaratilgan amaliy ishlarimizni yanada jadallashtiramiz. 24.03.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5077>
6. Xarbix S.K. Mejdunarodnyy imidj gosudarstva. Faktory formirovaniya. <file:///C:/Users/User/Downloads/mezhdunarodnyy-imidzh-gosudarstva-factory-formirovaniya.pdf>
7. Baxtiyor Ergashev o tom, zchem Uzbekistanu pozitivnyy vneshniy imidj i iz chego on skladывayetsya. <https://repost.uz/image-importance>

3.6 Samarali siyosiy modernizatsiya jarayonlari – O‘zbekistonning xalqaro imiji yuksalishining muhim aspekti sifatida

Jahon miqyosda tobora obro‘si yuksalib borayotgan O‘zbekistonning xalqaro imidjini yuksaltirishning siyosiy masalalarini tadqiq qilish va bu borada takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda barcha gumanitar fanlar qatorida, siyosiy fanlarining ham muhim yo‘nalishiga, aytish mumkinki, kechiktirib bo‘lmas vazifasiga aylandi. Zero, jahon hamjamiyati ko‘z o‘ngida jadal rivojlanayotgan, insonparvar va demokratik obrazi yaratilgan mamlakatina katta siyosiy va iqtisodiy muvaffaqiyatlarga erishadi. Dunyodagi ko‘p davlatlar taraqqiyotga ham aynan o‘zining imidjini yuksaltirish orqaligina erishganligi, bu holat mamlakatning kuchi va qudrati timsoli sifatida namoyon bo‘layotganligini, shuningdek, bunday strategik vazifalarni amalga oshirish yo‘lida O‘zbekiston oldida turgan muhim masalalar tadqiqotda yoritilgan. Mamlakatning xalqaro hamjamiyat va jahon jamoatchiligi tomonidan ijobiy qabul qilinishi bu uning imidj muvaffaqiyatini ta‘minlash demakdir.

Yangi O‘zbekistonning xalqaro imidjini yuksaltirish, uning investisiyaviy va turistik jozibadorligini oshirish, jahon jamoatchiligi ko‘z o‘ngidagi nufuzini yuksaltirish masalalari – bugungi kunda nafaqat davlatimiz, balki mamlakatimizda istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning muqaddas burchi bo‘lmog‘i lozim. Jahon hamjamiyati ongu-fikrida, qarashlarida ijobiy obrazi yaratilgan mamlakatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy pozitsiyasi ham yuqori bo‘ladi va bu holatlar amalda o‘z isbotini topgan. Jahonning aksariyat davlatlari bu masalaga strategik darajada ahamiyat qaratayotganligi ham bejiz emas. Zero, bugungi kunda dunyo miqyosida davlatning qudrati va salohiyati faqatgina uning iqtisodiy va ishlab chiqarish salohiyatigagina bog‘liq emas. Eng asosiysi davlatning xalqaro hamjamiyat va jahon jamoatchiligi tomonidan qabul qilinishidir. Shs nsqtai-nazardan ham bugungi kunda dunyo qaytadan taniyotgan Yangi O‘zbekistonning imidjini yuksaltirish va uning xalqaro pozitsiyalarini mustahkamlash vazifasi davlat va jamiyatning, kerak bo‘lsa, har bir davlat organi va institutining, shaxsning muqaddas vazifalaridan biriga aylantira olsakkina, oldindagi ko‘zlagan maqsadimizga erisha olishimiz mumkin. Zero, bugungi dunyoda davlatning, mamlakatning halqaro imidjini yuksaltiradigan omillar shunchalik ko‘pki, ularning har birini chuqur tadqiqotlar va kreativ yondashuvlar asosida ro‘yobga chiqarishga nisbatan talablar tobora ortib bormoqda. Kerak bo‘lsa davlatning xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltiradigan PR texnologiyalardan ham samarali foydalanmoq lozimki, bu texnologiyalarning ahamiyati bugungi kunda borgan sari yuksalmoqda. PR sohasi ham jamoatchilikning ongini boshqarish jabhalarida, siyosiy yetakchining mavqeini mustahkamlashda, xalq orasida uning obro‘sin oshirishda, saylovlarda biror bir liderning yoki guruhning, siyosiy partiya yoki harakatning ustunligini ta‘minlashda keng qo‘llanila boshlagan. O‘z davrida sobiq ittifoqning qattol yetakchisi bo‘lgan Stalin rejissyorlar va ijodkorlarni — inson qalbining muhandislaril deya ta‘riflaganligi ham bejiz emas. Zero, davlat o‘sha davrda ham davlatning, mamlakatning, guruhning, partiyaning yoki ular tomonidan olib borilayotgan siyosatning ijobiy qiyofasini

shakllantirish uchun siyosiy PR ning eng asosiy targ'ibotchilari sifatida teatrlardan, muzeylardan, artistlaru suhandonlardan, adabiyotdan va axborotdan juda ustalik bilan foydalanganligi ham bir yo'nalish sifatida tan olingan.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ro'y berayotgan keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, so'z va e'tiqod erkinligini amalda ta'minlash borasidagi islohotlar jahon hamjamiyati tomonidan ijobiy baholanayotganligiga har biroimiz guvoh bo'lib turibmiz. Shu bilan bir qatorda, dunyo demokratik reytingida yuqori o'rinni egallaydigan davlatlar tomonidan ushbu ijobiy o'zgarishlar doimiy kuzatilib borilayotganligi, kerak bo'lsa, qo'llab-quvvatlanayotganligi, eng asosiysi mamlakatni bozor islohotlari va demokratiya jadal amalga oshirilayotgan davlatlar qatoriga kiritayotganligi ham asl maqsadlarimizga mos keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida **“Bugungi kunda O'zbekiston jahon siyosati markazlaridan biriga aylanayotgani, xalqaro hamjamiyat buni keng e'tirof etayotgani ham ayni haqiqatdir. Shanxay hamkorlik tashkiloti va Turkiy davlatlar tashkiloti sammitlari hamda o'nlab yuqori darajadagi xalqaro anjumanlarga mezbonlik qildik va muhim tashabbuslarni ilgari surdik. Bularning barchasi mamlakatimizning xalqaro nufuzi tobora ortib borayotganidan dalolat beradi”** – deya ta'kidladi.

Ushbu o'zgarishlar qatorida davlat imidji masalasi ham kun tartibidagi eng dolzarb mavzularimizdan biridir. Aynan ushbu mavzu nafaqat siyosiy fanlar, jurnalistika yoki xalqaro munosabatlarning, balki mamlakatda deyarli barcha fanlar va sohalarining eng muhim vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlashga ortiqcha hojat yo'q. Chunki, xalqaro maydondagi davlat imidji, nafaqat mamlakatning, balki xalqning farovonligi ortishi uchun muhim omil bo'lgan investisiya va kapital masalasini ham unutmazlik lozim. O'z vaqtida amerikalik iqtisodchi Kennet E. Boulding “mamlakat qiyofasi” terminiga ta'rif bergan va shu masalani alohida qayt etganki, “haqiqat emas, aslida qiyofa xulq-atvorni belgilaydi. Biz dunyoni qanday bo'lsa shundayligicha emas, aslida ko'z o'ngimizda qanday gavdalansa, shundayligicha qabul qilamiz” - degan edi.

Bu borada yana bir muhim hujjat, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son **“2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”**gi Farmonini ham misol keltirish mumkin. Mazkur Farmonning 98-maqsadi sifatida belgilangan vazifa, ya'ni:

Jahon hamjamiyatida mamlakatimiz imidjini oshirishga qaratilgan axborotlar yetkazish samaradorligini oshirish. «Dunyo» axborot agentligi faoliyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash choralari ko'rish.

Jahondagi yetakchi axborot agentliklari bilan hamkorlikni yanada jadallashtirish.

O'zbekiston imidjini jahon sahnasida ilgari surishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar majmuini tayyorlash va amalga oshirish, mamlakatimizda islohotlarning

borishi, jamiyatni demokratik yangilash jarayonlari haqida xolis axborot tarqatishning samarali davom ettirish kabilarni alohida keltirish mumkin.

Ma'lumki, zamonaviy jahon siyosatida davlatlarning harbiy qudrati, uning tabiiy resurslarga boyligi, iqtisodiy rivojlanganligi kabi "qudrat"ning o'rnini bugungi kunda kommunikatsiyalarning rivojlanganligi, diplomatik uslublarining takomillashganligi, xalqaro maydonda o'zini ijobiy obrazani yarata olishga qaratilgan "yumshoq kuch" egallaganligini alohida qayd etishimiz kerak. shuning uchun ham jahon siyosiy maydonida davlatning imidji juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Bu esa davlat organlari oldiga xalqaro maydonda o'z davlatining imidjini shakllantirish va yuksaltirish borasida yangidan-yangi vazifalarni qo'yimoqda. Ayniqsa, har bir davlat organi, tashkiloti va kerak bo'lsa, boshqaruvchilar va rahbarlar oldiga imidj siyosatini takomillashtirish va boshqarish ehtiyojini orttirmoqda. Biroq, savol tug'iladi, davlatning xalqaro maydondagi imidjini yuksaltirishning qanday omillari mavjud? Davlat tashkilotlari, sohalar, hududlar va tarmoqlar rahbarlari tomonidan davlatning imidjini yuksaltirish uchun qanday vazifalarni bajarmoqliklari lozim? Shu va boshqa savollarga javob berishga mazkur ishda harakat qilamiz. Umuman olganda, davlat imidji mavzusi borasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan, turli konsepsiyalar yaratilgan. Shunday tadqiqotlar ichida amerikalik marketingchi, imidjmeyker olim Filipp Kotlarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Uning bir qancha hammualliflar tomonidan yozilgan "O'zlik, pozitsiyani ko'rsata bilish, brendning imidji va brend kapitali qiyosi" (Identity, Positioning, Brand Image and Brand Equity Comparison) nomli maqolasida davlat yoki makonning imidji tushunchasiga nisbatan shunday ta'rif berilgan, ya'ni u "odamlarning davlatga (yoki o'sha makonga) nisbatan ishonchlari, qarashlari va taassurotlari yig'indisidir", shuningdek, ikkinchi ta'rifda "o'sha makon bilan bog'liq tushunchalar va axborotlarning, ko'p sonli o'xshatmalarning soddalashtirilgan umumlashmasidir".

Umuman olganda, turli olimlar garchi davlat imidjiga turlicha ta'rif bersalarda, unga nisbatan oddiy ta'rif bilan cheklanish mumkin: "Davlat imidji – xalqaro maydonda va jahon jamoatchiligi ongida davlat haqida, uning islohotlari va samaradorligi, inson huquqlarining ta'minlanganligi, so'z va e'tiqod erkinligi borasida shakllangan ijobiy fikrlar va qarashlardir". Demak, O'zbekistonning ham xalqaro maydondagi imidjini yuksaltirishning eng asosiy omili – bu O'zbekiston haqida jahon jamoatchiligi ongida faqat va faqat ijobiy qarashlarni shakllantirishdir. Buning uchun esa avvalo, O'zbekistonning o'z ijobiy obrazini, qiyofasini shakllantirish bilan bog'liq erishgan yutuqlarini mustahkamlash, davom etirish va yangi uslub va vositalardan foydalanish, bor diplomatik va madaniy arsenalardan foydalanish o'ta muhim vazifalardandir. Davlatning imidjini ma'lum bir qisqa davrda yaxshilashning, yuksaltirishning imkoni yo'q, yoki juda murakkab masaladir. Chunki, unga tarixiy omillarning ta'siri katta bo'ladi.

Ma'lumki, O'zbekiston mustaqil davlat sifatida shakllanganligi XX asrning 90-yillariga to'g'ri kelgan edi. Bu davrda jahon jamoatchiligining e'tibori, SSSRning parchalanishi, Yevropada socialistik lager davlatlarining G'arb tomonga o'tishi, Iroq urushi va boshqa jarayonlarga qaratilgan bo'lib, shakllanayotgan yosh

davlatlar haqida batafsil va xolis axborotlarni, ma'lumotlarni olishining imkoniyati yo'q edi. Shu bilan bir qatorda, mustaqillikni qo'lga kiritgan bo'lsada, kattadankatta ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy muammolar qo'rshovida qolgan yangi davlat avvalo, o'z mustaqilligini mustahkamlashga kirishganligi, buning uchun ijro hokimiyatiga ba'zi favqulodda vakolatlar berganligi, turli kuchlar qo'llab-quvvatlashi natijasida yosh mamlakatning hayotini izdan chiqarishga harakat qiladigan turli destruktiv kuchlarga qarshi kurashganligi va buning natijasida jahon jamoatchiligi ongiga "totalitar tuzum" sifatida ko'rsatilganligi kabilar 25 yil davomida O'zbekiston haqida ko'plab salbiy fikrlarni vujudga kelishiga sabab bo'lgan edi. Bundan tashqari, xolisona aytganda, bunday murakkab jarayonlarda ijro hokimiyati va uni mustahkamlashga qaratilgan ba'zi bir tuzilmalarning ham o'z vakolatlarini haddan ortiq oshirib yuborganligi, inson huquqlarining buzilishi kabi amaliyotning odatiy tusga kirganligi, so'z erkinligi va plyuralizm bug'ilganligi kabi tendensiyalar ham kuzatilganligi ham davlatning siyosiy imidjiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. Dunyo esa bu jarayonlarni doimiy kuzatar va kerak bo'lsa, turli OAVlar orqali bo'rttirib ko'rsatar, xorijdagi muxolifat "yaxshigina" qo'llab-quvvatlanar va ular tomonidan O'zbekistonga nisbatan jadal axborot xurujlari ham amalga oshiriladi edi. Tabiiy, bunday murakkabliklar sharoitida O'zbekistonning davlat sifatidagi imidjini, ijobiy obrazini shakllantirishning imkoni topilmagan edi.

O'zbekistonda 2016-yilda davlat hokimiyatida o'zgarishlarning ro'y berishi, aniqrog'i, almashinuvi bilan bog'liq siyosiy jarayonlarda mamlakatning imidji yuksalishi bilan bog'liq vaziyat ham o'zgara boshladi. Bu kutilmagan holat edi. Ko'pchilik davlatlar, siyosatchilar va ekspertlar Prezident bo'lib saylangan Shavkat Mirziyoyevni oldingi Prezident Islom Karimovning qattiqqo'l siyosatini davom ettiradi deb hisoblar va O'zbekistonda demokratik o'zgarishlardan umid ham yo'q edi. Lekin vaziyat kutilganidek rivojlanmadi. O'zining jadal islohotchiligi, boshqaruvda liberal, lekin samaradorligi, demokratligi, kuch tuzilmalariga emas, balki xalqning ishonchiga tayanishi bilan ish boshlagan "yangi Prezident" tezda jahon davlatlarining, ayniqsa, O'zbekistondagi hayotni doimiy kuzatib boruvchilarning e'tiboriga tushdi va ularning barchasi tomonidan davlatda boshlangan "demokratiya va erkinlik" e'tirof etila boshlandi. Ammo, bu yerda davlat va jamiyat xavfsizligi, hokimiyat barqarorligi, tashqi xavf-xatarlar, me'ros qolgan kuchli ijtimoiy muammolar va larzalar bor edi. Bunday muammolarga qarshi kurashish, davlatchilikka nisbatan vujudga kelgan tahdidlarga qarshi kurashish, bir vaqtning o'zida esa endigina kurtak yoza boshlagan demokratiya va erkinlik yo'lini davom ettirish ham murakkab masalalar qatoriga kiradi edi. Tan olish kerakki, prezident Shavkat Mirziyoyev oldida o'sha paytda ikki yo'l bor edi:

Birinchisi, o'zidan oldingi Prezident Islom Karimovning avtoritar siyosatini davom ettirish, kuch tuzilmalari yordamida qattiqqo'l boshqaruvni qo'llagan holda, o'z hokimiyatini mustahkamlash;

Ikkinchisi, butunlay yangi islohotlarni boshlash, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, xalqaro hamjamiyat ongida shakllangan stereotiplarga barham berish, garchi, og'ir va xatarli bo'lsada, haqiqiy demokratiya sari dadil qadam qo'yish.

Barchamiz guvohimizki, Shavkat Mirziyoyev ikkinchi yo'lni tanladi. Xalqni erkinlik sari boshladi, so'z va vijdon erkinligi ta'minlashga, qatag'onchilik boshqaruvidan butunlay voz kechishga, majburiy mehnatdan tortib, davlat apparatining kuch bilan boshqaruv tamoyillariga barham berishga, eng asosiysi, jahon miqyosida O'zbekistonning davlat imidjini yuksaltirishga jiddiy bel bog'ladi. Bu yo'lda davlat va boshqaruv sohasi juda katta qiyinchiliklarga, murakkabliklar, jiddiy muammolarga duch kelganligi hech birimizga sir emas. Ayniqsa, oldingi boshqaruvdan me'ros bo'lib qolgan "tuzumga" qarshi kurashish, demokratiya va erkinlikdan manfaatdor bo'lmagan eski elitaning qarshiligini yengib o'tish, hokimiyatga bo'ladigan tahdidlarni bartaraf etish masalasi juda og'ir kechdi. Lekin, Shavkat Mirziyoyevning tirishqoqligi, prinsipiialligi va eng asosiysi, har qanday siyosiy kuchlar bilan til topisha olish qobiliyati tufayli jahondagi siyosiy ta'sirga ega ko'pgina davlatlar O'zbekistondagi islohotlarni qo'llab-quvvatladi.

O'sha vaqtda garchi, deyarli 100 yil davom etgan siyosat, ya'ni qishloq xo'jiligi va paxta yetishtirish kampaniyasiga ijtimoiy soha xodimlarini va maktablar o'quvchilarini, texnikumlar va OTMlar talabalarini majburiy mehnatga jalb qilish siyosatiga chek qo'yish to'g'risidagi qaror nechog'li murakkab bo'lgan bo'lsa-da, prezident tomonidan bunday qaror qabul qilindi va u O'zbekistonning demokratlashayotgan davlat sifatidagi imidji yuksalishiga juda katta turtki bo'ldi. Ayniqsa, Prezident tomonidan O'zbekistondagi boshqaruv bo'g'inida ishlayotgan boshqaruvchilar, rahbarlarga qo'ygan eng katta talabi, bu ham bo'lsa, xalqni rozi qilish va noan'anaviy ish uslubiga o'tish (uzoq yillar davomida rahbarlar xalqdan uzilib qolgan bo'lib, ular faqatgina kabinetda o'tirib ishlash rejimiga moslashgan edi) borasidagi tashabbuslari xalq tomonidan juda katta entuziazm bilan qabul qilindi. Butun xalqning qo'llab-quvvatlashiga erishgan Prezidentning va davlatning xalqaro imidji endi tobora yuksalib bora boshladi. Shuni alohida qayd qilish lozimki, bugungi kunga qadar ko'plab rahbarlar, ya'ni viloyat va tuman hokimlari, vazirlar, qo'mitalar rahbarlari va hokazolar butunlay yangicha fikrlaydigan, yangicha ishlaydigan, ko'pchiligixorijda ishlagan va keng miqyosli tafakkurga ega rahbarlardan hukumatni shakllantirish ishlari davom etmoqda. Bu borada ham davlatimiz rahbari yuqorida tilga olingan Murojaatnomada **"Birinchii bosqichda vazirliklar isloh qilinadi, Hukumat ish uslubi ham tubdan o'zgaradi. Eng avvalo, vazirlik va idoralar soni hozirgi 61 tadan 28 taga kamaytiriladi. Endi har bir vazirlik tegishli sohada davlat siyosatini amalga oshirishga mas'ul bo'lib, tarmoq tarkibidagi qo'mita, agentlik va inspeksiyalarga rahbarlik qiladi. Ko'p vazirlar o'zgaradi. O'z sohasining chuqur bilimdoni, fidoyi va ishidan xalq rozi bo'layotgan vazirlar lavozimida qoladi. O'ylaymanki, bunday yondashuv adolatli bo'ladi"** deya alohida ta'kidladi va oldinda turgan strategiyani amalga oshirishning muhim vazifalarini belgiladi.

Misol sifatida, bugungi kun rahbarlarining davlat imidjiga ko'rsatadigan salbiy va ijobiy ta'sirining nihoyatda yuqori ekanligini alohida e'tirof etmoq joiz. Mamlakatimizning tabiiy resurslarga boy bo'lishiga, iqlim jihatdan jannatmonand ekanligiga, taraqqiyot uchun, dunyoda munosib o'ringa ega bo'lish uchun barcha imkoniyatlarga ega ekanligiga qaramasdan tobora taraqqiy etib borayotgan

davlatlardan anchayin ortda qolayapmiz va buni ochiqchasiga tan olishimiz lozim. Buning ko‘plab sabablari bo‘lsada, ularning ichida asosiysi bu - turli bo‘g‘inlardagi rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyati nihoyatda pastligi, boshqaruv va rahbarlik ilmiga ega emasligi, ularni tanlash va tayinlash tizimi qoloqligi yoki milliy mentalitetimizning “salbiy xususiyatlari” ta’siri asosida lavozimlarga, mas’uliyatli ishlarga “tavsiya qilinishi” kabilardir. Davlat tomonidan ishlab chiqiladigan va amalga oshirilishiga juda katta umidlar bilan qaraladigan megaloyihalarning barbod bo‘lishining asosiy sababi ham aynan rahbar kadrlarni tanlash va ular bajara olmaydigan vazifalarni yuklash ekanligini alohida qayd etishimiz lozim. Uchinchi darajali kadrlarga birinchi darajadagi vazifalarni, shuningdek, birinchi darajadagi kadrlarga esa uchinchi darajadagi vazifalarning yuklatilayotganligi masalalarini chuqur o‘rganmasak, tahlil qilmasak va xatolarni tuzatmasak, dunyoning qoloq davlatlari safida o‘rnimiz “mustahkamlanib” boraveradi.

Demak, rahbarlarda boshqaruv salohiyatini rivojlantirish, donolarimizning ta’biri bilan aytganda “o‘zida bor” mukammal kadrlarni avvalo, yetishtirish va ma’lum bir sinovlardan so‘nggina, mas’uliyatli lavozimlarga tayinlash masalasi davlatimizning strategik vazifasi sifatida belgilash lozim. To‘g‘ri, kadr tanlash masalasi juda murakkab jarayon va ulkan mas’uliyatdir. Lekin, murakkabligi yoki qiyinligi uchun salohiyatli kadrlarni tanlash borasida xatolargaga yo‘l qo‘yish, – bu millat va xalq uchun halokat darajasida qaralishi kerak. Zero, “globallashuv sharoitida rahbardan talab qilinayotgan yana bir xislat uning o‘z atrofida sog‘lom fikrlovchi, izlanuvchan, tadbirkor va ishbilarmon kishilarni jalb etishi va jamlashida ko‘rinadi. Bunday rahbar yangilikka intiluvchi, kuchli yetakchidir. Tashabbuskorona ish qaynab turgan joyda esa muhit ham sog‘lom, odamlarning kayfiyati ham yaxshi bo‘ladi”.

Garchi, so‘nggi yillarda mamlakatimizning rivojlanishning tamomila yangi bosqichi, uchinchi Renessans davrini boshdan kechirayotganligi munosabati bilan aynan rahbar kadrlar tayyorlash, ularning boshqaruv, psixologik, ma’naviy, siyosiy salohiyatini yuksaltirish va ularni doimiy monitoring qilib borish, davlat fuqarolik xizmatini, shu jumladan nomzodlarni ochiq mustaqil tanlov orqali saralab olish, davlat fuqarolik xizmatchilarining ish samaradorligi va kompetensiyasini baholovchi mezonlarni, ularning malakasini oshirishga bo‘lgan talablarni belgilash borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda ham.

Bularga misol tariqasida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5139-son Farmonini, 2017-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5264-son Farmonini, 2019-yil 3-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son Farmonini, shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4472-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi

O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022 yil 23 dekabrda Farmoni kabilarn misol sifatida keltirish mumkin [9].

Ammo, muhimi shundaki, ushbu qarorlar va Farmonlarning ijrosini tarmoq, soha va hudud rahbarlari, shuningdek, quyi tashkilotlar boshqaruv bo‘g‘ini lavozimlarida faoliyat ko‘rsatayotgan rahbarlar tomonidan chuqur aqlga va tafakkurga tayangan holda, bilim va kompetensiyani ko‘rsata olish yo‘li bilan amalga oshira olishidir. Shu yo‘l bilangina oldindagi maqsadlarga erishish mumkin.

Umuman olganda, rahbarlik uchun juda katta talablar qo‘yildi va barcha bo‘g‘in rahbarlari endi bu sharoitga moslasha boshladi. Byudjet siyosatining nomarkazlashtirilishi hisobiga mahalliy hokimiyat organlari faoliyatidagi samaradorlik ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Ayniqsa, rahbar kadrlar bilan ishlaydigan, ularni tayyorlash, tanlash va tayinlash tizimi bilan ishlaydigan tuzilmalar tashkil qilindi va endi bevosita rahbar kadrlar va boshqaruv organlari faoliyatidagi ijobiy o‘zgarishlar mamlakatning xalqaro imidji yuksalishining garovi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa tarzida aytish mumkinki, bugungi kunda davlat imidjini yuksaltirish vazifasi ham iqtisodiyot, sanoat, ishlab-chiqarish, qishloq xo‘jaligi, madaniyat va sport kabi O‘zbekistonning eng muhim strategik masalalaridan biri hisoblanadi. Davlat imidjini yuksaltirish, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘sin, nufuzini oshirish faqatgina Prezidentning emas, balki, davlat boshqaruvining turli bo‘g‘inlarida ishlayotgan, hudud, tarmoq va sohalar boshqaruvida faoliyat yuritayotgan rahbar kadrlarning, deputatlar va turli ijtimoiy soha vakillarining ham asosiy vazifalaridan biriga aylanib ulgurdi. Shuning uchun ham O‘zbekistonning davlat sifatidagi imidjini yuksaltirish, jahon hamjamiyati ko‘z o‘ngida uning ijobiy qiyofasini shakllantirish nafaqat rahbarlarning, balki xalqimizning barcha qatlamlarining muqaddas burchi ekanligini anglab yetmoq va bu yo‘lda juda katta jonbozlik ko‘rsatmoq lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. 86 let nazad fraza «Injenerы chelovecheskix dush» stala kыylatoy. <https://kikonline.ru/2018/10/26/86-let-nazad-fraza-inzheneryi-chelovecheskih-dush-stala-krylatoy/>
2. P.Makmillan, B.Xempshir va J.D.Martin “Factors influencing destination image”. https://www.researchgate.net/publication/321191086_Factors_Influencing_Destination_Image_in_Distant_Culture_Countries_The_Role_of_Corporate_Image
3. Mirziyoyev Shavkatning “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi”. 20.12.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
4. Graver A.A. Obraz, imidj i brend strany: ponyatiya i napravleniya issledovaniya // Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo universiteta. Filosofiya. Sociologiya. Politologiya. 2012. № 3 (19). C. 29-45;

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
6. Identity, Positioning, Brand Image and Brand Equity Comparison. December 2017Independent Journal of Management & Production 8(4):1246.
7. Mirziyoyev Shavkatning “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi”. 20.12.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
8. A.Xolov “Zamonaviy rahbar qanday bo‘lishi kerak?”. <http://biznes-daily.uz/uz/gazeta-birja/52823-zamonaviy-rahbar-qanday-bulishi-karak>
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 23 dekabrda “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://president.uz/uz/lists/view/5789>

**IV BOB. DAVLAT TASHQI SIYOSATI VA XALQARO
TASHABBUSLARINING O‘ZBEKISTON XALQARO IMIDJINI
YUKSALTIRISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI
4.1. TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDAGI
FAOLIYAT.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyov tomonidan joriy yilning 30-yanvarida imzolangan “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon bilan tasdiqlangan strategiyaning 98-maqсадda “Jahon hamjamiyatida mamlakatimiz imidjini oshirishga qaratilgan axborotlar yetkazish samaradorligini oshirish.....O‘zbekiston imidjini jahon sahnasida ilgari surishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar majmuini tayyorlash va amalga oshirish, mamlakatimizda islohotlarning borishi, jamiyatni demokratik yangilash jarayonlari haqida xolis axborot tarqatishning samarali davom ettirish” vazifalari belgilangan bo‘lib, ushbu maqsadlar O‘zbekistonning xalqaro maydonda imidjini yanada mustahkamlash bilan bog‘liq vazifalarni o‘z oldiga qo‘yadi.

Davlatning xalqaro hamjamiyat oldida obro‘cini va nufuzini yuksaltirish bilan bog‘liq siyosatini takomillashtirishning usullari va yo‘nalishlari haqida gapirganda, albatta uning xalqaro tuzilmalardagi faoliyatini alohida qayd etmoq joiz. Zero, davlatning qudratini, salohiyatini, jahon siyosiy maydonidagi pozitsiyasini mustahkamlaydigan omil – bu aynan uning imidjini yuksaltirishdir. Ma‘lumki, bugungi kunda O‘zbekiston BMT, ShHT, IHT, Turkiy davlatlar tashkiloti, MDH va hokazo tuzilmalarga a‘zo ekanligi, ular doirasida o‘ta samarali ikki va ko‘ptomonlama diplomatiya olib borayotganligi bugungi kunda hech birimiz uchun yangilik emas.

Bu yo‘nalishning istiqbolli tomonlarini chuqur ilmiy izlanishlar yordamida o‘rganish, tadqiq qilish, zamonaviy imidjeologiya uslublari va vositalari yordamida mamlakatning imidjini yanada yuksaltirish masalalari mamlakatimiz olimlari va mutaxassislarining bugungi kundagi muhim masalalaridan biridir.

So‘nggi vaqtlarda tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgan, nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki, butun turkiy dunyo uchun muhim bo‘lgan Turkiy davlatlar tashkiloti haqida alohida to‘xtalib o‘tish kerak bo‘ladi. Unchalik uzoq muddatli tarixga ega bo‘lmasada, ushbu tashkilot barcha Turkiy tilda so‘zlashuvchi, turkiy tilli xalqlar madaniyatini o‘zida aks ettiradigan, milliy va etnik o‘yg‘onishga xizmat qiladigan, turkiy davlatlar o‘rtasidagi madaniy, siyosiy, iqtisodiy va gumanitar aloqalarni tobora rivojlantirishga qaratilgan ushbu tashkilot O‘zbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tashkilot doirasida O‘zbekistonning xalqaro imidjini yuksaltirish, tashkilot nufuzi va salohiyatidan davlatimizning obro‘cini, nufuzini yuksaltirishda foydalanish masalalarini alohida o‘rganish, bu yo‘lda puxta diplomatik qarashlarni shakllantirish, turli uslublarni ishlab chiqish masalalari ham kun tartibidagi muhim masalalar qatoridan joy olmog‘i lozim.

Garchi, O‘zbekiston tashkilot doirasida uzoq muddatli tarixga ega bo‘lmasada (mamlakatimiz mazkur tashkilotga 2019-yilning sentabr oyidan rasman a‘zo hisoblanadi), o‘zining demografik, iqtisodiy, jo‘g‘rofiy, salohiyati bilan tashkilot davlatlari o‘rtasida alohida maqomga ega. Chunki, dunyo miqyosida bugungi kunda Turkiy millatlarning umumiy soni 200 mln.dan ortiqni tashkil qilsa, ular ichida 35 mln. nafar atrofidagi aholi soniga ega bo‘lgan O‘zbekistonning ulushi va hissasi nihoyatda yuqori.

Shu bilan bir qatorda, ilgari Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi deb nomlangan ushbu tashkilot (2009-yilning 3-oktabr sanasida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashini tuzish to‘g‘risidagi Naxichevan Bitimiga muvofiq) O‘zbekistonning a‘zoliqi bilan yanada imkoniyatlari va jo‘g‘rofiyasi kengaydi, iqtisodiy va demografik salohiyati ortdi, tashkilotning nufuzi yanada yuksaldi. Bunday sharoitda tashkilotning O‘zbekiston uchun ahamiyatini ham oshirish masalasi muhimdir.

Ma‘lumki, tashkilotning asosiy maqsadi – mamlakatlar o‘rtasidagi har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish ekanligidan kelib chiqsak, o‘z tarkibiga O‘zbekiston, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Turkiyani oladigan ushbu tuzilmada (Vengriya kuzatuvchi, Turkmaniston esa kuzatuvchi davlat maqomida) mamlakatimizning xalqaro manfaatlarini himoya qilish va undan iqtisodiy, investitsion, moliyaviy, ijtimoiy, siyosiy imkoniyatlarini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirib o‘tganimizdek, a‘zo bo‘lganligiga unchalik ko‘p bo‘lmagan bo‘lmasada, tashkilot a‘zolarining mamlakatimizga munosabati, qiziqishi yuqori bo‘layotganligini alohida e‘tirof etmog‘imiz lozim. Tashkilotning bo‘lib o‘tadigan sammitlarida savdo, investitsiyalar, «yashil» iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, transport va kommunikatsiyalar, ta‘lim hamda madaniyat sohalaridagi ko‘p qirrali munosabatlarni har tomonlama kengaytirish, shuningdek, mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqiladi va doimiy muhokama qilinadi. Rasmiy statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2020-yilda Kengashga a‘zo davlatlarning jami importi 420 milliard dollarga teng bo‘lgan, ular o‘rtasidagi o‘zaro mahsulot yetkazib berish hajmi esa 21 milliard dollarni tashkil etgan. Bu esa hali foydalanilmayotgan imkoniyatlarning naqadar kengligi, raqamlarni oshirish uchun barcha sharoitlarning mavjudligi, 420 milliard dollarlik importning o‘rnini ichki resurslar hisobidan qoplashga erishish masalalari va bu jarayonlarda O‘zbekistonning ham sanoat va ishlab chiqarish ulushini oshirish, o‘zaro davlatlararo kooperatsiyalarni rivojlantirish, korporativ boshqarishga asoslangan tizimlarni joriy qilish va takomillashtirish lozimligini ko‘rsatib turibdi.

Ayniqsa, kelajakda katta ehtimol bilan Tojikiston ham sammitlarda ishtirok etishi mumkinligi, dunyoning ko‘plab mamlakatlaridagi turkiy millatlar bilan ham madaniy- gumanitar aloqalarni rivojlantirish imkoniyatlari kabilar Tashkilotning xalqaro nufuzi, imidji yuksalishiga xizmat qilishi tabiiy.

Ta‘kidlash o‘rinliki, turkiy tilli xalqlarning bu tarzda birlashishlari, birinchidan, istiqbolda Yevropa va Osiyoni bog‘laydigan Turkiyadan boshlab, Markaziy Osiyoga qadar yangi transport hamda energetika kommunikatsiya

tarmog'ini yaratishga bo'lgan ishonchni vujudga keltirsa, ikkinchidan, xavfsizlik va hamkorlik masalalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Markaziy Osiyoning teng o'rtasidagi joylashgan O'zbekiston uchun ham bu imkoniyatlar nafaqat iqtisodiyotini, transport-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirishni, balki umumiy jarayonlarda jadal rol o'ynashiga imkon yaratadi. Bu esa o'z-o'zidan davlatimizning, mamlakatimizning xalqaro imidji yuksalishining asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi.

A'zo davlatlar o'rtasida savdo aloqalarini kengaytirish uchun birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan qulay shart-sharoitlar yaratish, tashkilotning iqtisodiy mustaqilligi va farovonligini ta'sinlash, bu yo'ldagi barcha global xurujlarga qarshi hamkorlikda kurasha olish singari istiqbolli loyihalarni qo'lga kiritishlari uchun asos bo'ladi. Ma'lumki, Markaziy Osiyo mintaqasi uchun eng og'riqli masalalar qatorida, chegara, suv, millatlararo ziddiyatlar va migratsiya kabi muammolarni sanab o'tishimiz mumkin. Tashkilotning imkoniyatlaridan bunday muammolarning asl ildizi bilan kurashish, balki eng katta fojia bo'lgan Afg'on muammosining yechimi uchun ham katta ta'sir mexanizmlarini ishlab chiqishga sharoit yaratilishi mumkinligini ham istisno qilmasligimiz darkor.

Shuningdek, Tashkilotning mavjudligi va samarali faoliyati yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq jarayonlar a'zo mamlakatlarning qandaydir geosiyosiy ambitsiyalar qurboniga aylanishining, yaratilayotgan transmilliy loyihalar faoliyatida ishtirok etayotgan boshqa xalqaro kuchlar bosimiga qarshi turishining oldi olinishi kafolati sifatida ham qaralishi maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, XXI asrning murakkab global sharoitida davlatchilikni saqlab qolish va mustahkamlash nihoyatda dolzarb masala. Turkiy tilli davlatlar ham ushbu murakkabliklardan kafolatlanmagan. Ayniqsa, so'nggi vaqtlarda Markaziy Osiyoda, ya'ni Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasidagi qonli ziddiyatlar, Janubiy Kavkazdagi, ya'ni Ozarbayjon va Armaniston o'rtasidagi uzoq yillik nizo natijasida katta miqyosdagi kulfatlarga duchor bo'lgan Ozarbayjonni tiklash, uning jafokash qochqinlarini o'z hududlariga, tarixiy vatanlariga qaytarish masalalari ham bugunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lmoqda.

Shular bilan bir qatorda, Markaziy Osiyoda joylashgan davlatlarda kuchayish ehtimoli bo'lgan diniy radikalizm va ekstremizmning oldini olish, unga qarshi birgalikda samarali kurash olib borish, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda Turkiy davlatlar tashkiloti imkoniyatlarini, salohiyatini oshirish ham muhim vazifadir. Bu borada O'zbekistonning uzoq yillik tajribalarini ommalashtirish, hamkor davlatlar bilan erishilgan yutuqlarni barham ko'rish – davlatimizning imidji yuksalishining bosh omili ekanligini aslo unutmaslik lozim. Zero, global madaniyatning salbiy asoratlari tarqalishi va qadriyatlar yemirilishi jarayoni kechayotgan bir davrda tashkilotga a'zo davlatlar xalqlarining madaniy o'ziga xos jihatlarni saqlab qolish ham bugungi kunning eng katta muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Albatta, globallashtirish yo'liga qadam qo'ygan davlatlar hamda jahonning yetakchi mamlakatlari bilan samarali hamkorlik o'rnatish ilm-fan, ta'lim, shaharsozlik va texnologiya rivojiga foydali ta'sir ko'rsatishi aniq. Qolaversa, bu

iqlim o'zgarishi, atrof-muhit muammolarini hal etish va sobiq ittifoqqa a'zo bo'lgan davlatlarning "yashil" iqtisodiyotga o'tishida ko'mak hamdir. Ayniqsa, texnologik jihatdan bir muncha rivojlangan Turkiyaning ilmiy, sanoat, ishlab chiqarish va investitsion imkoniyatlarini tashkilotga a'zo davlatlar taraqqiyoti uchun tajriba sifatida ham yo'naltirish, bu borada

Umuman olganda, mintaqaviy jarayonlarda ishtirok etayotgan aksariyat mamlakatlarda mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy manfaatlar mushtarakligi mavjud. Qolaversa, Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar bir vaqtning o'zida YeOI va ShHTga a'zo ekanliklari hisobga olinsa, barcha tomonlar munozarali masalalarni qiyinchilik bilan bo'lsa-da, hal etish imkoniyatiga egadir.

Shuni ta'kidlash lozimki, hozircha Turkiy davlatlar tashkiloti faoliyatida sezilarli natijalarga erishilmagan. Buning o'ziga xos sabablari bo'lib, birinchidan, tashkilot hali yosh, ikkinchidan, tashkilotga a'zo davlatlar turli "geosiyosiy aktorlar" ta'siridan to'liq chiqib keta olmagan, uchinchidan, a'zo davlatlarning barchasi iqtisodiy jihatdan juda taraqqiyotga erishgan emas. Bu holatlar esa Turkiy davlatlar tashkilotining qisqa vaqtda ko'pchilik tomonidan tanqid qilinayotganidek "mo'jiza" ko'rsata olmayotganligining asosiy sabablaridan biri sifatida e'tirof etishimiz mumkin. O'tgan yillar davomida mazkur tuzilma hamkorlikni chuqurlashtirish asosi bo'lmish institutsional mexanizmlarni yaratish bilan ko'proq shug'ullanishga, taraqqiyotning turli modellariga murojaat qilishga ham majbur bo'lmoqda.

Tashkilotning asosiy vazifalardan kelib chiqadigan bo'lsak, ayniqsa, savdoiqtisodiy sohada istiqbolni ko'rish mumkin. Yevroosiyo makonidagi boshqa ko'plab tashkilotlar singari hozircha pozitsiyalardagi tafovut hisobga olinsa, u yakuniy maqsad nima ekanligini aniq belgilay olmaydi. Tashkilot turli sohalarda hamkorlikni rivojlantirishi mumkin. Lekin O'zbekiston bu yerda nafaqat tashkilotning, balki o'zining ham imidjini ham yuksaltirish borasida jadal ishlarni amalga oshirmog'i lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Skolko vsego v mire vas-nas tyurkov? www.turkishnews.com/ru/content/2013/04/26/Skolko-vsego-v-mire.
2. Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi o'zaro ishonchga bir qadam. <https://uza.uz/uz/posts/turkiy-tilli-davlatlar-amkorlik-kengashi-zaro-ishonchga-yana17-09-2019>.
3. O'zbekistonning Turkiy kengashga a'zo bo'lishi-tabiiy va tarixiy jarayon <https://uza.uz/uz/posts/zbekistonning-turkiy-kengashga-azo-b-lishi-tabiiy-va-tarikhi15-10-2019>.
4. O'zbekiston Prezidenti turkiy tilli davlatlarning ko'p qirrali hamkorligini kengaytirish bo'yicha muhim takliflar bildirdi <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonprezidenti-turkiy-tilli> 12.11.2021.
5. O'zbekiston Prezidenti turkiy tilli davlatlarning ko'p qirrali hamkorligini kengaytirish bo'yicha muhim takliflar bildirdi <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonprezidenti-turkiy-tilli> 12.11.2021.

4.2 Mamlakatning xalqaro imidjini yuksaltirishda YUNESKO ning o‘rni va roli

Dunyo miqyosidagi eng nufuzli xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘lish, ularning faoliyati takomillashuviga, rivojlanishiga hissa qo‘shish, tashkilotlar tomonidan qaror qabul qilish va ma‘lum bir dasturlar ijrosida ishtirok etish har qanday mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzi ortishining asosi bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston bugungi kunda bu borada katta yutuqlarni qo‘lga kiritganligi, dunyo hamjamiyati tomonidan munosib e‘tirof etilayotganligini qayd etmoq joiz. Ayniqsa, jahon miqyosidagi shunday nufuzli xalqaro tashkilotlardan biri bo‘lgan YUNESKO bilan hamkorlik aloqalarining o‘rnatilishi natijasida O‘zbekistonni jahon tanishi va ko‘xna madaniyatning vorislari sifatida tan olishlarining asosiy omili bo‘ldi desak, hecham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ma‘lumki, ikkinchi jahon urushidan keyin dunyo madaniy me‘rosini asrab qolishni maqsad qilgan xalqaro tashkilotning vujudga kelishi va uning bugungi kunga qadar olib borgan faoliyati albatta insoniyat oldida tahsinga loyiq. Ammo, 1993-yilning 29-oktyabrida O‘zbekistonning ham mazkur tashkilotning a‘zosiga aylanishi esa mamlakatimiz uchun haqiqatda olamshumul voqelik sifatida e‘tirof etishimiz joiz. Tashkilot faoliyatida o‘zining insonparvarligi bilan e‘tirof qozongan, haqiqiy ko‘xna madaniyat me‘rosini saqlab qola bilayotgan xalq va davlat bo‘lgan O‘zbekistonda 1996-yilga kelib tashkilotning vakolatxonasi ochilib ish boshlagan. O‘sha vaqtlarda endigina dunyoga ochilayotgan, jahon xalqlari tomonidan hali to‘liq tanilib ulgurmagan O‘zbekiston uchun YUNESKO bilan hamkorlik, unga dunyo uchun tanilish, e‘tibor qozonish uchun yangi yo‘nalishlarni, yangi gorizonlarni, yangi muvaffaqiyatlarni ochdi, taqdim qildi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekistonning xalqaro maydondagi e‘tirofi, imidji va nufuzi yuksalishining yana bir muhim shunda ediki, O‘zbekiston tashkilot faoliyatida faol va samarali ishtiroki uchun 1997-yilga kelib YUNESKO tashkiloti a‘zo davlatlari mamlakatimizni 4 yilga tashkilotning rahbar organi - Ijroiya Kengashiga sayladilar. Bu esa tobora jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashib borayotgan O‘zbekiston uchun katta muvaffaqiyat edi. Mamlakatni dunyo taniy boshladi, uni e‘tirof eta boshlagan edi. Bunday ayniqsa, o‘zaro tashriflar ham alohida ahamiyat kasb etardi. O‘zbekiston rahbariyatining o‘sha davrlarda YUNESKO shtabkvartirasiga, shuningdek, YUNESKO Bosh direktorining O‘zbekistonga tashriflari har ikki tomon o‘rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqar va yanada hamkorlik ufqlarini kengaytirar edi. Eng muhimi 2009-2013-yillar oralig‘ida O‘zbekiston ikkinchi marta ham YUNESKO Ijroiya Kengashiga saylangan edi.

Bunday yutuqlar, aslida nafaqat tashqi siyosatning xosilasi, balki mamlakatimiz imidjining asosiy omili edi. Buning natijasida O‘zbekistonni jahon mamlakatlari yaqindan taniy boshladi, mamlakatga nisbatan qiziqishi tobora ortib bordi, ko‘plab turistlar O‘zbekistonga tashrif buyurar, mamlakatda ko‘plab madaniyat va san‘at festivallari o‘tkazilar edi. Bunday tadbirlar ichida eng katta tarixiy ahamiyatga ega bo‘lganligi – bu 1998-yilning 6-7 noyabr kunlari Toshkentda bo‘lib o‘tgan YUNESKO Ijroiya Kengashining sessiyasi bo‘lib o‘tganligi, unda

MDH davlatlaridan birinchi bo'lib, O'zbekistonda "Tinchlik madaniyati va a'zo davlatlarda YUNESKO faoliyati" Toshkent deklaratsiyasining qabul qilinishi bo'lgan edi. Bu esa bir tomondan, O'zbekistonning xalqaro tashkilotlardagi faoliyatining rivojlanib borishini, mamlakatning obro'e'tibori, nufuzi ortib borayotganligini anglatga, ikkinchi tomondan, uning xalqaro hamjamiyat tomonidan YUNESKO maqsad va vazifalarini samarali bajarayotgan davlat sifatida tan olinishiga sabab bo'lganligini qayd etib o'tish lozim. Mamlakatimizda qadimdan ma'rifat, madaniyat, fan va san'at sohasiga jiddiy e'tibor qaratilganligi, yuksak ma'naviyatli ajdodlarning avlodlari bo'lganligi kabi omillar ushbu xalqaro tuzilma bilan bosqichma-bosqich va samarali hamkorlikni yanada rivojlantirdi. Bunday nufuzli xalqaro tashkilot bilan aloqalarni rivojlantirish esa mamlakatimiz imidji uchun yuqori natijalar bergan va bu davom etmoqda.

YUNESKO tomonidan ta'lim sohasidagi eng katta dasturlar ilgari surilayotgan bo'lib, unda dunyo miqyosida 10 mingga yaqin maktablar ishtirok etadi. Dasturning asosiy maqsadi esa xalqaro hamkorlikni, madaniyatlararo muloqotni va barqaror taraqqiyotni, shuningdek, ta'lim sifatini oshirish hisoblanadi. Ayniqsa, "Ta'lim barcha uchun" va BMTning barqaror rivojlanish uchun ta'lim dasturi kabilarda o'zbekistonda 50 dan ortiq maktablarning ishtiroki, ularning bu bradagi faollik ko'rsatishlari bilan bog'liq vazifalar O'zbekistonning so'nggi besh yil davomida esa mamlakatning ta'lim sifati va bu boradagi xalqaro imidji va xalqaro nufuziga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi deyish mumkin.

Nafaqat ta'lim, balki aholining turli qatlamlarining ushbu dasturlarda ishtirok etishini ta'minlash, yosh avlodni, nogironlar yoki ijtimoiy himoyaga muxtoj shaxslarni ta'lim va ma'rifat bilan ta'minlash, dunyo xalqlari erishgan fan va texnik taraqqiyot namunalariidan bahramand bo'lishlariga imkon berish masalalari ham YUNESKO va O'zbekiston munosabatlarining ustuvor yo'nalishlaridan bo'lib, har ikki tomon uchun o'ta foydali natijalar qo'lga kiritilishiga zamin bo'lmoqda.

YUNESKOning O'zbekiston bilan hamkorligining ko'plab yo'nalishlari bo'lib, ular qatoriga fan, ta'lim, madaniyat va Madaniy me'ros ob'yektlarini muhofaza qilish, ularni kelajak avlodlarga qoldirish, mamlakatning turizm salohiyatini yuksaltirish borasidagi munosabatlarning rivoji ham mamlakatimiz imidjiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omil ekanligini qayd etgan holda, bu borada bajarilayotgan ishlarning ko'lami nihoyatda yuqori ekanligini, shuningdek, oldimizda bajarilishi lozim bo'lgan masalalar ham borligini anglab yetmog'imiz lozim

YUNESKOning O'zbekistondagi faoliyati rivojlanishi, undagi samaradorlikning ortishiga xizmat qilayotgan hamkor tashkilotlarning ham bu boradagi faoliyatlarini baholaydigan bo'lsak, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va manfaatdor vazirliklarni, O'zbekiston Respublikasining YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyasini alohida qayd etish lozim. Ushbu tuzilmalar bugungi kunda YUNESKO bilan munosabatlarni tobora rivojlantirishga hissa qo'shayotganliklarini, shu yo'l bilan mamlakatda ushbu xalqaro tashkilotning ezgu g'oyalarini, tadbirlarini amalga oshirish va ushbu sohalar bo'yicha ham mamlakat taraqqiyotiga ko'maklashayotganligini qayd etish lozim.

Shuningdek, O'zbekistonda YUNESKO bilan hamkorlik borasida BMT tizimidagi hukumatlararo tashkilotlar, Xalqaro moliya tashkilotlari, ko'plab Hukumatlararo tashkilotlar, YUNESKOga a'zo davlatlarning O'zbekistonda akkreditsiyadan o'tgan elchixonalari, Milliy va xalqaro nodavlat tashkilotlari va qator muassasalar, Shahar va viloyat hokimliklari, Milliy muassasalar, Oliy ta'lim muassasalari, xattoki xususiy sektor va Ommaviy axborot vositalarining faoliyatlarini alohida e'tirof etmog'imiz lozim.

Tashkilot bilan munosabatlardagi oliy darajadagi muloqotlar ham mamlakatimizning nufuzi ortishiga xizmat qilayotganligini e'tirof etgan holda, 2018 yilning 8 oktyarida Fransiya davlatining poytaxti Parij shahridagi YUNESKO bosh qarorgohida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va ushbu tashkilot bosh direktori Odri Azule bilan uchrashuvini ham alohida qayd etmog'imiz lozim. Chunki, uchrashuv Prezident Shavkat Mirziyoyev Fransiya rasmiy tashrif YUNESKODan boshlanganligi ham tashkilotning mamlakatimiz uchun naqadar muhimligini, shuningdek, tashkilot uchun O'zbekiston eng muhim hamkorlardan ekanligini yana bir bor ko'rsatib bergan edi. Tashkilot bosh direktorining fikricha, "O'zbekistonning ushbu tashkilot bilan hamkorligi izchil rivojlanib bormoqda va bundan ikki tomon ham juda manfaatdordir". Xalqaro maydondagi mamlakat imidjiga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadigan holat sifatida esa YUNESKO bosh direktorining O'zbekiston Prezidenti ushbu tashkilot shafeligida tinchlik va bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish, ekstremizmning oldini olish maqsadida Samarqand shahrida Mirzo Ulug'bek nomidagi xalqaro institut tashkil etish, Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti huzurida Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha mintaqaviy markaz hamda Samarqanddagi Turizm xalqaro universitetida YUNESKO kafedrasini tuzish bo'yicha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaganligini e'tirof etishimiz lozim.

Hamkorlikning muhim natijalari sifatida esa O'zbekistonda 2019-yil bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo yosh olimlari mintaqaviy forumini, shuningdek, yaqin yillarda «Axborot texnologiyalari madaniy merosni asrash xizmatida» mavzuida Osiyo forumini o'tkazish to'g'risida kelishuvga erishilganligini qayd etmoq lozim. Zero, madaniy me'ros ob'yektlarini asrash ham YUNESKO tashkilotining eng muhim faoliyat yo'nalishlaridan bo'lib, bu boradagi hamkorlik ham tobora rivojlanmoqda. Bo'lib o'tgan oliy darajadagi uchrashuvda Bosh direktor O'zbekistonning butun insoniyat boyligi bo'lgan madaniy-tarixiy merosni asrab-avaylash borasidagi siyosatini yuksak baholadi va bundan keyin ham hamkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq istiqbol haqida so'z yuritdi. Eng katta natija sifatida O'zbekiston bilan YUNESKO aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan 2021-yilgacha hamkorlik dasturi oliy darajada imzolandi. Buni ham mamlakatimizning xalqaro siyosati bilan bog'liq erishilgan eng katta yutuq sifatida e'tirof etish mumkin.

Tashkilotning mintaqada suv resurslarini boshqari yoki undan samarali foydalanish, moddiy va nomoddiy madaniy me'rosni asrash, Lazgi raqsini, Katta ashula, Alpomish, Palov kabi nomoddiy me'rosni ham tashkilotning reprezentativ ro'yxatiga kiritish O'zbekistonning xalqaro imidji sifatida namoyish qilish borasidagi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, so‘nggi yillarda xalqaro obro‘-e’tibori nihoyatda yuksalib borayotgan O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar doirasidagi faoliyatini rivojlantirish tashqi siyosatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Eng muhimi, xalqaro hamjamiyat tomonidan munosib baholanmoqda.

4.3 Markaziy Osiyo bo'yicha integratsiyaviy tashabbuslar O'zbekiston xalqaro maydondagi imidjini yuksaltirishning muhim omili sifatida

Mamlakat taraqqiyotining eng muhim omillaridan hisoblangan imidj masalasi Yangi O'zbekistonning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni va demokratik o'zgarishlarni muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarish borasida, shuningdek, xalqaro maydonda mamlakatimizning nufuzini yanada mustahkamlashda va aholi farovonligining oshishini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ichki va tashqi siyosatimizni keng targ'ib qilishni ham nazarda tutadi. Zero, "Jahonda kechayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar, koronavirus pandemiyasi va global iqtisodiy inqiroz sharoitida O'zbekiston ochiq va pragmatik tashqi siyosatni faol olib bormoqda. Xalqaro maydondagi qat'iy sa'y-harakatlarimiz natijasida yurtimizning nufuzi va obro'-e'tibori tobora yuksalmoqda".

Mana O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Xalqaro reyting va indeksdagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi PF-6003-son Farmoni imzolanganligiga ham deyarli bir yil to'ldi. Erishilgan natijalar va muvaffaqiyatli qadamlar bilan bir qatorda, yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni, oldimizda o'z yechimini kutib turgan muammolarni ham aniq belgilab olish siyosatshunoslik va xalqaro munosabatlar sohasining ham oldida turgan eng muhim vazifalardandir.

Prezident Sh.Mirziyoyevning chuqur o'ylangan pragmatik va faol islohotlari va siyosati, dunyoning ko'plab mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli munosabatlarining faollashuvi natijasida xalqaro arenada O'zbekistonning ijobiy imidji bir muncha yuksaldi. O'zining qisqa muddatli Prezidentligi davomida Sh.Mirziyov ko'plab dunyoning eng qudratli va rivojlangan, xalqaro munosabatlarda yetakchi o'rin egallaydigan davlatlar rahbarlari, jumladan, AQSH, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Rossiya, Koreya, Yaponiya, Turkiya, Saudiya Arabiston, Misr, Belorussiya va hokazo davlat va hukumat rahbarlari bilan uchrashuvlar o'tkazdi, ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT, SHHT, Turkiy tilli davlatlar kengashi, Islom hamkorlik tashkiloti, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi, Markaziy Osiyo davlatlari davlat rahbarlarining maslahat kengashi kabilarning tadbirlarida nutqlar so'zladi. Ushbu nutqlarining barchasida faqatgina barqarorlik, taraqqiyot, hamkorlik, integratsiya, do'stlik, yaqin qo'shnichilik va hokazo ijobiy tashabbuslar ilgari surilganlining o'zi mamlakat imidji shakllanishiga sabab bo'ldi.

O'zbekiston tashqi siyosatidagi ochiqlik va faollikning tobora ortib borishi, xorijiy mamlakatlar bilan ko'p qirrali va o'zaro manfaatli hamkorlikning mustahkamlanib borayotganligi O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi imidji yuksalishiga o'zining hissasini qo'shmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiya jarayonlarini kuchaytirish, qo'shni davlatlar bilan ahillik muhitini yaratish, muammolarni o'zaro maslahatlashuv yo'li bilan hal qilish, mavdo-iqtisodiy va investision loyihalar ko'lamini kengaytirish, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash borasidagi O'zbekistonning faol va

konstruktiv tashqi siyosati natijasida bugun dunyoning yetakchi davlatlarining e'tibori ortishiga, munosabatlarida o'zgarishlar ro'y berishiga zamin bo'lmoqda. Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hokimiyatga kelgan ilk kunlaridan boshlab, Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni tubdan rivojlantirish, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida ham amaliy hamkorlikni rivojlantirish borasidagi tashabbuslari bir vaqtning o'zida mintaqada davlatlari tomonidan ham qo'llab quvvatlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Mamlakatimizning milliy manfaatlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan Markaziy Osiyo mintaqasi O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Biz o'zimizning yaqin qo'shnilarimiz Turkmaniston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirgiziston bilan ochiq, do'stona va pragmatik siyosat olib borishga sodiq qolamiz" – deya ta'kidlagan so'zlari, amalda olib borayotgan pragmatik buning yaqqol isboti dyesak, hecham mubolag'a bo'lmaydi.

Mintaqaning murakkab geosiyosiy makonda joylashganligi, butun Markaziy Osiyoda millatlararo ziddiyatlarning tobora keskinlashib borish ehtimoli o'ta yuqoriligi, globallashuv jarayonlarining tobora chuqurlashayotganligi, maqsadli auditoriya uchun tarqatiladigan turli destruktiv axborotlar ta'sirining kuchayib borayotganligi kabi holatlar esa millatlararo munosabatlar sohasida, shundoq ham tarang vaziyatni murakkablashtirishini, kelajakda kutilmagan ehtimolli voqealiklar yuz berishini har bir fuqaro chuqur anglab yetishimiz darkor.

Markaziy Osiyo miqyosida millatlararo munosabatlarning jiddiy tahdidga aylantirishga qodir bo'lgan, unga juda katta zararli ta'sir ko'rsatish salohiyatiga ega, turli ssenariylar asosida xavotirli holatlarni vujudga keltirishi bo'lgan eng muhim va holatlarni sanaydigan bo'lsak, quyidagi manzaraga guvoh bo'lishimiz mumkin:

Chegaraviy muammolar - bugungi kunda mintaqada miqyosida millatlararo ziddiyatlarning eng og'riqli nuqtasi sifatida namoyon bo'layotgan va keyingi yillarda tobora shiddatli tus olib borayotgan masalalardan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Har besh mamlakat o'rtasidagi chegaralarning sobiq SSSR davrida nomutanosib bo'lib tashlanganligi, minglab yillar davomida biror bir ma'muriy yoki davlatlar tomonidan ajratilmagan chegaralarning sun'iy ravishda chegara tortilganligi bugungi kun millatlararo ziddiyatlarga juda

katta salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Sun'iy chegaralanish o'sha vaqtda aholining ijtimoiy ongiga, madaniyatiga va roziligiga qaramasdan, milliy va etnik xususiyatlarni pisand qilmasdan o'tkazilganligi, ko'plab anklavlarning vujudga kelganligi, yer-suvga ehtiyoji yuqori bo'lgan xalqlar o'rtasida bugungi kunda tortishuv predmeti sifatida millatlar o'rtasida turli nifoqlarni keltirib chiqarayotganligini tan olmasligimizning iloji yo'q. Buning ustiga, turli ommaviy axborot vositalarida, kanallari va resurslarida har qanday maishiy darajadagi nizo yoki tortishuvlarning ham juda katta bir fojia sifatida ko'rsatilayotganligi tufayli aholi ongida salbiy qarashlarni, vahimalarni, boshqa millatlarga nisbatan nafratning vujuga kelishi omili sifatida qarashimiz lozim.

Suv muammosi ham bugungi kun Markaziy Osiyo mintaqasi millatlari hayotiga juda katta ta'sirga ega bo'lgan holat hisoblanadi. Chunki, bu resurslarga bo'lgan talabning doimiy ortib borayotganligi, bir tomondan aholi sonining tobora ko'payib borayotganligi va ular uchun yashash joyiga va oziq-ovqatga bo'lgan talabning ortib borishi bilan xarakterlansa, ikkinchi tomondan, suv resurslarining o'zgarmas darajadagi hajmi, cheklanganligi, mintaqada suvdan ehtiyotkorlik bilan foydalanish borasida zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilmasligi va hokazolar, bugungi kunda ushbu resurs sarfi va boshqaruvi borasida ular muvofiq harakatlarning yo'qligi ham davlatlar va millatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarga sabab bo'layotganligini qayd etishimiz lozim. Ammo, masalaning ikkinchi jihati borki, bu ham bo'lsa, yana axborot omili. Aynan turli yolg'on, noxolis, bir tomonlama axborotlarning keng tarqalishi, aholi o'rtasida u millat yoki bu millatga daxldorlikni sun'iy ravishda bo'rttirayotganligini ko'rib turibmiz va bu muammo ham o'ziga xos keskinlikni saqlab qolmoqda.

Tashqi ta'sir omili ham Markaziy Osiyo xalqlari, ushbu mintaqada yashovchi millatlar uchun juda katta muammoli vaziyatga aylangan. Mintaqa, yuqorida keltirib o'tganimizdek, o'zining geosiyosiy va geostrategik ahamiyati jihatdan qudratli davlatlar, turli siyosiy kuchlar manfaatlari kesishadigan hudud sifatidagi maqomini saqlab qolmoqda. O'z ta'sirini kuchaytirish uchun mintaqada sun'iy ravishda, bevosita tashqi kuchlarning axborot, harbiy, siyosiy ssenariylari asosida millatlararo turli nizolar, kelishmovchiliklar vujudga keltirilishi singari fojiali holatlar ro'y berib turadi. Bu esa ko'proq axborot makonida amalga oshirilishi, o'zbeklar, qozoqlar, tojiklar, qirg'izlar, turkmanlar o'rtasida doimiy millatlararo nizolarni, mojarolarni keltirib chiqarishga urinishda, ushbu millatlarni birbirlariga qarshi qayrab, gij-gijlash singari faoliyatlarida namoyon bo'lmoqda. Buning ortida esa mintaqani o'zining ta'siri ostida saqlash va hukmronlik qilishni davom ettirish ilinjida bo'lgan davlatlar, kuchlar turganligi bugungi kunda hech bir ziyoliga sir emas.

Ammo, masalaning ayanchli tomoni shundaki, minglab yillar davomida o'zaro do'st, ahil-inoq bo'lib yashab kelgan millatlar o'rtasida bugungi kunda salbiy axborotlarning sun'iy ravishda yaratilishi va tarqatilishi tufayli bir muncha sovuq munosabatlar paydo bo'layotganligi va turli maishiy darajada namoyon bo'layotganligi kabilarni misol sifatida keltirishimiz mumkin. Bunday sovuq munosabat yoki o'zaro nizolarning ro'y berishida tashqi kuchlarning ta'siri borgan sari kengayib, Markaziy Osiyo xalqlari uchun fojiali tus olishi ehtimolini doimo anglab yetishimiz, ularga qarshi keng jamoatchilik yordamida turli axborot omilidan foydalangan holda samarali kurashishimiz shart bo'lib qolmoqda.

So'nggi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarning insoniyat hayotiga jadal kirib kelganligi, bu holat insonlar ongiga, madaniyatiga, dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatishning zamonaviy formatiga aylanganligini e'tirof etgan holda, Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari ham bu jarayonlardan chetda qolmayotganligini, balki, turli hiylalarga, ma'lum bir maqsadlarga yo'naltirilgan, o'z "o'ljasi" uchun nihoyatda "jozibador" axborotlarning eng faol iste'molchilariga aylanib ulgurdi.

Aynan ushbu holatlar esa Markaziy Osiyoda beqarorlikdan manfaatdor, hukmronlik istagida davlatlar yoki kuchlar uchun o'ta qulay vaziyat sifatida

foydalanilayotganligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ular tomonidan yaratilgan “ijod mahsuli”ning mevalari sifatida esa millatchilikka, ayirmachilikka asoslangan fikrlar, qarashlar, g‘oyalar, targ‘ibot-tashviqotlar, chaqiriqlar borgan sari ko‘payib bormoqda va ba’zi holatlarda ular o‘z “mevasini” berayotganligini ham ming afsuslar bilan qayd etishimiz lozim. Millatlar o‘rtasida tarixda kuzatilmagan bir-birlariga nafrat, ko‘rolmaslik, g‘azab, shovinizm singari illatlarni keng yoyishga harakatlar tobora avj olayotganligini, ular turli shakllarda va sharoitlarda sodir bo‘layotganligini ham unutmasligimiz lozim.

Bugungi kunda O‘zbekistonning xalqaro imidji yuksalishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgan yana bir omil – mamlakatning Afg‘onistondagi sisiiy vaziyatni barqarorlashtirish borasidagi tashabbuslari hamdir. Zero, Aynan prezident Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan jafokash afg‘on xalqining ko‘p yillik mashaqqatlariga chek qo‘yish, tinch va osuda yashashlari uchun shartsharoitlar yaratish, mamlakatdagi siyosiy kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun qarama-qarshi tomonlarni o‘zaro muzokaralarga chorlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Afg‘onistonning amaldagi hukumati va Tolibon harakati o‘rtasida hech bir shartlarsiz muzokaralar o‘tkazish uchun har ikki tomonni irodali bo‘lishga, bunday uchrashuvni tashkil qilish va o‘tkazish uchun O‘zbekiston tomoni doim tayyorligini ma’lum qilgan edi. Eng muhimi, mamlakat doimo mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadigan Afg‘onistonni barqarorlashtirish borasida ko‘plab tashabbuslar ilgari surilmoqda. “Afg‘oniston xavfsizligi – bu O‘zbekiston xavfsizligi, butun bepoyon Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasi barqarorligi hamda taraqqiyotining garovidir... Hech shubhasiz, oxir-oqibatda afg‘on zaminida tinchlik o‘rnatilishi bepoyon Yevroosiyo qit‘asidagi barcha davlatlar uchun yangi imkoniyatlar ochadi va real naf keltiradi” - deya ta’kidlagan edi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘z chiqishlaridan birida. Ushbu zaminda barqarorlikni o‘rnatishga ko‘maklashish, mamlakatda infratuzilmalarni tiklash va rivojlantirish, gumanitar va ta’lim sohasida yordam ko‘rsatish singari vazifalarning amalga oshirilishi natijasida O‘zbekistonning xalqaro obro‘-e’tibori tobora ortib borayotganligiga guvoh bo‘lib turibmiz.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
2. Pulatxodjayev Z.S. Strategiya dobrososedstva Uzbekistana: tektonicheskiy sdvig v otnosheniyax gosudarstv Syentralnoy Azii // Sharq mamlakatlaridagi xalqaro munosabatlarning zamonaviy transformatsiyasi: vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 2020. – B. 536.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – B.17.
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: O‘zbekiston, 2018. – B. 363-369

4.4 Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik va mamlakatning xalqaro imidji

Dunyo miqyosidagi eng nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish, ularning faoliyati takomillashuviga, rivojlanishiga hissa qo'shish, tashkilotlar tomonidan qaror qabul qilish va ma'lum bir dasturlar ijrosida ishtirok etish har qanday mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzi ortishining asosi bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston bugungi kunda bu borada katta yutuqlarni qo'lga kiritganligi, dunyo hamjamiyati tomonidan munosib e'tirof etilayotganligini qayd etmoq joiz. Ayniqsa, jahon miqyosidagi eng nufuzli tashkilotlardan bo'lgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan munosabatlarni rivojlantirish borasidagi O'zbekistonning so'nggi yillardagi islohotlari va tashabbuslari e'tirofga loyiq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasidagi nutqlari, BMT bosh kotibi Antonio Guterreshning mamlakatga tashrifi, Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashuv, muammoli hudud bo'lgan Orol dengizi akvatoriyasini borib ko'rganligi, ayniqsa, uning O'zbekistonda islohotlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlayotganligi fikrimizning dalilidir.

Shuningdek, qayd etish lozimki, mamlakat o'z tashqi va xalqaro siyosatida nafaqat Birlashgan Millatlar, balki uning tizimidagi tashkilotlar bilan aloqalarni ham keng rivojlantirib kelmoqda. Shunday nufuzli xalqaro tashkilotlardan biri bo'lgan YUNESKO bilan hamkorlik aloqalarining o'rnatilishi natijasida O'zbekistonni jahon tanishi va ko'xna madaniyatning vorislari sifatida tan olishlarining asosiy omili bo'ldi desak, hecham mubolag'a bo'lmaydi.

Ma'lumki, ikkinchi jahon urushidan keyin dunyo madaniy me'rosini asrab qolishni maqsad qilgan xalqaro tashkilotning vujudga kelishi va uning bugungi kunga qadar olib borgan faoliyati albatta insoniyat oldida tahsinga loyiq. Ammo, 1993-yilning 29-oktyabrida O'zbekistonning ham mazkur tashkilotning a'zosiga aylanishi esa mamlakatimiz uchun haqiqatda olamshumul voqelik sifatida e'tirof etishimiz joiz. Tashkilot faoliyatida o'zining insonparvarligi bilan e'tirof qozongan, haqiqiy ko'xna madaniyat me'rosini saqlab qola bilayotgan xalq va davlat bo'lgan O'zbekistonda 1996-yilga kelib tashkilotning vakolatxonasi ochilib ish boshlagan. O'sha vaqtlarda endigina dunyoga ochilayotgan, jahon xalqlari tomonidan hali to'liq tanilib ulgurmagani uchun YUNESKO bilan hamkorlik, unga dunyo uchun tanilish, e'tibor qozonish uchun yangi yo'nalishlarni, yangi gorizonlarni, yangi muvaffaqiyatlarni ochdi, taqdim qildi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekistonning xalqaro maydondagi e'tirofi, imidji va nufuzi yuksalishining yana bir muhim shunda ediki, O'zbekiston tashkilot faoliyatida faol va samarali ishtiroki uchun 1997-yilga kelib YUNESKO tashkiloti a'zo davlatlari mamlakatimizni 4-yilga tashkilotning rahbar organi - Ijroiya Kengashiga sayladilar. Bu esa tobora jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashib borayotgan O'zbekiston uchun katta muvaffaqiyat edi. Mamlakatni dunyo taniy boshladi, uni e'tirof eta boshlagan edi. Bunday ayniqsa, o'zaro tashriflar ham alohida ahamiyat kasb etardi. O'zbekiston rahbariyatining o'sha davrlarda YUNESKO shtab-kvartirasiga, shuningdek, YUNESKO Bosh direktorining O'zbekistonga tashriflari har ikki

tomon o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqar va yanada hamkorlik ufqlarini kengaytirar edi. Eng muhimi 2009-2013-yillar oralig'ida O'zbekiston ikkinchi marta ham YUNESKO Ijroiya Kengashiga saylangan edi.

Bunday yutuqlar, aslida nafaqat tashqi siyosatning xosilasi, balki mamlakatimiz imidjining asosiy omili edi. Buning natijasida O'zbekistonni jahon mamlakatlari yaqindan taniy boshladi, mamlakatga nisbatan qiziqishi tobora ortib bordi, ko'plab turistlar O'zbekistonga tashrif buyurar, mamlakatda ko'plab madaniyat va san'at festivallari o'tkazilar edi. Bunday tadbirlar ichida eng katta tarixiy ahamiyatga ega bo'lganligi – bu 1998-yilning 6-7 noyabr kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan YUNESKO Ijroiya Kengashining sessiyasi bo'lib o'tganligi, unda MDH davlatlaridan birinchi bo'lib, O'zbekistonda “Tinchlik madaniyati va a'zo davlatlarda YUNESKO faoliyati” Toshkent deklaratsiyasining qabul qilinishi bo'lgan edi. Bu esa bir tomondan, O'zbekistonning xalqaro tashkilotlardagi faoliyatining rivojlanib borishini, mamlakatning obro'-e'tibori, nufuzi ortib borayotganligini anglatga, ikkinchi tomondan, uning xalqaro hamjamiyat tomonidan YUNESKO maqsad va vazifalarini samarali bajarayotgan davlat sifatida tan olinishiga sabab bo'lganligini qayd etib o'tish lozim. Mamlakatimizda qadimdan ma'rifat, madaniyat, fan va san'at sohasiga jiddiy e'tibor qaratilganligi, yuksak ma'naviyatli ajdodlarning avlodlari bo'lganligi kabi omillar ushbu xalqaro tuzilma bilan bosqichma-bosqich va samarali hamkorlikni yanada rivojlantirdi. Bunday nufuzli xalqaro tashkilot bilan aloqalarni rivojlantirish esa mamlakatimiz imidji uchun yuqori natijalar bergan va bu davom etmoqda.

YUNESKO tomonidan ta'lim sohasidagi eng katta dasturlar ilgari surilayotgan bo'lib, unda dunyo miqyosida 10 mingga yaqin maktablar ishtirok etadi. Dasturning asosiy maqsadi esa xalqaro hamkorlikni, madaniyatlararo muloqotni va barqaror taraqqiyotni, shuningdek, ta'lim sifatini oshirish hisoblanadi. Ayniqsa, “Ta'lim barcha uchun” va BMTning barqaror rivojlanish uchun ta'lim dasturi kabilarda o'zbekistonda 50 dan ortiq maktablarning ishtiroki, ularning bu bradagi faollik ko'rsatishlari bilan bog'liq vazifalar O'zbekistonning so'nggi besh yil davomida esa mamlakatning ta'lim sifati va bu boradagi xalqaro imidji va xalqaro nufuziga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi deyish mumkin.

Nafaqat ta'lim, balki aholining turli qatlamlarining ushbu dasturlarda ishtirok etishini ta'minlash, yosh avlodni, nogironlar yoki ijtimoiy himoyaga muxtoj shaxslarni ta'lim va ma'rifat bilan ta'minlash, dunyo xalqlari erishgan fan va texnik taraqqiyot namunalariidan bahramand bo'lishlariga imkon berish masalalari ham YUNESKO va O'zbekiston munosabatlarining ustuvor yo'nalishlaridan bo'lib, har ikki tomon uchun o'ta foydali natijalar qo'lga kiritilishiga zamin bo'lmoqda.

YUNESKOning O'zbekiston bilan hamkorligining ko'plab yo'nalishlari bo'lib, ular qatoriga fan, ta'lim, madaniyat va Madaniy me'ros ob'yektlarini muhofaza qilish, ularni kelajak avlodlarga qoldirish, mamlakatning turizm salohiyatini yuksaltirish borasidagi munosabatlarning rivoji ham mamlakatimiz imidjiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omil ekanligini qayd etgan holda, bu borada bajarilayotgan ishlarning ko'lami nihoyatda yuqori ekanligini, shuningdek,

oldimizda bajarilishi lozim bo'lgan masalalar ham borligini anglab yetmog'imiz lozim.

YUNESKOning O'zbekistondagi faoliyati rivojlanishi, undagi samaradorlikning ortishiga xizmat qilayotgan hamkor tashkilotlarning ham bu boradagi faoliyatlarini baholaydigan bo'lsak, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va manfaatdor vazirliklarni, O'zbekiston Respublikasining YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyasini alohida qayd etish lozim. Ushbu tuzilmalar bugungi kunda YUNESKO bilan munosabatlarni tobora rivojlantirishga hissa qo'shayotganliklarini, shu yo'l bilan mamlakatda ushbu xalqaro tashkilotning ezgu g'oyalarini, tadbirlarini amalga oshirish va ushbu sohalar bo'yicha ham mamlakat taraqqiyotiga ko'maklashayotganligini qayd etish lozim.

Shuningdek, O'zbekistonda YUNESKO bilan hamkorlik borasida BMT tizimidagi hukumatlararo tashkilotlar, Xalqaro moliya tashkilotlari, ko'plab Hukumatlararo tashkilotlar, YUNESKOga a'zo davlatlarning O'zbekistonda akkredatsiyadan o'tgan elchixonalari, Milliy va xalqaro nodavlat tashkilotlari va qator muassasalar, Shahar va viloyat hokimliklari, Milliy muassasalar, Oliy ta'lim muassasalari, xattoki xususiy sektor va Ommaviy axborot vositalarining faoliyatlarini alohida e'tirof etmog'imiz lozim.

Tashkilot bilan munosabatlardagi oliy darajadagi muloqotlar ham mamlakatimizning nufuzi ortishiga xizmat qilayotganligini e'tirof etgan holda, 2018-yilning 8-oktyarida Fransiya davlatining poytaxti Parij shahridagi YUNESKO bosh qarorgohida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va ushbu tashkilot bosh direktori Odri Azule bilan uchrashuvini ham alohida qayd etmog'imiz lozim. Chunki, uchrashuv Prezident Shavkat Mirziyoyev Fransiya rasmiy tashrif YUNESKODan boshlanganligi ham tashkilotning mamlakatimiz uchun naqadar muhimligini, shuningdek, tashkilot uchun O'zbekiston eng muhim hamkorlardan ekanliini yana bir bor ko'rsatib bergan edi. Tashkilot bosh direktorining fikricha, "O'zbekistonning ushbu tashkilot bilan hamkorligi izchil rivojlanib bormoqda va bundan ikki tomon ham juda manfaatdordir". Xalqaro maydondagi mamlakat imidjiga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadigan holat sifatida esa YUNESKO bosh direktorining O'zbekiston prezidenti ushbu tashkilot shafeligida tinchlik va bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish, ekstremizmning oldini olish maqsadida Samarqand shahrida Mirzo Ulug'bek nomidagi xalqaro institut tashkil etish, Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti huzurida Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha mintaqaviy markaz hamda Samarqanddagi Turizm xalqaro universitetida YUNESKO kafedrasini tuzish bo'yicha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaganligini e'tirof etishimiz lozim.

Hamkorlikning muhim natijalari sifatida esa O'zbekistonda 2019-yil bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo yosh olimlari mintaqaviy forumini, shuningdek, yaqin yillarda «Axborot texnologiyalari madaniy merosni asrash xizmatida» mavzuida Osiyo forumini o'tkazish to'g'risida kelishuvga erishilganligini qayd etmoq lozim. Zero, madaniy me'ros ob'yektlarini asrash ham YUNESKO tashkilotining eng muhim faoliyat yo'nalishlaridan bo'lib, bu boradagi hamkorlik ham tobora rivojlanmoqda. Bo'lib o'tgan oliy darajadagi uchrashuvda Bosh direktor

O'zbekistonning butun insoniyat boyligi bo'lgan madaniy-tarixiy merosni asrab-avaylash borasidagi siyosatini yuksak baholadi va bundan keyin ham hamkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq istiqbol haqida so'z yuritdi. Eng katta natija sifatida O'zbekiston bilan YUNESKO aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan 2021-yilgacha hamkorlik dasturi oliy darajada imzolandi. Buni ham mamlakatimizning xalqaro siyosati bilan bog'liq erishilgan eng katta yutuq sifatida e'tirof etish mumkin.

Tashkilotning mintaqada suv resurslarini boshqari yoki undan samarali foydalanish, moddiy va nomoddiy madaniy me'rosni asrash, Lazgi raqsini, Katta ashula, Alpomish, Palov kabi nomoddiy me'rosni ham tashkilotning representativ ro'yxatiga kiritish O'zbekistonning xalqaro imidji sifatida namoyish qilish borasidagi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, so'nggi yillarda xalqaro obro'-e'tibori nihoyatda yuksalib borayotgan O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar doirasidagi faoliyatini rivojlantirish tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Eng muhimi, xalqaro hamjamiyat tomonidan munosib baholanmoqda.

V BOB. 5.1 MAMLAKAT IMIDJIDA HARBIY SOHANING O'RNI VA SALOHIYATINI OSHIRISHNING HARBIY JIHATLARI

5.1 Qurolli kuchlar sohasining imidjini yuksaltirish va boshqarish muammolari

Xalqaro munosabatlar tizimida ro'y berayotgan jadal va global o'zgarishlar O'zbekistonning oldiga ham xalqaro maydondagi imidjini mustahkamlash, uni doimiy yuksaltirish bilan bog'liq vazifalar ustida doimiy ishlashni ham strategik masala sifatida qo'yimoqda. Chunki, so'nggi 6-7 yil davomida xalqaro hamjamiyat O'zbekistonni tamoman boshqa qiyofada va mazmunda, asosan ijobiy imidjga ega bo'lgan, dinamik rivojlanayotgan, inson huquqlari va erkinliklarini, so'z va e'tiqod erkinligini ta'minlashga bel bog'lagan, o'zini-o'zi himoya qilishga qodir kuch va qudratga ega davlat sifatida qabul qilayotganligiga guvoh bo'lib turibmiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Dunyoda ro'y berayotgan gibril xarakterdagi qurolli to'qnashuvlar tahlili bizdan Qurolli Kuchlarimizning jangovar harakatlar jarayonida ilgari amalda qo'llanilmagan qurollardan foydalanadigan kuchlarga qarshi kurasha olish qobiliyatini oshirishni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda, avvalo, jangovar harakatlarning samarali shakl va usullarini tadqiq va tatbiq etish, Qurolli Kuchlarning yagona avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini yaratish va rivojlantirish bo'yicha kompleks choratadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish borasidagi ishlarni jadallashtirishimiz lozim". Nazarimizda, aynan armiyaning, Mudofaa vazirligi tizimining yangicha mazmundagi imijni takomillashtirish va mustahkamlash sohasidagi galdagi vazifalarni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

- Nafaqat jahon, balki mamlakatimiz jamoatchiligi o'rtasida ham O'zbekistonning harbiy imidjini yanada yuksaltirish va mustahkamlash;

- Nafaqat yosh avlod ongida, balki butun alohida ruhiyatida harbiy sohaning naqadar muhimligi, taraqqiyot bosqichlari, xalq ongida harbiy sohada xizmat qilayotganlarning "davrlar qahramoni" sifatidagi barqaror obrazini yaratish;

- Harbiy sohada ro'y berayotgan o'zgarishlarni va xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etilayotgan yutuqlarni jahon miqyosida alohida nufuzga ega bo'lgan OAVda yoritish vazifalarini O'zbekistonning xalqaro aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida harbiy sohada xizmat qilishni sharaflash bilan bog'liq tafakkurni shakllantirish;

- Harbiy sohaning imidjini yuksaltirishga qaratilgan strategik vazifalarni dunyo tajribasini hisobga olgan holda, muammal samarali axborot ta'minotini va PR texnologiyalarini ishlab chiqish va hokazo. Ushbu vazifalar dolzarbligining asosiy sabablari shundaki, uzoq yillar davomida (hattoki SSSR va undan keyingi davrlar nazarda tutilmoqda) Qurolli Kuchlarning imidji masalasi strategik ahamiyat kasb etmagan. Misol uchun, sovet davrida Qurolli Kuchlarning imidji ma'lum bir turdagi normativ-huquqiy aktlar bilan "Xalq va armiya birdamdir", "Armiyada xizmat – muqaddas burch" kabi shiorlar bilangina cheklanilgan bo'lsa, O'zbekistonning mustaqillik davrlarida Qurolli Kuchlarning, yoki unda xizmat qilishning xalq orasidagi nufuzini oshirish bo'yicha ko'plab jiddiy ishlar amalga oshirildi.

Avvalo, harbiylarni moddiy rag'batlantirish, ularning farzandlarini oliy ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlash, harbiy xizmatchilarni uy-joy bilan ta'minlash, ularning sog'liklarini tiklashga alohida ahamiyat berish masalalariga alohida va jiddiy e'tibor qaratildi. Bu esa mamlakatda Qurolli Kuchlarning xalq orasidagi nufuzi va obro'si yuksalishiga xizmat qilganligini alohida e'tirof etmoq joiz. Lekin, bugungi globallashuvi jarayonlari tobora jadallashib borayotgan, yangidan-yangi, turli-tuman xavf-xatarlarning paydo bo'layotganligi va mamlakat xavfsizligiga tahdidi ortib borayotgan bir davrda bu ishlar bilangina cheklanib qolib bo'lmaydi. Xalq orasida va xalqaro hamjamiyat oldida O'zbekiston Qurolli Kuchlarini obro'-e'tiborini yanada oshirish va uning konseptual imidjini yaratish – bugungi kundagi eng muhim vazifalarimizdan biri bo'lib qolmoqda va quyida bu haqida so'z yuritamiz

Aytish lozimki, harbiy xizmatning ijobiy imidjini rivojlantirish, mutahkamlash va qo'llab-quvvatlash tizimlilikni va doimiylikni talab qiladi. Buning uchun esa, fuqarolar ongu-shuurida harbiy xizmat va umuman Mudofaa vazirligi tizimining ijobiy qiyofasini va u haqdagi tasavvurlarni mustahkamlash vazifalarini hal qilish lozim. Bu vazifalarning ishonchli va samarali ijrosi esa o'z-o'zidan kompleks yondashuvni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimining imidjini rivojlantirishda quyidagi vazifalarga alohida e'tibor qaratish zarur:

1. Sohaga doir ma'lumotlarning aholi uchun shaffofligini ta'minlash;
2. Mudofaa sohasining sifat darajasini muntazam yuksaltirib borish. Bu holatda, sifat darajasi sifatida: texnik ta'minlanganligi va holati; shaxsiy tarkibning harbiy tayyorlik darajasi; o'z harbiylari va ehtimolli raqibning urushga nisbatan

texnik tayyorgarligining zamonaviy mezonlarga mosligi; moddiy ta'minlanganlik darajasi; shaxsiy tarkibning aqliy, mafkuraviy, ma'naviy va jismoniy sog'lomlik darajasi; qo'shnlarning harbiy intizomlilik; harbiy xizmat uchun barcha shart-sharoitlarning yaratilganligi va harbiy jamoadagi ijobiy muhit;

3. Sifatli reklama kompaniyasi. Ushbu tarkibga televideniya, radio, bosma, internet, ijtimoiy tarmoqlar, ichki va tashqi reklama, video reklama, va PR-texnologiyalar va hokazo.

Bugungi kunda mudofaa sohasida sifat holati va darajasini yuksaltirish ustida faol ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, bu boradagi quyidagi muammolar hanz saqlanib qolmoqda

- amalga oshirilayotgan ishlar salmog'i va mazmunini manzilli yoritish va o'z auditoriyasiga vaqtida yetkazib berish;

- Qurolli Kuchlarning faoliyatini va imkoniyatlari, sharoitlarining sifatli reklama kompaniyasini yo'lga qo'yish;

- zamonaviy PR-texnologiyalardan samara foydalanish va ularni boshqaradigan, tashkil qiladigan mutaxassislarni tayyorlash;

- bu yo'lda mavjud resurslar va vositalardan o'ta oqilona foydalanish; - bunday ishlar nafaqat davlat miqyosida, balki mahalliy darajalarda ham amalga oshirilishi lozim va hokazo.

Yana bir ahamiyat qaratadigan jihat – bu mamlakat armiyasida xizmat qilishning naqadar sharaf ekanligini targ'ib qilishni va uning nufuzini yanada yuksaltirishni umumilliy loyihaga aylantirish va Qurolli Kuchlarning shon-shavkatini oshiradigan “shiorlar”, turli dizaynli roliklar yaratish masalasidir. Chunki davrning o'zgarayotganligi uzoq yillardan beri davlatning eng konservativ institutlaridan biri bo'lgan armiyada ham mazmunan va ham shaklan transformatsiya jarayonlarini taqazo etmoqda. Shu nuqtayi-nazardan ham Qurolli Kuchlar sohasi uchun reklama, brending, PR kabi vosita va instrumentlarning joriy qilinishi juda katta imkoniyatlarni taqdim qiladi.

Shuningdek, O'zbekistonning so'nggi yillardagi turli armiya o'yinlaridagi ishtiroki va ularda nufuzli o'rinlarni egallashlari ham ma'lum ma'nodagi brending vazifalarni yuklaydi. Ushbu xalqaro harbiy musobaqalar va armiya o'yinlari orqali bugungi kunda O'zbekiston nafaqat o'zining harbiy sohadagi imkoniyatlarini va tajribalarini oshirib kelayotganligini, balki xalqaro maydondagi harbiy imidjini yuksaltirib kelayotganligini ham alohida mavzu va dolzarb masala sifatida e'tirof etmoq lozim.

So'nggi yillarda O'zbekiston armiyasining qudrati, salohiyati, harbiy texnikalari sifati va ulardan foydalana olish salohiyati bir necha nufuzli nashrlar, reyting agentliklari tomonidan doimiy tahlil qilinib, xolis baholanib kelayotganligini ham aytib o'tish lozim. Reyting 36 mamlakatda 17,2 ming kishi o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma asosida tuzilgan. Barcha mamlakatlar individual javoblar kombinatsiyasi asosida 73 mezon bo'yicha baholandi. O'zbekiston armiya qudrati bo'yicha Qozog'istondan 0,2 ballga oldinda – mos ravishda 16 va 15,8 ball. Shu bilan birga, Qozog'iston avvalroq ikki yil ketma-ket oldinda edi: 2021- yilda – 25,6 va 21,5 ball, 2022 yilda – 12,6 va 10,8 ball. Yana bir reyting agentligi bo'lgan

PowerIndex tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston dunyoning 145 qudratli armiyalari ichida 62-o'rinni egalladi va bu holat agentlik tomonidan Markaziy Osiyo davlatlari ichida eng zo'r natija sifatida qayd etildi[4]. Maqto'vga sazovor jihat esa shuki, Markaziy Osiyo miqyosida undan keyingi o'rinni Qozog'iston — 63-o'rin. Turkmaniston — 82-o'rin, Qirg'iziston — 107-o'rin, Tojikiston — 120-o'rinni egallaganligidir. Dunyo reyingida lider davlatlar qatoriga esa AQSH, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Buyuk Britaniya, Fransiya, Isroil, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Turkiya kabilar kiritilgan.

Mana shunday xalqaro reytinglarda O'zbekistonning o'rnini yana yuksaltiradigan doimiy tahlillar va kamchiliklarni bartaraf etish ustida ishlash, tizimning doimiy rivojlanishini ta'minlash, professionalligini oshirish bilan bog'liq metodologik muammolarni doimiy monitoringlar asosida hal qilish ham aslida mamlakatning xalqaro maydondagi imidjiga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman, bugungi kunda mudofaa sohasini tizim sifatida reytingdagi o'rnini oshirishda quyidagi indikatorlarni hisobga olish va kuchaytirish lozim deb hisoblaymiz:

1. Armiyaning professionalligi va yuqori darajadagi tartib-intizomini ko'rsata bilishi;

2. Zamonaviy qurol-yarog' va boshqa texnikalar bilan ta'minlanganlik va ulardan armiyaning samarali foydalana olish indeksi;

3. Harbiy xizmatchilarning dunyodagi geosiyosiy jarayonlardan xabardorligi, mafkuraviy immuniteti yuqoriligi, zamonaviy axborot texnologiyalardan yuqori darajada foydalana olishi, dunyoning qudratli davlatlari armiyalarining tajribalaridan xabardorlik va xorijiy tillarni egallaganlik darajasi

4. Mamlakatning geosiyosiy holati va uni global-harbiy-siyosiy makondagi mavqei;

5. Mamlakat milliy manfaatlariga nisbatan tug'ilgan tahdidlarni operativ tartibda samarali bartaraf eta olish imkoniyatlari, tajribasi va salohiyati;

6. Dunyoning harbiy sohada qudratli va reytingi baland bo'lgan yetakchi davlatlari bilan harbiy sohada hamkorligining rivojlanganlik darajasi;

7. Mamlakatning harbiy texnika va qurol-yarog' ishlab chiqarish bilan bog'liq sanoat kompleksi va infrastrukturasini

8. Mamlakatning harbiy xavfsizligini mustahkamlashga, harbiy qurilish va ularning zamonaviy metodlarini o'rganishga qaratilgan fundamental muammolarni va masalalarga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatlari va tadqiqotlarning amaliyotga joriy qilinishi;

9. Davlatdagi harbiy kuchlarning davlatning butun hududini himoya qila oladigan darajadagi joylashuvi va operativ jihozlar bilan ta'minlanganligi;

10. Mamlakat armiyasining real harbiy nizolarda qatnashganligi va unda erishgan natijasi, tajribasi va zamonaviy urushning oqibatlarini, texnologiyalarini boshdan kechirganligi, urush taktikalarini va metodlarini doimiy takomillashtirib borishi

11. Qurolli Kuchlar xizmatchilari va harbiy xizmatchilarni ijtimoiy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, huquqiy himoya qilish va rag'batlantirish tizimining rivojlantirish va takomillashganlik darajasi;

12. Mamakatning harbiy vositalar va qurollar importiga bog'liqlik darajasi, ularni ishlab chiqarish yoki harbiy zaxiralar bo'yicha imkoniyatlari;

13. Mamlakat harbiy xarajatlarining, harbiy va mudofaa buyurtmalarining jamoatchilik institutlari uchun shaffofligi, ochiqligi, korrupsiyadan va mafkuraviy motivlardan holiligi; 14. Qurolli Kuchlar tizimining, shuningdek, harbiy sanoatni rivojlantirish borasidagi innovatsion indeksi va ularning rivojlanish tendensiyalari;

14. Mamlakat harbiy kuchlarining soni, sifati, salohiyati va uning qo'llabquvvatlanishi bo'yicha Davlat budjeti yalpi ichki mahsulotdan ajratiladigan mablag'ning hajmi;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi.

<https://president.uz/uz/lists/view/5821>

2. Nikolay Makarov. Obrazovaniye SSSR i oborona strany. Moskva. 1990. Politizdat. S.113.

3. These Countries Have the Strongest Militaries.

<https://www.geeksforgeeks.org/top10-powerful-countries-in-the-world-by-military-strength/>

4. Armiya Uzbekistana silneyshaya v Syentralnoy Azii. <https://uz.kursiv.media/2023-01-06/armiya-uzbekistana-silneyshaya-v-czentralnoj-azii/>

5.2 MUDOFAA SOHASINING IMIDJINI YUKSALTIRISH VA BOSHQARISH MUAMMOLARI.

Xalqaro munosabatlar tizimida ro‘y berayotgan jadal va global o‘zgarishlar O‘zbekistonning oldiga ham xalqaro maydondagi imidjini mustahkamlash, uni doimiy yuksaltirish bilan bog‘liq vazifalar ustida doimiy ishlashni ham strategik masala sifatida qo‘ymoqda. Chunki, so‘nggi 6-7 yil davomida xalqaro hamjamiyat O‘zbekistonni tamoman boshqa qiyofada va mazmunda, asosan ijobiy imidjga ega bo‘lgan, dinamik rivojlanayotgan, inson huquqlari va erkinliklarini, so‘z va e‘tiqod erkinligini ta‘minlashga bel bog‘lagan, o‘zini-o‘zi himoya qilishga qodir kuch va qudratga ega davlat sifatida qabul qilayotganligiga guvoh bo‘lib turibmiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, **“Dunyoda ro‘y berayotgan gibril xarakterdagi qurolli to‘qnashuvlar tahlili bizdan Qurolli Kuchlarimizning jangovar harakatlar jarayonida ilgari amalda qo‘llanilmagan qurollardan foydalanadigan kuchlarga qarshi kurasha olish qobiliyatini oshirishni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda, avvalo, jangovar harakatlarning samarali shakl va usullarini tadqiq va tatbiq etish, Qurolli Kuchlarning yagona avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini yaratish va rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish borasidagi ishlarni jadallashtirishimiz lozim”**. Nazarimizda, aynan armiyaning, Qurolli kuchlar sohasining yangicha mazmundagi imijni shakllantirish va mustahkamlash sohasidagi galdagi vazifalarni quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

- nafaqat jahon, balki mamlakatimiz jamoatchiligi o‘rtasida ham O‘zbekistonning harbiy imidjini shakllantirish va mustahkamlash;
- nafaqat yosh avlod ongida, balki butun alohida ruhiyatida harbiy sohaning naqadar muhimligi, taraqqiyot bosqichlari, xalq ongida harbiy sohada xizmat qilayotganlarning “davrl qahramoni” sifatidagi barqaror obrazini yaratish;
- harbiy sohada ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni va xalqaro ekspertlar tomonidan e‘tirof etilayotgan yutuqlarni jahon miqyosida alohida nufuzga ega bo‘lgan OAVda yoritish vazifalarini O‘zbekistonning xalqaro aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida harbiy sohada xizmat qilishni sharaf hisoblash bilan bog‘liq tafakkurni shakllantirish;
- harbiy sohaning imidjini yuksaltirishga qaratilgan strategik vazifalarni dunyo tajribasini hisobga olgan holda, muammal samarali axborot ta‘minotini va PR texnologiyalarini ishlab chiqish va hokazo.

Ushbu vazifalar dolzarbligining asosiy sabablari shundaki, uzoq yillar davomida (hattoki SSSR va undan keyingi davrlar nazarda tutilmoqda) Qurolli kuchlarning imidji masalasi strategik ahamiyat kasb etmagan. Misol uchun, sovet davrida Qurolli Kuchlarning imidji ma‘lum bir turdagi normativ-huquqiy aktlar va bilan “Xalq va armiya birdamdir”, “Armiyada xizmat – muqaddas burch” kabi shiorlar bilangina cheklanilgan bo‘lsa, O‘zbekistonning mustaqillik davrlarida

Qurolli Kuchlarning, yoki unda xizmat qilishning halq orasidagi nufuzini oshirish bo'yicha ko'plab jiddiy ishlar amalga oshirildi.

Avvalo, harbiylarni moddiy rag'batlantirish, ularning farzandlarini oliy ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlash, harbiy xizmatchilarni uy-joy bilan ta'minlash, ularning sog'liklarini tiklashga alohida ahamiyat berish masalalariga alohida va jiddiy e'tibor qaratildi. Bu esa mamlakatda Qurolli Kuchlarning xalq orasidagi nufuzi va obro'si yuksalishiga xizmat qilganligini alohida e'tirof etmoq joiz. Lekin, bugungi globallashuvi jarayonlari tobora jadallashib borayotgan, yangidan-yangi, turli-tuman xavf-xatarlarning paydo bo'layotganligi va mamlakat xavfsizligiga tahdidi ortib borayotgan bir davrda bu ishlar bilangina cheklanib qolib bo'lmaydi. Xalq orasida va xalqaro hamjamiyat oldida O'zbekiston Qurolli kuchlarini obro'-e'tiborini yanada oshirish va uning konseptual imidjini yaratish – bugungi kundagi eng muhim vazifalarimizdan biri bo'lib qolmoqda va quyida bu haqda so'z yuritamiz.

SSSRning inqirozi va 90-yillardan so'ng mamlakatdagi hokimiyat institutlarining barcha bo'g'inlariga nisbatan aholi o'rtasida munosabatning juda ijobiy bo'lmaganligining mantiqiy davomi harbiy xizmatga nisbatan ham sodir bo'lgan. Uzoq vaqt davomida xalqning qarashida Qurolli kuchlarga nisbatan jamiyatning har doim ham ilg'or va sharaflı soha sifatida qaralmaganligi ma'lum va bu holat, ba'zan qarorlar qabul qilinishida muhim omil sifatida hisobga olinmagan. Aksariyat hollarda, Qurolli kuchlar safida xizmat qilishning asosiy mezonı – mamlakatda ishsizlik darajasi yuqori bo'lganligi va bu sohada ishlash yoshlar uchun barqaror ish topish va maosh olishning muhim manbai sifatida qaralganligi ham bor gap. Shuningdek, "ba'zan armiya yoki umuman Qurolli kuchlarga nisbatan motivatsiyaning doim ham yuqori bo'lmaganligi aholining vatanparvarlik ruhi pastroq bo'lganligi nishonasi sifatida baholash mumkin".

Shuningdek, masalaning muhim jihatlaridan yana biri – bu o'tgan asrning so'nggi yillarida sobiq ittifoqning tarqalib ketishi va har bir ittifoqdosh respublikalarda vujudga kelgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardir. Ushbu murakkabliklarga bevosita bog'liq holda, harbiy sohani istiqolli yosh kadrlar, noyob va malakali mutaxassislar bilan, shuningdek, moddiy va texnikaviy ta'minlash muammolari ham qo'shilgan edi. Chunki, harbiy soha o'ta murakkab va bir vaqtning o'zida jadal rivojlanuvchi, alohida kasbiy mahorat va malaka talab qiluvchi soha hisoblanadi.

Ammo, professionallarni sohaga jalb qilish, ularning ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy, ma'naviy ehtiyojlarini qondira olish bilan shartlangan moliyaviy ta'minotning cheklanganligi ham harbiy xizmatga nisbatan motivatsiyaning pasayishiga sabab bo'lgan edi. Shu nuqtai-nazardan ham Qurolli kuchlarning ta'minotini yuqori darajaga olib chiqish - davlatning eng katta strategik vazifasiga aylansagina **sohaning munosib imidjini yaratish** mumkin bo'ladi.

Shubhasiz, bu boradagi vaziyat so'nggi yillarda ijobiy dinamikani namoyish qila boshladi. Aytish lozimki, harbiy xizmatning ijobiy imidjini yaratish, mutahkamlash va qo'llab-quvvatlash tizimlilikni va doimiylikni talab qiladi. Buning uchun esa, fuqarolar ongu-shuurida harbiy xizmat va umuman Qurolli kuchlarning

ijobiy qiyofasini va u haqdagi tasavvurlarni mustahkamlash vazifalarini hal qilish lozim. Bu vazifalarning ishonchli va samarali ijrosi esa o'z-o'zidan kompleks yondashuvni (davlat va hukumat rahbarlarining sohani qo'llab-quvvatlashga doir Farmon va qarorlaridan boshlab, aniq bir lavozimdagi mansabdorlarning, ma'lum bir mutaxassislardan tortib, OAV soha vakillariga qadar) talab qiladi. Chunki, hozirgi vaqtda ijobiy imidjni yaratishning aniq harakatlar dasturi mavjud emas. Buning ham o'ziga xos sabablari bo'lib, ushbu jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillarning murakkabliklarini hisobga oladigan imidjmaykerlarning, jamiyatning barcha qatlamlari uchun aniq bir sharoitda axborot uzatish masalasini samarali yecha oladigan OAV sohasidagi mutaxassislarning yetishmasligi kabilardir.

Bugungi kun imidj sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislarning fikricha, Qurolli kuchlarning munosib imidjini shakllantirish uchun barcha manfaatdor mansabdorlarning, PR mutaxassislari va soha OAV xodimlarining faoliyat yo'nalishlarini quyidagi vazifalarga qaratish zarur:

1. Qurolli kuchlar haqidagi ma'lumotlarning (maxfiylikka daxldor bo'lmagan va xalq bilishi mamlakatning mudofaa qobiliyatiga zarar yetkazmaydigan ma'lumotlarning ochiqligini ta'minlash va shu yo'l bilan aholi o'rtasidagi ishonchsizlikka barham berish) aholi uchun shaffofligini ta'minlash;

2. Mamlakat Qurolli kuchlarining sifat darajasini doimiy yuksaltirib borish. Bu holatda, sifat darajasi sifatida: Qurolli kuchlarning texnik ta'minlanganligi va holati; shaxsiy tarkibning harbiy tayyorlik darajasi; o'z harbiylari va ehtimolli raqibning urushga nisbatan texnik tayyorgarligining zamonaviy mezonlarga mosligi; moddiy ta'minlanganlik darajasi; shaxsiy tarkibning aqliy, mafkuraviy, ma'naviy va jismoniy sog'lomlik darajasi; qo'shinlarning harbiy intizomlilik; harbiy xizmat uchun barcha shart-sharoitlarning yaratilganligi va harbiy jamoadagi ijobiy muhit;

3. Sifatli reklama kampaniyasi. Ushbu tarkibga televideniye, radio, bosma, internet, ijtimoiy tarmoqlar, ichki va tashqi reklama, video reklama, va PR-texnologiyalar va hokazo. Garchi, bugungi kunda mamlakatda Qurolli kuchlarning sifat holati va darajasini yuksaltirish ustida rahbariyat tomonidan faol ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, bu boradagi quyidagi muammolar hanuz saqlanib qolmoqda:

- Amalga oshirilayotgan ishlar salmog'i va mazmunini manzilli yoritish va o'z auditoriyasiga vaqtida yetkazib berish;

- Qurolli kuchlarning faoliyatini va imkoniyatlari, sharoitlarining sifatli reklama kampaniyasini yo'lga qo'yish;

- Zamonaviy PR-texnologiyalardan samarali foydalanish va ularni boshqaradigan, tashkil qiladigan mutaxassislarni tayyorlash;

- Bu yo'lda mavjud resurslar va vositalardan o'ta oqilona foydalanish (bu masalalar hanuzgacha jiddiy oqsamoqda);

- Bunday ishlar nafaqat davlat miqyosida, balki mahalliy darajalarda ham (harbiy qismlar va garnizonlarda) amalga oshirilishi lozim va hokazo.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi.
<https://president.uz/uz/lists/view/5821>

2. Nikolay Makarov. Obrazovaniye SSSR i oborona strany. Moskva. 1990. Politizdat. S.113.

3. Daje deti voyennyyh – v SSHA molodej’ ne xochet idti v armiyu. SSHA stolknulis s problemoy – molodej’ ne xochet idti v armiyu.
<https://ont.by/news/dazhe-deti-voennyh-v-ssha-molodezh-ne-hochet-idti-v-armiyu>.
 Pochemu molodyoj’ ne xochet slujit v armii.
<https://dzen.ru/a/XdaRBHqD2QFMst4E?experiment=931375>. Gavrilov Yu.
 Prizyvnik pod dvoynym kontrolem / Rossiyskaya gazeta. 2009. 1 apr., Selivanova Z.K. Smyslojiznennyye oriyentatsii podrostkov // SOSIS. 2001. № 2.

1.3 Mamlakat barqarorligini ta'minlash masalalari va davlatning xalqaro imidji masalalari

Bugungi O'zbekiston jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlarining tobora murakkablashib borishi sharoitida davlat barqarorligi va xavfsizligiga nisbatan turli tahdidlarning tobora ko'payib borayotganligiga guvoh bo'lib turibmiz. Ayniqsa, davlatchilik taraqqiyoti va mavjudligining asoslariga keng zarba bera olish qobiliyatiga ega bo'lgan terrorizm va ekstremizning xavfi, davlatchilik barqarorligiga keltirishi mumkin bo'lgan salbiy ta'siri to'g'risida ortiqcha gapirishga hojat yo'q. Chunki aynan ushbu muammo mamlakat imijiga ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi.

Umuman olganda, bugun jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida tobora barqaror rivojlanayotgan Yangi O'zbekistonning xalqaro imidji tobora yuksalib borayotganligini barchamiz ko'rib turibmiz. Jahon miqyosida 200 dan ortiq mamlakatning so'nggi yillardagi rivojlanish sur'ati bilan solishtiradigan bo'lsak, O'zbekiston nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy barqarorlik va rivojlanish dinamikasi jihatdan ham katta yutuqlarni qo'lga kiritib kelmoqda. Inson huquqlaridan tortib, so'z erkinligi, vijdon erkinligi, siyosiy faollik, siyosiy madaniyatning yuksalishi va hokazo ko'rsatkichlar borasida ham O'zbekiston maqtanishga arzigulik muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. AQSH Davlat kotibining Janubiy va Markaziy Osiyo masalalari bo'yicha yordamchisi o'rinbosari Elis Uells "Amerika ovozi" teleradiosiga bergan intervyusida shunday degan edi: "O'zbekiston uzoq yilla mobaynida mintaq va bugun dunyoga ochilishni istamadi. Mintaqaviy hamkorlik yo'lidan bormadi. Endi yangi yo'l tuta boshladi. Bu O'zbekiston ravnaqiga xizmat qiladi, albatta. Sarmoyadorlarga yo'l ochib, mamlakatni ham o'z qudrati, ham chet ellik hamkorlar yordami bilan rivojlantirish payti keldi".

Eng quvonarlisi, so'nggi olti yilda Yangi O'zbekistonning siyosiy taraqqiyotini dunyoning nufuzli ekspertlari, siyosatchilari va taraqqiyot borasida katta yutuqlarni qo'lga kiritgan davlatlar tomonidan e'tirof etilmoqda va dunyoviy rivojlanish borasidagi bunday islohotlar ular tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda, katta qiziqish bilan kuzatib borilmoqda. Mamlakatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va prinsiplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatdir".

Siyosiy o'zgarishlar, islohotlarku juda yaxshi. Ayniqsa, siyosiy erkinlikning bunday imkoniyatlaridan nafaqat bunyodkor kuchlar, balki destruktiv kuchlarning ham foydalanishga bo'lgan intilishlari, mamlakatning siyosiy barqarorligiga putur yetkazish, dunyoviy davlatchilik tomorlariga bolta urish, uning xavfsizligi va barqarorligiga katta ziyon yetkazish umidida yurgan kuchlarning ham payt poylab turganliklarini aslo unutmashimiz kerak. Zero, ularga qarshi samarali kurash, bir tomondan dunyo hamjamiyati tomonidan o'ta ehtiyotkorlik bilan kuzatib borilsa, ikkinchi tomondan mamlakatimizning xalqaro maydondagi imidjiga katta ta'sir ko'rsatadigan omil sifatida baholanishini ham alohida qayd etmog'imiz lozim.

Ma'lumki, xalqaro maydondagi bugungi nufuzimiz, mamlakatimining jahon miqyosidagi tobora yuksalib, mutahkamlanib borayotgan imidji bundan bor yo'g'i 6- 7 yil oldin terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish borasidagi uslublarni qo'llashniga imkoniyat bermoydi. Bugun xalqaro hamjamiyat davlatimizni jadal siyosiy islohotlarni amalga oshirayotgan Yangi O'zbekiston sifatida ko'rmoqda. Demak, mamlakat, birinchi galda, davlatimizning barqarorligi va xavfsizligini, jamiyat tinchligini ta'minlash uchun avvalo, xalqaro maydondagi nufuzimizdan, salohiyatimizdan, amalga oshirayotgan keng ko'lamli isloholarning demokratik ruhidan kelib chiqib yondashishni zamonning o'zi talab qilmoqda.

O'zbekiston butunlay ekstremistik yoki fundamentalistik qarashardan holi mamlakat deya e'tirof etishimizning o'z haqiqat emas. Buni inkor ham qila olmaymiz. Zero, dunyodagi mana-man degan mamlakatlarning hech biri butunlay barqarorlikni kafolatlay olmagidek, O'zbekiston ham bunday muammolardan butunlay mustasno emas. Mamlakatimiz aholisining 90 foizdan ortig'ini islom diniga e'tiqod qiluvchilar tashki qilishini hisobga oladigan bo'lsa, islom dinini niqob qilib olgan ekstremistik, va terroristik kuchlarning maqsadlari bizga ham qaratilganligini, O'zbekistonning keng ko'lamli geosiyosiy manfaatlar to'qnashadigan hududda joylashganligi, yon qo'shni mamlakatlarimizda islomiy ekstremizming o'chog'i mavjudligini va hokazo omillarni hisobga oladigan bo'lsak, davlatimizning diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurashishga majburligini, ammo, bunday ma'lum bir talablar va ehtiyotkorliklarni albatta hisobga olishimiz kerakligini yaxshi anglaymiz.

Bugungi kun globallashuv yaratgan imkoniyatlardan biri bo'lgan axborot sohasidagi terrorizm va ekstremizmning salbiy ta'sirlaridan na aholimiz va o'sib kelayotgan yoshlarimiz samarali himoyalangan deya olmaymiz. Sababi, turli ijtimoiy tarmoqlar va internet resurslarining tobora keng qo'lochi yoyib, ko'plab ongutafakkuri yaxshi shakllanib ulgurmagani yoshlarni o'z domiga tortayotganligini, erkinlikning bunday imkoniyatlaridan ekstremistik kuchlar o'ta samarali foydalanayotganligini ko'rib turibmiz. Nafaqat ko'rib, balki jamiyatimizning, davlatimizning, ko'plab fuqarolarimizning bundan katta jabr chekayotganligiga ham guvoh bo'lib turibmiz.

Ayniqsa, ko'plab terroristik va ekstremistik ruhdagi tashkilotlarning yoshlarni o'z ortidan ergashtirishning zamonaviy usul va vositalaridan samarali foydalanayotganligi, ularni terroristik tashkilotlar safiga jalb qilish, ruhiyatiga fundamentalistik g'oyalarni singdirayotganligi, oxir-oqibat o'z so'zlaridan chiqa olmaydigan manqurtlar guruhini shakllantirgan holda, ularni o'z vataniga davlatiga qarshi qayrayotganligi, "islomiy davlat" tuzish chaqirig'i ostida esa davlat barqarorligini izdan chiqarish va katta geosiyosiy o'yinchilarning manfaatlarini amalga oshirish uchun yo'naltirayotganligidir.

Ma'lumki, bunday g'arazli maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan kuchlarga qarshi zarba berish, bu yo'nalishdagi turli salbiy voqealarga qarshi kurashish borasida O'zbekistonda katta tajriba to'plangan. Qudratimiz, salohiyatimiz, kuchimiz bunday destruktiv kuchlarni bartaraf etishga yetadi. Ammo..., yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bunday kurashlarning tobora takomillashib borayotganligi sharoitida

ularga qarshi kurashishning yanada samarali va foydali, mamlakat imidjiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan, dunyoviy davlatchilik tamoyillariga zid bo'lmagan uslublarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishni zamonning o'zi bizdan taqazo qilmoqda.

Chunki, davlatimiz so'nggi besh olti yil davomida inson huquqlarini muqaddas bilib, siyosiy huquq va erkinliklarni, so'z va vijdon erkinligini ta'minlash borasida juda katta ijobiy islohotlarni amalga oshirdi. Xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini, nufuzini va imidjini yuksaltirish borasida misqollab yig'gan obro'sini saqlashi, terroristik tashkilotlarga bilib-bilmay kirib qolgan shaxslarga nisbatan munosabatda dunyoning ma'rifatli davlatlari tutgan yo'ldan borishi zamonning talabi ekanligini ham e'tirof etmoq lozim. Bunda oqni oq, qorani qoraga aniq ajratish, odil so'dlovni amalga oshirish, mahbuslarga jismoniy zarar yetkazmaslik, ularning ruhiy va ma'rifiy rehabilitatsiyasiga alohida e'tibor qaratish masalalari bizdan katta siyosiy bilimlarni, islohotlarni talab qiladi.

Yon atrofimizda yuz berayotgan hodisalarni tahlil qiladigan bo'lsak, hukumatlar, davlatlar yoki jamiyatlarning barqarorligiga katta salbiy ta'sir ko'rsatadigan asosiy holat, yutqazishining asosiy omili – bu ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash, mafkuraviy bo'shliqni to'ldira olmaslik, targ'ibot ishlarida suskashlikka yo'l qo'yayotganligi, axborot maydonida o'z vaqtida samarali shijoat ko'rsata olmayotganligidir. Terroristik va ekstremistik kuchlar esa o'z “mafkuraviy qaram”lariga doimo “jannat” va'da qilishi va buning uchun muqaddas islom dinining g'oyalaridan, shuningdek, axborot tarqatishning eng zamonaviy uslublaridan foydalanayotganligi ularning ba'zida ta'siri ortishiga ham xizmat qilayotganligini afsuslar bilan qayd etishimiz lozim.

Biz ham bu yo'lda avvalo jamiyatda ma'rifatparvarlik g'oyalaridan, zamonaviy targ'ibot uslublaridan, bugungi kun dunyo siyosatida ro'y berayotgan zamonaviy tendensiyalardan, milliy va mahalliy, hududiy va mintaqaviy xususiyatlarimizdan kelib chiqqan holda amalga oshirilmog'i joiz. Ma'lumki, Markaziy Osiyoda ro'y beradigan har qanday ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va harbiy jarayonlar jahon hamjamiyatining diqqat markazida turadi va bunday jarayonlarga turli-tuman baholar beriladi. Agarki, diniy ekstremizm va terrorizmga kurash jarayonida kuch tuzilmalari o'z vakolatlarini sal oshiradigan bo'lsalar, yoki davlat organlarining faoliyatida bu masala yuzasidan biroz qat'iy choralar ko'rilsa, birdaniga dunyo axborot makoni “O'zbekistonda inson huquqlari poymol bo'lmoqda, insonlarning diniy huquq va erkinliklari buzilmoqda” va hokazo asosli asossiz, isbot qilinmagan xabarar bilan portlaydi. Bu esa mamlakatimizning, davlatimizning, olib borilayotgan islohotlar va o'zgarishlarining xalqaro va ichki imidjga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadigan omilga aylanishi turgan gap.

Demak, asosiy vazifamiz, jamiyatda diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurashish immunitetini rivojlantirish, ma'rifatparvarlik salohiyatini kuchaytirish, eng zamonaviy axborot texnologiyalarning bugungi kun imkoniyatlaridan mutaxassislarimiz, olimlarimizning foydalana olish qobiliyatlarini yanada kuchaytirish imkoniyatlariga albatta alohida e'tibor qaratmog'imiz lozim. Shuningdek, bu borada davlat siyosati doirasida ma'lum bir

ijtimoiy, mafkuraviy, ma'naviy dasturlarni kuchaytirish, fuqarolarimizda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish va g'oyaviy kurashlar frontida faol bo'lgan olimlarni, ekspetlarni, ma'rifatparvarlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmog'i lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 7 dekabrdaqi Konstitutsiya kuni munosabati bilan bayram tabrigi. <https://president.uz/uz/lists/view/4815>
2. Uells E. Buyuk maqsadlarni amalga oshirish hamisha juda qiyin bo'lgan. – URL.: <http://uza.uz/oz/politics/buyuk-ma-sadlarni-amalga-oshirish-amisha-zhudaiyin-b-lgan-27-02-2018>.
- . Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari. <https://president.uz/uz/lists/view/4547>

1.4 Xalqaro miqyosdagi xavf-xatarlarga qarshi kurashda davlat siyosiy imidji masalalari

Dunyo miqyosida globallashuv jarayonlarining tobora murakkablashib borishi sharoitida davlat barqarorligi va xavfsizligiga nisbatan turli tahdidlarning tobora ko‘payib borayotganligiga guvoh bo‘lib turibmiz. Ayniqsa, davlatchilik taraqqiyoti va mavjudligining asoslariga keng zarba bera olish qobiliyatiga ega bo‘lgan terrorizm va ekstremizmning xavfi davlatchilik barqarorligiga keltirishi mumkin bo‘lgan salbiy ta’siri to‘g‘risida ortiqcha gapirishga hojat yo‘q. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 7 dekabrda Konstitutsiya kuni munosabati bilan bayram tabrigida “O‘tgan qisqa davrda jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy manzarasi butunlay o‘zgardi. Erkinlik va ochiqlik, qonun ustuvorligi, jahon hamjamiyati bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishiga aylandi” – deya ta’kidlaganligi mamlakatimizning qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatlarini yana bir bor asoslab berdi. Umuman olganda, bugun jahon hamjamiyatining teng huquqli a’zosi sifatida tobora barqaror rivojlanayotgan Yangi O‘zbekistonning xalqaro imidji tobora yuksalib borayotganligini barchamiz ko‘rib turibmiz. Jahon miqyosida 200 dan ortiq mamlakatning so‘nggi yillardagi rivojlanish sur’ati bilan solishtiradigan bo‘lsak, O‘zbekiston nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy barqarorlik va rivojlanish dinamikasi jihatdan ham katta yutuqlarni qo‘lga kiritib kelmoqda. Inson huquqlaridan tortib, so‘z erkinligi, vijdon erkinligi, siyosiy faollik, siyosiy madaniyatning yuksalishi va hokazo ko‘rsatkichlar borasida ham O‘zbekiston maqtanishga arzigulik muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritdi. AQSH Davlat kotibining Janubiy va Markaziy Osiyo masalalari bo‘yicha yordamchisi o‘rinbosari Elis Uells “Amerika ovozi” teleradiosiga bergan intervyusida shunday degan edi: “O‘zbekiston uzoq yillar mobaynida mintaq va bugun dunyoga ochilishni istamadi. Mintaqaviy hamkorlik yo‘lidan bormadi. Endi yangi yo‘l tuta boshladi. Bu O‘zbekiston ravnaqiga xizmat qiladi, albatta. Sarmoyadorlarga yo‘l ochib, mamlakatni ham o‘z qudrati, ham chet ellik hamkorlar yordami bilan rivojlantirish payti keldi”.

Eng quvonarlisi, so‘nggi besh yilda Yangi O‘zbekistonning siyosiy taraqqiyotini dunyoning nufuzli ekspertlari, siyosatchilari va taraqqiyot borasida katta yutuqlarni qo‘lga kiritgan davlatlar tomonidan e’tirof etilmoqda va dunyoviy rivojlanish borasidagi bunday islohotlar ular tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda, katta qiziqish bilan kuzatib borilmoqda. Mamlakatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Yangi O‘zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume’tirof etilgan norma va prinsiplarga qat’iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do‘stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo‘lgan davlatdir”.

Ma’lumki, xalqaro maydondagi bugungi nufuzimiz, mamlakatimizning jahon miqyosidagi tobora yuksalib, mutahkamlanib borayotgan imidji bundan bor yo‘g‘i 6-7 yil oldin terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish borasidagi uslublarni

qo'llashniga imkoniyat bermoydi. Bugun xalqaro hamjamiyat davlatimizni jadal siyosiy islohotlarni amalga oshirayotgan Yangi O'zbekiston sifatida ko'rmoqda. Demak, mamlakat, birinchi galda, davlatimizning barqarorligi va xavfsizligini, jamiyat tinchligini ta'minlash uchun avvalo, xalqaro maydondagi nufuzimizdan, salohiyatimizdan, amalga oshirayotgan keng ko'lamli isloholarning demokratik ruhidan kelib chiqib yondashishni zamonning o'zi talab qilmoqda.

O'zbekiston butunlay ekstremistik yoki fundamentalistik qarashardan holi mamlakat deya e'tirof etishimizning o'z haqiqat emas. Buni inkor ham qila olmaymiz. Zero, dunyodagi mana-man degan mamlakatlarning hech biri butunlay barqarorlikni kafolatlay olmagidek, O'zbekiston ham bunday muammolardan butunlay mustasno emas. Mamlakatimiz aholisining 90 foizdan ortig'ini islom diniga e'tiqod qiluvchilar tashki qilishini hisobga oladigan bo'lsa, islom dinini niqob qilib olgan ekstremistik, va terroristik kuchlarning maqsadlari bizga ham qaratilganligini, O'zbekistonning keng ko'lamli geosiyosiy manfaatlar to'qnashadigan hududda joylashganligi, yon qo'shni mamlakatlarimizda islomiy ekstremizming o'chog'i mavjudligini va hokazo omillarni hisobga oladigan bo'lsak, davlatimizning diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurashishga majburligini, ammo, bunday ma'lum bir talablar va ehtiyotkorliklarni albatta hisobga olishimiz kerakligini yaxshi anglaymiz.

Bugungi kun globallashuv yaratgan imkoniyatlardan biri bo'lgan axborot sohasidagi terrorizm va ekstremizmning salbiy ta'sirlaridan na aholimiz va o'sib kelayotgan yoshlarimiz samarali himoyalangan deya olmaymiz. Sababi, turli ijtimoiy tarmoqlar va internet resurslarining tobora keng qo'lochi yoyib, ko'plab ongutafakkuri yaxshi shakllanib ulgurmagan yoshlarni o'z domiga tortayotganligini, erkinlikning bunday imkoniyatlaridan ekstremistik kuchlar o'ta samarali foydalanayotganligini ko'rib turibmiz. Nafaqat ko'rib, balki jamiyatimizning, davlatimizning, ko'plab fuqarolarimizning bundan katta jabr chekayotganligiga ham guvoh bo'lib turibmiz.

Ayniqsa, ko'plab terroristik va ekstremistik ruhdagi tashkilotlarning yoshlarni o'z ortidan ergashtirishning zamonaviy usul va vositalaridan samarali foydalanayotganligi, ularni terroristik tashkilotlar safiga jalb qilish, ruhiyatiga fundamentalistik g'oyalarni singdirayotganligi, oxir-oqibat o'z so'zlaridan chiqa olmaydigan manqurtlar guruhini shakllantirgan holda, ularni o'z vataniga davlatiga qarshi qarayotganligi, "islomiy davlat" tuzish chaqirig'i ostida esa davlat barqarorligini izdan chiqarish va katta geosiyosiy o'yinchilarning manfaatlarini amalga oshirish uchun yo'naltirayotganligidir.

Ma'lumki, bunday g'arazli maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan kuchlarga qarshi zarba berish, bu yo'nalishdagi turli salbiy voqealarga qarshi kurashish borasida O'zbekistonda katta tajriba to'plangan. Qudratimiz, salohiyatimiz, kuchimiz bunday destruktiv kuchlarni bartaraf etishga yetadi. Ammo..., yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bunday kurashlarning tobora takomillashib borayotganligi sharoitida ularga qarshi kurashishning yanada samarali va foydali, mamlakat imidjiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan, dunyoviy davlatchilik tamoyillariga zid bo'lmagan uslublarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishni zamonning o'zi bizdan taqazo

qilmoqda. Chunki, davlatimiz so‘nggi besh olti yil davomida inson huquqlarini muqaddas bilib, siyosiy huquq va erkinliklarni, so‘z va vijdon erkinligini ta‘minlash borasida juda katta ijobiy islohotlarni amalga oshirdi. Xalqaro maydondagi obro‘e‘tiborini, nufuzini va imidjini yuksaltirish borasida misqollab yig‘gan obro‘sini saqlashi, terroristik tashkilotlarga bilib-bilmay kirib qolgan shaxslarga nisbatan munosabatda dunyoning ma‘rifatli davlatlari tutgan yo‘ldan borishi zamonning talabi ekanligini ham e‘tirof etmoq lozim. Bunda oqni oq, qorani qoraga aniq ajratish, odil so‘dlovni amalga oshirish, mahbuslarga jismoniy zarar yetkazmaslik, ularning ruhiy va ma‘rifiy rehabilitatsiyasiga alohida e‘tibor qaratish masalalari bizdan katta siyosiy bilimlarni, islohotlarni talab qiladi.

Yon atrofimizda yuz berayotgan hodisalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, hukumatlar, davlatlar yoki jamiyatlarning barqarorligiga katta salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan asosiy holat, yutqazishining asosiy omili – bu ma‘naviy xavfsizlikni ta‘minlash, mafkuraviy bo‘shliqni to‘ldira olmaslik, targ‘ibot ishlarida suskashlikka yo‘l qo‘yayotganligi, axborot maydonida o‘z vaqtida samarali shijoat ko‘rsata olmayotganligidir. Terroristik va ekstremistik kuchlar esa o‘z “mafkuraviy qaram”lariga doimo “jannat” va‘da qilishi va buning uchun muqaddas islom dinining g‘oyalaridan, shuningdek, axborot tarqatishning eng zamonaviy uslublaridan foydalanayotganligi ularning ba‘zida ta‘siri ortishiga ham xizmat qilayotganligini afsuslar bilan qayd etishimiz lozim.

Biz ham bu yo‘lda avvalo jamiyatda ma‘rifatparvarlik g‘oyalaridan, zamonaviy targ‘ibot uslublaridan, bugungi kun dunyo siyosatida ro‘y berayotgan zamonaviy tendensiyalardan, milliy va mahalliy, hududiy va mintaqaviy xususiyatlarimizdan kelib chiqqan holda amalga oshirilmog‘i joiz. Ma‘lumki, Markaziy Osiyoda ro‘y beradigan har qanday ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va harbiy jarayonlar jahon hamjamiyatining diqqat markazida turadi va bunday jarayonlarga turli-tuman baholar beriladi. Agarki, diniy ekstremizm va terrorizmga kurash jarayonida kuch tuzilmalari o‘z vakolatlarini sal oshiradigan bo‘lsalar, yoki davlat organlarining faoliyatida bu masala yuzasidan biroz qat‘iy choralar ko‘rilsa, birdaniga dunyo axborot makoni “O‘zbekistonda inson huquqlari poymol bo‘lmoqda, insonlarning diniy huquq va erkinliklari buzilmoqda” va hokazo asosli asossiz, isbot qilinmagan xabarar bilan portlaydi. Bu esa mamlakatimizning, davlatimizning, olib borilayotgan islohotlar va o‘zgarishlarining xalqaro va ichki imidjga juda katta salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan omilga aylanishi turgan gap.

Demak, asosiy vazifamiz, jamiyatda diniy ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurashish immunitetini rivojlantirish, ma‘rifatparvarlik salohiyatini kuchaytirish, eng zamonaviy axborot texnologiyalarning bugungi kun imkoniyatlaridan mutaxassislarimiz, olimlarimizning foydalana olish qobiliyatlarini yanada kuchaytirish imkoniyatlariga albatta alohida e‘tibor qaratmog‘imiz lozim. Shuningdek, bu borada davlat siyosati doirasida ma‘lum bir ijtimoiy, mafkuraviy, ma‘naviy dasturlarni kuchaytirish, fuqarolarimizda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish va g‘oyaviy kurashlar frontida faol bo‘lgan olimlarni, ekspetlarni, ma‘rifatparvarlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratilmog‘i lozim.

Adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 7 dekabrda Konstitutsiya kuni munosabati bilan bayram tabrigi.

<https://president.uz/uz/lists/view/4815>

2.Uells E. Buyuk maqsadlarni amalga oshirish hamisha juda qiyin bo‘lgan. –

URL.: <http://uza.uz/oz/politics/buyuk-ma-sadlarniamalga-oshirish-amisha-zhuda-iyin-b-lgan-27-02-2018>.

3.Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim

Doniyorovning savollariga javoblari. <https://president.uz/uz/lists/view/4547>

5.5. Qurolli kuchlar imidji va PR muammolari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Dunyoda ro‘y berayotgan gibrid xarakterdagi qurolli to‘qnashuvlar tahlili bizdan Qurolli Kuchlarimizning jangovar harakatlar arayonida ilgari amalda qo‘llanilmagan qurollardan foydalanadigan kuchlarga qarshi kurasha olish qobiliyatini oshirishni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda, avvalo, jangovar harakatlarning samarali shakl va usullarini tadqiq va tatbiq etish, Qurolli Kuchlarning yagona avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini yaratish va rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish borasidagi ishlarni jadallashtirishimiz lozim”. Bugungi Qurolli kuchlar imidjini yuksaltiradigan yana bir omil – bu “armiyaning maxsus dizaynini yaratish, u orqali yoshlar orasida sohaga qiziqishni oshirish masalasidir”. Bunday qiziq faoliyatga asoslangan vaziyat: bir tomondan, o‘z missiyasi, o‘zining suvenir mahsulotlarini, kiyim-kechaklarini, tarixiy manbalariga doir qiziqarli ma’lumotlar yaratish va sotish bilan shug‘ullanadigan armiyaning brendi mavjudligini ta’kidlash mumkin.

Armiyaning o‘zi ham bugungi kunda o‘z brendini yaratish, ushbu yo‘nalishga qaratilgan turli tadbirlar o‘tkazish, o‘z reklamasi ustida ishlash kabi vazifalar turibdi. Shuningdek, O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi turli armiya o‘yinlaridagi ishtiroki va ularda nufuzli o‘rinlarni egallashlari ham ma’lum ma’nodagi brending vazifalarni yuklaydi. Ushbu halqaro harbiy musobaqalar va armiya o‘yinlari orqali bugungi kunda O‘zbekiston nafaqat o‘zining harbiy sohadagi imkoniyatlarini va tajribalarini oshirib kelayotganligini, balki xalqaro maydondagi harbiy imidjini yuksaltirib kelayotganligini ham alohida mavzu va dolzarb masala sifatida e’tirof etmoq lozim.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston armiyasining qudrati, salohiyati, harbiy texnikalari sifati va ulardan foydalana olish salohiyati bir necha nufuzli nashrlar, reyting agentliklari tomonidan doimiy tahlil qilinib, xolis baholanib kelayotganligini ham aytib o‘tish lozim. Reyting 36 mamlakatda 17,2 ming kishi o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma asosida tuzilgan. Barcha mamlakatlar individual javoblar kombinatsiyasi asosida 73 mezon bo‘yicha baholandi. O‘zbekiston armiya qudrati bo‘yicha Qozog‘istondan 0,2 ballga oldinda – mos ravishda 16 va 15,8 ball. Shu bilan birga, Qozog‘iston avvalroq ikki yil ketma-ket oldinda edi: 2021 yilda – 25,6 va 21,5 ball, 2022 yilda – 12,6 va 10,8 ball. Yana bir reyting agentligi bo‘lgan PowerIndex tomonidan berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston dunyoning 145 qudratli armiyalari ichida 62-o‘rinni egalladi va bu holat agentlik tomonidan Markaziy Osiyo davlatlari ichida eng zo‘r natija sifatida qayd etildi. Ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonning bugungi kundagi harbiy va mudofaa byudjeti \$692,5 mln. dollarni tashkil qiladi va harbiy xizmatchilarning umumiy soni 60 ming nafar atrofida ekanligi qayd etilgan bo‘lsa, qurolli kuchlar aviatsiyasi turli modifikatsiyadagi 197 samolet va vertoletlardan, 420 tank va boshqa 11,8 ming sonli texnikadan iboratligi ta’kidlangan. Maqtovga sazovor jihat esa shuki, Markaziy Osiyo miqyosida undan keyingi o‘rinni Qog‘og‘iston — 63-o‘rin. Turkmaniston — 82-o‘rin, Qirg‘iziston — 107-o‘rin, Tojikiston — 120-o‘rinni egallaganligidir. Dunyo reyingida lider davlatlar qatoriga esa AQSH, Rossiya, Xitoy, Hindiston,

Buyuk Britaniya, Fransiya, Isroil, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Turkiya kabilar kiritilgan.

Mana shunday xalqaro reytinglarda O'zbekistonning o'rnini yana yuksaltiradigan doimiy tahlillar va kamchiliklarni bartaraf etish ustida ishlash, tizimning doimiy rivojlanishini ta'minlash, professionalligini oshirish bilan bog'liq metodologik muammolarni doimiy monitoringlar asosida hal qilish ham aslida mamlakatning halqaro maydondagi imidjiga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman, bugungi kunda Qurolli kuchlarning tizim sifatida reytingdagi o'rnini oshirish quyidagi indikatorlarni hisobga olish va kuchaytirish lozim deb hisoblaymiz:

1. Armiyaning professionalligi va yuqori darajadagi tartib-intizomini ko'rsata bilishi;

2. Zamonaviy qurol-yarog' va boshqa texnikalar bilan ta'minlanganlik va ulardan armiyaning samarali foydalana olish indeksi;

3. Harbiy xizmatchilarning dunyodagi geosiyosiy jarayonlardan xabardorligi, mafkuraviy immuniteti yuqoriligi, zamonaviy axborot texnologiyalardan yuqori darajada foydalana olishi, dunyoning qudratli davlatlari armiyalarining tajribalaridan xabardorlik va xorijiy tillarni egallaganlik darajasi;

4. Mamlakatning geosiyosiy holati va uning global-harbiy-siyosiy makondagi mavqei;

5. Mamlakat milliy manfaatlariga nisbatan to'g'ilgan tahdidlarni operativ tartibda samarali bartaraf eta olish imkoniyatlari, tajribasi va salohiyati;

6. Dunyoning harbiy sohada qudratli va reytingi baland bo'lgan yetakchi davlatlari bilan harbiy sohada hamkorligining rivojlanganlik darajasi;

7. Mamlakatning harbiy texnika va qurol-yarog' ishlab chiqarish bilan bog'lik sanoat kompleksi va infrastrukturasini;

8. Mamlakatning harbiy xavfsizligini mustahkamlashga, harbiy qurilish va ularning zamonaviy metodlarini o'rganishga qaratilgan fundamental muammolarni va masalalarga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatlari va tadqiqotlarning amaliyotga joriy qilinishi;

9. Davlatdagi harbiy kuchlarning davlatning butun hududini himoya qila oladigan darajadagi joylashuvi va operativ jihozlar bilan ta'minlanganligi;

10. Mamlakat armiyasining real harbiy nizolarda qatnashganligi va unda erishgan natijasi, tajribasi va zamonaviy urushning oqibatlarini, texnologiyalarini boshdan kechirganligi, urush taktikalarini va metodlarini doimiy takomillashtirib borishi;

11. Qurolli kuchlar xizmatchilari va harbiy xizmatchilarni ijtimoiy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, huquqiy himoya qilish va rag'batlantirish tizimining rivojlantirish va takomillashganlik darajasi;

12. Mamlakatning harbiy vositalar va qurollar importiga bog'liqlik darajasi, ularni ishlab chiqarish yoki harbiy zaxiralar bo'yicha imkoniyatlari;

13. Mamlakat harbiy harajatlarining, harbiy va mudofaa buyurtmalarining jamoatchilik institutlari uchun shaffofligi, ochiqqligi, korrupsiyadan va mafkuraviy motivlardan holiligi;

14. Qurolli kuchlar tizimining, shuningdek, harbiy sanoatni rivojlantirish borasidagi innovasion indeksi va ularning rivojlanish tendensiyalari;

15. Mamlakat harbiy kuchlarining soni, sifati, salohiyati va uning qo'llab-quvvatlanishi bo'yicha Davlat byudjeti Yalpi ichki mahsulotdan ajratiladigan mablag'ning hajmi;

16. Qurolli kuchlar yoki xavfsizlik organlarining, kuch tuzilmalarining bugungi zamon geosiyosiy mafkuraviy jarayonlariga chidamlilik indeksi va xokazo.

Shuningdek, bugungi kunda zamonaviy armiya va Qurolli kuchlar tizimida "urushlarni loyihalashtirish va simulyatsiya" qilish yordamida birinchidan, harbiylarning salohiyatini, urushda foydalanadigan taktik qobiliyatlarini rivojlantirish, ikkinchidan esa, alohida milliy markatrovkalar va epikirovkalarni qo'llash orqali Qurolli kuchlar imidjini yuksaltirish bilan bog'lik ishlar ham muhim. Bu vazifalarni bajarish jarayonida mamlakat xavfsizligiga nisbatan yuzaga kelish ehtimoli mavjud bo'lgan risklarning konseptual asoslari ishlab chiqiladi va ularni bartaraf etishning harbiy metodik, ta'minot, logistika va iqtisodiy asoslanishi kabi professionallikni yuksaltirish bilan bog'liq maqsadlarga ham erishiladi.

Xulosa tarzida aytish mumkinki, Qurolli kuchlarning, yoki umuman harbiy sohaning imidjini yuksaltirish – bu nafaqat mamlakatning tashqi siyosiy vazifalarini hal qilish bilan bog'liq kuch diplomatiyasi uchun muhim (xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarda diplomatlarda o'z davlati qudratiga bo'lgan ishonch), balki ichki siyosiy (aholi, ayniqsa yoshlar ruhiyatida vatanparvarlik va harbiy xizmatga nisbatan ijobiy munosaabtning shakllanishi) muammolarni ham yechishning asosiy manbaidir.

O'zbekistonning harbiy xavfsizligining fundamental vazifalari dolzarbligidan kelib chiqqan holda, sohani tizimli tahlillar yordamida doimiy takomillashtirib borish, armiyaning imidjini kun-sayin yuksaltirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, qo'lga kiritilgan natijalar va ilmiy xulosalardan tizimni takomillashtirish, innovatsion faoliyatini yanada taraqqiy ettirish muammolarini yechish mumkin.

Ayniqsa, harbiy sohaning ijobiy imidji yaratishning fundamental asosi bilan bog'liq tizimli muammolarga yechim topish, bu boradagi davlat boshqaruvini optimallashtirish, harbiy nizolarning ehtimoli ortib borayotgan, bu borada global raqobat kuchayayotgan bugungi sharoitda armiyaning nufuzini va professionalligini baholashning metodologik bazasini takomillashtirish strategik ahamiyatga ega.

Tadqiqot davomida taklif qilingan, biroq hali chuqur o'rganilishi, takomillashtirilishi lozim bo'lgan metodologiya va model vositalari original asoslarga ega bo'lib, dunyoning rivojlangan mamlakatlari va taniqli ekspertlar, olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlardan kelib chiqqanligini ham e'tirof etish joiz. Shu sabablarga ko'ra, taklif qilingan tadqiqot metodologiyasi mamlakat mustaqilligi va suverenitetini himoya qilishning muhim omili bo'lgan bugungi kun harbiy soha va u bilan bog'liq davlat siyosatini takomillashtirish bo'lgan talablaridan kelib chiqqan holda, o'ta dolzarb hisoblanadi. Yana bir ahamiyat qaratadigan jihat – bu mamlakat armiyasida xizmat qilishning naqadar sharaf ekanligini targ'ib qilishni va uning nufuzini yanada yuksaltirishni umumilliy loyihaga aylantirish va Qurolli

kuchlarning shonu-shavkatini oshiradigan “shiorlar”, turli dizaynli roliklar yaratish masalasidir. Chunki davrning o‘zgarayotganligi uzoq yillardan beri davlatning eng konservativ institutlaridan biri bo‘lgan armiyada ham mazmunan va ham shaklan transformatsiya jarayonlarini taqazo etmoqda. Shu nuqtai-nazardan ham Qurolli kuchlar sohasi uchun reklama, brending, PR kabi vosita va instrumentlarning joriy qilinishi juda katta imkoniyatlarni taqdim qiladi.

XULOSA

Mavzuni tadqiq qilish borasida shunday xulosalar shakllandiki, avvalo, xalqaro maydonda mamlakatning o'ziga xos, yuksak imidjini shakllantirish vazifalari har qanday mamlakat singari O'zbekiston uchun o'ta dolzarb, aytish-mumkinki, hayot-mamot masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakatning xalqaro imidjini shakllantirishning barcha yo'nalishlari, sohalari qatorida so'nggi yillarda siyosiy va harbiy sohaning ham muhim institutsional va imidj omili sifatida namoyon bo'layotganligi bugun hech birimizga sir emas. Shu nuqtai-nazardan ham tadqiqot davomida eng kam o'rganiladigan mavzulardan biri sifatida mamlakat xalqaro imidjini shakllantirishning harbiy va siyosiy masalalari ham mazkur monografiyadan o'rin olgan.

Bugungi kunda O'zbekistonning xalqaro imidjini yuksaltirishning siyosiy va harbiy masalalari bilan bir qatorda, ijtimoiy, diniy, iqtisodiy, turizm va boshqa masalalari ham chuqur o'rganilmoqda, tadqiq qilinmoqda.

Mamlakatda dunyoda bo'ladigan siyosiy o'zgarishlarni doimiy tahlil qilish, mamlakat ichida va jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarning tendensiyalarini o'rgangan holda, barcha siyosiy institutlar faoliyatini rivojlantirish, mobilligini oshirish, ish samaradorligini yuksaltirish, zamonaviylashtirish, ular faoliyatiga doimiy innovatsion uslublarni tatbiq qilib borish borasidagi vazifalarda aslo ortda qolishi mumkin emas. Aks holda, turli tahdidlar, mafkuraviy salbiy ta'sirlar davlat va jamiyat barqarorligini izdan chiqarib, turli fojiaiy oqibatlarga olib kelishini o'z vaqtida anglab yetmog'imiz lozim.

Haqiqatda, bugungi kunda dunyoni bezovta qilayotgan, musulmon dunyosi taraqqiyotini ortga surishga, rivojlanishdan mahrum qilishga va eng asosiysi barqarorlik va xavfsizlikka rahna solayotgan radikal islomiy g'oyalarga qarshi kurashish, bu yo'lda chuqur insonparvarlik va ma'rifat tamoyillariga amal qilish borasida O'zbekiston juda katta yutuqlarni qo'lga kiritdi va bu uning xalqaro maydondagi imidji yuksalishining asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shular bilan bir qatorda, O'zbekistonning nafaqat moddiy, balki ko'plab nomoddiy me'rosiga ega ekanligi, bu borada rang-barang festivallarning, xalq sayillarining, bayramu-tadbirlarning o'tkazilib kelinayotganligi, ayniqsa, qadimdan saqlanib kelinayotgan xunarmandchilik madaniyati mavjudligi xam mavjudligi, bunday tadbirlar dunyoning minglab turistlarini O'zbekistonga katta kiziqish bilan tashrif buyurishlariga xam mamlakatimizning turistik imidjini oshiradigan omil ekanligini, albatta soha taraqqiyoti uchun vazifa ekanligini unutmashlik lozim.

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshayotgan faol demokratik o'zgarishlar jahon axborot maydonida dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Buning ortidan, mamlakatning imidji ham yuksalmoqda. Aholining siyosiy madaniyati va dunyoqarashi ham jahon miqyosida ro'y berayotgan o'zgarishlarga moslashib, Markaziy Osiyo mintaqasida ham O'zbekistonning ochiqlik siyosati ham davlatlar va ham jamoatchilik tomonidan qo'llabquvvatlanmoqda. Eng asosiysi, asosiy savdo-iqtisodiy sheriklar dunyoqarashida O'zbekistonning imidji tom ma'noda yuksalayotganligini kuzatilmoqda. Bu borada dunyoviylik tamoyillari asosida

rivojlanish, o‘zaro yaqin qo‘shnichilik, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik, har qanday masalani o‘zaro diplomatik yo‘llar bilan hal qilishga qaratilgan tashqi siyosat muhim rol o‘ynamoqda.

Ayniqsa, mintaqa davlatlari bilan aloqalarni rivojlantirish, 25 yillik davr mobaynida vujudga kelgan “muzlikni eritish” uchun amalga oshirilgan O‘zbekiston katta siyosiy dividendlarni ham taqdim qilganligini ko‘rdik. Demak, aytish mumkinki, “ijobiy imidj mamlakatga iqtisodiy imkoniyatlar beradi.

Qurolli kuchlarning, yoki umuman harbiy sohaning imidjini yuksaltirish – bu nafaqat mamlakatning tashqi siyosiy vazifalarini hal qilish bilan bog‘liq kuch diplomatiyasi uchun muhim (xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarda diplomatlarda o‘z davlati qudratiga bo‘lgan ishonch), balki ichki siyosiy (aholi, ayniqsa yoshlar ruhiyatida vatanparvarlik va harbiy xizmatga nisbatan ijobiy munosaabtning shakllanishi) muammolarni ham yechishning asosiy manbaidir.

O‘zbekistonning harbiy xavfsizligining fundamental vazifalari dolzarbligidan kelib chiqqan holda, sohani tizimli tahlillar yordamida doimiy takomillashtirib borish, armiyaning imidjini kun-sayin yuksaltirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, qo‘lga kiritilgan natijalar va ilmiy xulosalardan tizimni takomillashtirish, innovatsion faoliyatini yanada taraqqiy ettirish muammolarini yechish mumkin.

Ayniqsa, harbiy sohaning ijobiy imidji yaratishning fundamental asosi bilan bog‘liq tizimli muammolarga yechim topish, bu boradagi davlat boshqaruvini optimallashtirish, harbiy nizolarning ehtimoli ortib borayotgan, bu borada global raqobat kuchayayotgan bugungi sharoitda armiyaning nufuzini va professionalligini baholashning metodologik bazasini takomillashtirish strategik ahamiyatga ega.

Tadqiqot davomida taklif qilingan, biroq hali chuqur o‘rganilishi, takomillashtirilishi lozim bo‘lgan metodologiya va model vositalari original asoslarga ega bo‘lib, dunyoning rivojlangan mamlakatlari va taniqli ekspertlar, olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlardan kelib chiqqanligini ham e‘tirof etish joiz. Shu sabablarga ko‘ra, taklif qilingan tadqiqot metodologiyasi mamlakat mustaqilligi va suverenitetini himoya qilishning muhim omili bo‘lgan bugungi kun harbiy soha va u bilan bog‘liq davlat siyosatini takomillashtirish bo‘lgan talablaridan kelib chiqqan holda, o‘ta dolzarb hisoblanadi. Yana bir ahamiyat qaratadigan jihat – bu mamlakat armiyasida xizmat qilishning naqadar sharafligini targ‘ib qilishni va uning nufuzini yanada yuksaltirishni umumilliy loyihaga aylantirish va Qurolli kuchlarning shonu-shavkatini oshiradigan “shiorlar”, turli dizaynli roliklar yaratish masalasidir. Chunki davrning o‘zgarayotganligi uzoq yillardan beri davlatning eng konservativ institutlaridan biri bo‘lgan armiyada ham mazmunan va ham shaklan transformatsiya jarayonlarini taqazo etmoqda. Shu nuqtai-nazardan ham Qurolli kuchlar sohasi uchun reklama, brending, PR kabi vosita va instrumentlarning joriy qilinishi juda katta imkoniyatlarni taqdim qiladi.

Umuman, bugungi kunda Qurolli kuchlarning tizim sifatida reytingdagi o‘rnini oshirish quyidagi indikatorlarni hisobga olish va kuchaytirish lozim deb hisoblaymiz:

1. Armiyaning professionalligi va yuqori darajadagi tartib-intizomini ko'rsata bilishi;
2. Zamonaviy qurol-yarog' va boshqa texnikalar bilan ta'minlanganlik va ulardan armiyaning samarali foydalana olish indeksi;
3. Harbiy xizmatchilarning dunyodagi geosiyosiy jarayonlardan xabardorligi, mafkuraviy immuniteti yuqoriligi, zamonaviy axborot texnologiyalardan yuqori darajada foydalana olishi, dunyoning qudratli davlatlari armiyalarining tajribalaridan xabardorlik va xorijiy tillarni egallaganlik darajasi;
4. Mamlakatning geosiyosiy holati va uning global-harbiy-siyosiy makondagi mavqei;
5. Mamlakat milliy manfaatlariga nisbatan to'g'ilgan tahdidlarni operativ tartibda samarali bartaraf eta olish imkoniyatlari, tajribasi va salohiyati;
6. Dunyoning harbiy sohada qudratli va reytingi baland bo'lgan yetakchi davlatlari bilan harbiy sohadagi hamkorligining rivojlanganlik darajasi;
7. Mamlakatning harbiy texnika va qurol-yarog' ishlab chiqarish bilan bog'lik sanoat kompleksi va infrastrukturasini;
8. Mamlakatning harbiy xavfsizligini mustahkamlashga, harbiy qurilish va ularning zamonaviy metodlarini o'rganishga qaratilgan fundamental muammolarni va masalalarga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatlari va tadqiqotlarning amaliyotga joriy qilinishi;
9. Davlatdagi harbiy kuchlarning davlatning butun hududini himoya qila oladigan darajadagi joylashuvi va operativ jihozlar bilan ta'minlanganligi;
10. Mamlakat armiyasining real harbiy nizolarda qatnashganligi va unda erishgan natijasi, tajribasi va zamonaviy urushning oqibatlarini, texnologiyalarini boshdan kechirganligi, urush taktikalarini va metodlarini doimiy takomillashtirib borishi;
11. Qurolli kuchlar xizmatchilari va harbiy xizmatchilarni ijtimoiy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, huquqiy himoya qilish va rag'batlantirish tizimining rivojlantirish va takomillashganlik darajasi;
12. Mamlakatning harbiy vositalar va qurollar importiga bog'liqlik darajasi, ularni ishlab chiqarish yoki harbiy zaxiralar bo'yicha imkoniyatlari;
13. Mamlakat harbiy harajatlarining, harbiy va mudofaa buyurtmalarining jamoatchilik institutlari uchun shaffofligi, ochiqqligi, korrupsiyadan va mafkuraviy motivlardan holiligi;
14. Qurolli kuchlar tizimining, shuningdek, harbiy sanoatni rivojlantirish borasidagi innovation indeksi va ularning rivojlanish tendensiyalari;
15. Mamlakat harbiy kuchlarining soni, sifati, salohiyati va uning qo'llab-quvvatlanishi bo'yicha Davlat byudjeti Yalpi ichki mahsulotdan ajratiladigan mablag'ning hajmi;
16. Qurolli kuchlar yoki xavfsizlik organlarining, kuch tuzilmalarining bugungi zamon geosiyosiy mafkuraviy jarayonlariga chidamlilik indeksi va xokazo.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ташкил этилганининг 31 йиллиги муносабати билан Ватан ҳимоячиларига байрам табриги. <https://president.uz/uz/lists/view/5821>
2. Хрусталёв Е.Ю. Глобальное военное противостояние и методология оценки обороноспособности России. // Приоритеты России. <https://cyberleninka.ru/article/n/globalnoe-voennoe-protivostoyanie-i-metodologiyaotsenki-oboronosposobnosti-rossii/viewer>
3. These Countries Have the Strongest Militaries. <https://www.geeksforgeeks.org/top-10-powerful-countries-in-the-world-by-militarystrength/>
4. Армия Узбекистана сильнейшая в Центральной Азии. <https://uz.kursiv.media/2023-01-06/armiya-uzbekistana-silnejshaya-v-czentralnoj-azii/>